

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK _____

KARIMOV ABDUVALI JO‘RAYEVICH

**SHOH TASVIRINI BERISHDA KO‘CHIM TURLARINING
ISHTIROKI**

**70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

N. Amonturdiyev

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Termiz – 2024

SHOH TASVIRINI BERISHDA KO‘CHIM TURLARINING ISHTIROKI

MUNDARIJA:

I BOB. KO‘CHIM TURLARINING LINGVISTIK TADQIQI

1.1. Ko‘chim turlari – lingvistik tadqiqot obykti sifatida

1.2. Olam manzarasini tasvirlashda ko‘chim turlarining roli

Bob bo‘yicha xulosa

II BOB. BADIY ASARLARDA SHOHNING TASHQI VA RUHIY HOLATINI IFODALASHDA KO‘CHIM ISHTIROKI

2.1. Badiiy asarlarda shohning tashqi holatini ifodalashda ko‘chim turlarining ishtiroki

2.2. Badiiy asarlarda shohning ruhiy olamini berishda ko‘chim turlarining roli

Bob bo‘yicha xulosa

III BOB. KO‘CHIMLARNING LEKSIK-GRAMMATIK, STRUKTUR TABIATI

3.1. Ko‘chimlarning struktur-funksional tabiati

3.2. Shoh tasvirini berishda qo‘llangan ko‘chimlarning leksik-grammatik xususiyatlari

Bob bo‘yicha xulosa

UMUMIY XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Badiiy matnda ko‘chimlar nutqning obrazlilikini ta’minlovchi vosita sifatida qarashlar fanda keng tarqalgan. Badiiy matnni lingvistik jihatdan tahlil qilish, ijodkor tilidan foydalanish uning mahorati bilan bog‘liq hodisadir. Badiiy asar leksikasini o‘rganish va tahlil qilish badiiy nutqning jozibasini ko‘rsatib beradi. Ko‘chimlar badiiy nutqda uslubiy vazifa bajarib emotsionallikni oshiradi. Badiiy asarlarda shohlar tasvirini berishda ko‘chimlar o‘ziga xos lingvistik vazifa ega.

Xususan, ko‘chim va uning turlaridan biri metaforaning keng miqyosda o‘rganilishi juda qadimga borib taqaladi. Tarixdan bizga ma’lumki, nasriy va she’riy asarlarning deyarli barchasida aksariyat ta’rif-u tavsiflar shoh va sultonlarga berilgan. Qadimgi turk xoqonligida Eltarishxoqon, Bilgaxoqon tosh bitiklari, Firdavsiyning “Shohnoma”si, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida umuman olganda, aksariyat mashhur asarlarda ham hukmdorlarga alohida ta’rif va tavsif berilgan. Berilgan ushbu ta’riflarda shohlarga aytilgan alqovlar, maqtovlar barchasida ko‘chimlar qo‘llanib, badiiy matnda obrazlilik, ta’sirchanlik yuzaga keltirgan.

Ko‘chim va uning turlari, xususan, metafora negizida metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlikning o‘rganilishi juda qadimdan boshlangan. Qadimgi yunon faylasufi Arastuning “Metafizika” asarida olamni bilish va anglashda metaforaning xususiyatlarini sharhlab o‘tadi. Shundan anglashiladiki, qadimdan shohlarga atab bitilgan doston, she’r va hatto marsiyalarda ham shohlar tasviriga yuksak baho berish uchun ko‘chimlardan unumli foydalanganlar. Bu hodisa sharq badiiyatida majoz tushunchasini bergan.

Shohlarga bag‘ishlab yozilgan badiiy asarlarni o‘rganishda ikki davr nuqtayi nazaridan qarash lozim deb ajratdik: 20-asr o‘zbek ijodkorlari badiiy nutqida va mumtoz adabiyot ijodkorlari badiiy nutqida shohlar tasvirini berishda ko‘chimlarni tadqiq etdik. Ko‘chimlarning badiiy matnda qo‘llanishi davr badiiy nutqida ma’lum ma’noda farqlilikni ko‘rsatadi. Shuning uchun badiiy asarlarda ko‘chimlar tahlil qilinganda, ayniqsa shohlar tasviri berilgan badiiy matnlar bilan ishlashda

davr nuqtayi nazaridan qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shohlarga berilgan ta'riflarda ko'chimlarni aniqlashda ijobiy va salbiy ma'no kasb etgan metaforalarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Tilshunoslikda ilk bor badiiy asarlarda shoh tasvirini berishda ko'chim va uning turlarining o'rganilishi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning bo'yicha adabiyotlar sharhi. Jahon va o'zbek hosila ma'no, kognitiv metafora, badiiy matn lingvopoetikasi masalalariga bag'ishlangan ilmiy kuzatishlarga tayanildi. A.Potebniya, O.S.Axmanova, M.Mirtojiyev, M.Yo'ldoshev, Sh.Maxmaraimova, B.Umurqulov, D.Xudoyberganova, SH.Raxmatullayev kabi olimlar tomonidan qo'llangan yo'l va usullar tadqiqot uchun muhim yo'llanma vazifasini o'tadi.

ning obyekti. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir vaqtida davlat boshqaruvida bo'lgan podshohlar taqdiri, shaxsiyati badiiy tarzda bayon qilingan tarixiy va badiiy asarlar tadqiqotning asosiy obyekti sanaladi.

predmeti. Badiiy asarlarda shoh obrazi ko'plab uchraydi. Podshohlarning ichki va tashqi qiyofasi, ruhiy olamini ko'rsatib berish jarayonida ko'chim va uning turlarining o'rni beqiyos. Shoh

asosiy maqsad va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi badiiy asarlarda shohning holatini ifodalashda ko'chim turlarini aniqlash va tahlil qilish. Badiiy asarda shoh tasvirini yoritishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi ko'chim turlarini aniqlash va ularning lug'aviy yaralish tamoyillari to'g'risida mulohaza yuritishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda ishimizda quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

– ko'chim va uning turlari haqida manbalar to'plash, uning tarkibiy qisimlarini badiiy asarlarda aniqlash, har bir turning muhim xususiyatlarini belgilash va leksik qatlamdagi mavqeyini ko'rsatishdir;

– badiiy asarlarda shoh obrazini shakllantirishda uning ruhiy va tashqi holatni ifodalagan ko'chim turlari bilan ishlash;

– badiiy asarlarda shoh tasvirini berishda qo'llangan ko'chimlarning leksik-

grammatik xususiyatlarini tahlil qilish;

– badiiy asarlarda shohlarga berilgan tasvirlarda ko‘chimlarning struktur-funksional tabiati jihatidan lingvistik tahlil qilish.

ilmiy yangiligi quyidagilar:

– badiiy asarda shoh tasvirini berishda qo‘llanilgan ko‘chimlar mavjud misollar to‘plandi va yig‘ilgan misollarni ko‘chim turlari jihatidan ajratildi;

– badiiy asarlarda shoh obrazini shakllantirishda uning ruhiy va tashqi holatni ifodalagan ko‘chim turlarining ahamiyati va roli ilmiy-amaliy jihatdan misollar bilan asoslandi;

– badiiy asarlarda shoh tasvirini berishda qo‘llangan ko‘chimlarning leksik-

– badiiy asarlarda shohlarga berilgan tasvirlarda ko‘chimlarning struktur-funksional tabiati jihatidan lingvistik tahlil qilindi.

Tadqiqotda shoh tasvirini shakllantirgan ko‘chim va uning turlarini aniqlashda

Tadqiqot natijalaridan qo‘llanma va lug‘atlar yaratishda, filologik ixtisosliklarda leksikologiya bo‘yicha maxsus kurslar o‘tishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya, kirish, uch bob, yetti fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 92 sahifani tashkil etadi.

KO‘CHIM TURLARINING LINGVISTIK TADQIQI

1.1. Ko‘chim turlari – lingvistik tadqiqot obyekti sifatida

Badiiy matnda ko‘chimlarni turli ko‘rinishlarda uchratishimiz mumkin. Ularni ko‘pchilik adabiyotlarda “troplar” deb ataladi. Ko‘chimlar deyilganda badiiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirib olish yoki so‘zlarning

umuman, ko'chma ma'noda ishlatilishi¹ nazarda tutiladi. So'z ma'nosini ko'chirish jarayonlari turli ko'rinishlarda yuzaga keladi. Ushbu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Ko'chimlar deyarli ko'pgina adabiyotlarda troplar atamasi ostida o'rganilgan. Trop va figuralar nutqning badiiy obrazlilikini vujudga keltiruvchi vosita ekanligi juda qadim zamonlardan olimlar diqqatini jalb etib kelgan. Bu vositalarni tilning tasviriy vositalari sifatida o'rganilishi qadimgi grek, hind va qadimgi rim ritoriklarining faoliyatlari bilan bog'lanadi². Troplar antik davrdan beri nutqning bezagi deb qaralib ular alohida so'zlardan iborat bo'ladi deb tushunilgan. Aristotel "Ritorika" haqidagi ta'limotida so'zning metaforik ma'noda qo'llanilishi ko'rgazmaliligi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatgan³.

A.Potebnya so'zning ichki formasi ta'limoti asosida ham trop va figuralar yotadi. Bu ta'limotga ko'ra, trop ma'noni obrazli ifodalash vositasi, figuralar esa so'zning ichki formasining o'ziga xos holda barpo bo'lishidir⁴.

O.S.Axmanova tropni badiiy ifodalilikni oshirish maqsadida ko'chma ma'no orqali fikr ifodalash vositasi sifatida izohlab, unga metafora, metonimiya va sinekdoxa hodisalarini kiritadi⁵.

Jahon tilshunosligida troplar bilan birgalikda figuralar ham o'rganilgan.ustoz Bekpo'lat Umurqulov trop va figuralar haqida shunday deydi: Umuman, tilshunoslikda trop va figuralarga nutqning tasviriy vositalari, bezagi sifatida yondoshgan bo'lib, ularning birini ma'no ko'chishi orqali, ikkinchisining esa, nutq oboroti sifatida vujudga kelishi haqidagi fikrlarga asoslanib kelinmoqda. Trop va figuralar, avvalo, shu jihatdan farqlanganidek, badiiy asarda qo'llanilish masshtabi jihatidan ham ular farqlanadi. Chunonchi, ma'no ko'chishi orqali fikr ifodalash murakkab bo'lganligi uchun troplarga hamma vaqt ham murojaat qilinavermaydi,

Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: 1974, 236 бет.

² Античные теории языка и стиля. – М.: – Л., – 1936; — К.189

³ Античные теории языка и стиля. – М.: – Л., 1936. – С.178.

⁴ Потебна А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Наука, 1976. – Б. 341..

⁵ Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. – С. 481.

figuralar esa badiiy matnlarda ko‘p uchraydi⁶. Ustoz o‘xshatish va metaforalarning tilda faolligini aytib metaforalarga nisbatan o‘xshatishlar badiiy matnda faolroq deb ta’kidlaydi. Tilshunos olim M.N.Kojina metaforaning badiiy qimmatini e’tirof etarkan, ba’zan yuzlab betlarda, hatto butun asarda metafora bo‘lmasligi, biroq bu badiiy asarning badiiy obrazlilikini yo‘qolishiga olib kelmasligini uqtiradi⁷.

Trop va figuralarga badiiy obrazlilikni vujudga keltiruvchi uslubiy vositalar sifatida yondashish keyingi yillar tadqiqotlarida muhim o‘rin tutgan⁸.

Troplar – metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish, sifatlash hodisalarini o‘z ichiga oladi. Bu vositalar tilning tasviriy vositalari hisoblanib, nutqda xususan, badiiy nasrda, ularning har birining o‘ziga xos o‘rni bor. Biroq tasviriy vositalardan metafora, o‘xshatish, sifatlash badiiy nutq uchun muhim bo‘lgan, badiiy-obrazlilikni ta’minlashda ko‘lamdorligi bilan alohida ajralib turuvchi badiiy

v
o Biz badiiy matnlarda trop va uning turlarini tahlil qilganimizda aksariyat metaforalarga duch kelamiz. Shu o‘rinda ustoz Umurqulov Bekpo‘lat badiiy matnda metaforalar bilan ishlashda shunday deydi: Metafora tasviriy vositalarning juda qadimiy ko‘rinishlaridan biridir. Antik ritoriklardan boshlab nutqning bezagi sifatida keng o‘rganilib kelingan metaforaning nutq jarayonidagi, xususan, badiiy hutqdagi vazifasi, xilma-xil bo‘lib, bu metaforaga muhim tasviriy vosita sifatida yondashishga olib kelgan. Shu boisdan ham badiiy nasr tahlili haqida fikr yuritilganda metaforani uning nutqiy xususiyatlarini nazardan chetda qoldirish mumkin emas¹⁰.

i Metaforalarni badiiy nutqda obrazlilikni ifodalovchi vosita deb qaralishi tilshunoslikda keng tarqalgan. Ammo tilshunos M.N.Kojina aytganidek ba’zi badiiy matnlarda biz metaforalarni deyarli uchratmasligimiz mumkin.

Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. –Тошкент, 2020, 208-бет
⁷ Кожина М.Н. О специфике художественной и научной речи в аспекте функциональной стилистики. – М.: 1966. – С. 72.

⁸ Ефимов А.И. Стилистика русского языка. – С.102 – 125; Арнолд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л.: 1973. – С. 139-159; Долинин К.А. Стилистика французского языка. – Л.: 1978. – С. 133-159; Рубайло А.Т. Художественные средства языка. – М.: 1961. – С. 25-80.

⁹ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. –Тошкент, 2020, 209-бет

¹⁰ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. –Тошкент, 2020, 209-бет

B.Umurqulov bunday holatda ham badiiy matni badiiy- obrazlilik yo‘q deya olmaymiz - deydi. Ustoz bu jarayonni shunday izohlaydi: Zero, metafora birinchidan, obrazlilikka xizmat qiluvchi nutq hodisalaridan biri, xolos. Ikkinchidan, metafora faqat obrazlilikni vujudga keltiruvchi vosita emas, balki badiiy shaklni shakllantiruvchi vosita hamdir. Metaforaning nutq jarayonidagi vazifasi uning xarakteri bilan bog‘liq. Binobarin, ma’no ko‘chishi badiiy-obrazlilikni, ta’sirchanlikni vujudga keltirish uchun asos bo‘lsa ham, barcha ma’no ko‘chish vositasini qo‘llashda nutqiy ta’sirchanlikni ta’minlash ko‘zda tutilmaydi¹¹.

Umuman, har qaysi ma’no ko‘chishida ma’lum bir miqdorda jozibalilik bor. Ushbu fikrga ustoz B.Umurqulov shunday to‘xtaladi: metaforaning barcha shakllari ham tasviriy vosita emas, balki fikrni ifodalanmagan formada ifodalash yo‘li metaforaning esa haqiqiy badiiy qimmati, uning qaytarilmasligi, individualligi fikr va hissiyotni ifodalashdagi muallif dunyosi bilan belgilanadi¹².

Misol uchun: Odil Yoqubovning “Avlodlar dovoni” asarida shunday parcha keltiriladi: Sherxon shomiyona to‘ridagi baland shahnishinda chordona qurib sokin o‘ltiribdi. Kiyimlari bezaksiz odmi ipakdan, kichkina sallasiga ham gavhar yoki boshqa toshlar qadalmagan, ammo burgutnikiga o‘xshash ko‘z qarashlari va mag‘rur o‘ltirishi Bayramxonda hayiqishga o‘xshagan bir tuyg‘u uyg‘otdi. Bu gapda *bir tuyg‘u uyg‘otdi*. birikmasi metafora bo‘lib kelgan. Bu ko‘chma ma’noli so‘zlar kitobxonda kuchli his-hayajon uyg‘otadi.

Zero, badiiy nasrda uchraydigan metaforalarning ma’lum qismi umum nutqiyiligi, til tizimida mustahkam o‘rnashib qolganligi bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra badiiy matnlarda uchraydigan metaforalarni ikki turga bo‘lish mumkin:

- a) polisemantik xarakterdagi lingvistik metaforalar;
- b) badiiy metaforalar.

Metaforaning bu ikki turi hosil bo‘lishi jihatidan farqlanmaydi. Har ikkalasi ham ma’no ko‘chishi orqali hosil bo‘ladi. Predmet belgisiga ko‘ra xuddi shunday

¹¹ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. –Тошкент, 2020, 209-бет

¹² Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. –Тошкент, 2020, 2210-бет

belgi mavjud bo'lgan ikkinchi predmet nomini olishi polisemantik xarakterdagi lingvistik metafora hosil qiladi¹³. Bunday metaforalar umumxalq tilida doim qo'llanib kelinadigan ko'chma ma'noli so'zlardir. Ular o'zaro ikki predmet ochiq o'xshashlikka asoslanib ifodalanadi. Misol: *ko'z* (yog'ochning ko'zi, odamning ko'zi), *quloq* (qozonning qulog'i, odamning qulog'i), *burun* (dengiz burni, odam burni), *qosh* (maktabning qoshi, odamning qoshi) bu singari metaforalarni ko'rishimiz mumkin. Metaforada ikki predmet o'rtasida ma'lum bir o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi mavjud. Buni B.Umurqulov shunday tushuntiradi: Metaforaning nutqda qay darajada vazifa bajarishi shu ko'chim uchun asos bo'ladigan o'xshashlikni mohiyati bilan bog'liq. Metaforalar ochiq o'xshashlik asosida vujudga kelsa, u asosan nominativ vazifa bajaradi. Buning yorqin dalili lingvistik metaforalardir¹⁴.

Badiiy metafora shaxs ruhiyatini, obrazlilikni ochib beradi. Ushbu matnda ko'ramiz: Amir Temur siyrak qoshlarini chimirib, o'tkir ko'zlari bilan qadalib qaraganda, hech kim tob berolmas, hamma ko'zini olib qochar, u kelayotganda har kim turgan joyida qo'l qovushtirgancha qotib qolar edi. Metafora: *o'tkir ko'zlari bilan qadalib qaraganda, ko'zini olib qochar, qotib qolar edi*. ("Ulug'bek xazinasi" 90-91-bet). Badiiy matnda metaforalar muhim tasviriy vosita hisoblanadi.

Badiiy metaforalarga xoslik dastlab originallik va individuallik bilan belgilanadi, toki bu xususiyatlar badiiy metaforaning nutqiy vazifasini namoyon etuvchi jihatlardir. Badiiy metafora nutqda tayyor obrazli ifodasi bo'lmagan fikrni individual ifodalash vositasi ekanligi uchun ham kuchli uslubiy bo'yoqqa ega bo'lgan emotsional-ekspressiv vositalardan hisoblanadi. Badiiy metaforada ko'chma ma'no hosil qiladigan so'z shunchaki, predmetning nomini olib qolmaydi, balki, predmetning obrazli atamasi ham bo'ladi¹⁵.

Badiiy asarning jozibasi metaforalar orqali namoyon bo'lib, obrazlik, ifodalilik va ta'sirchanlikni namoyon qilib keladi. Odatiy tarzda metafora ikki

¹³ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. –Тошкент, 2020, 212-бет

¹⁴ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. –Тошкент, 2020, 213-бет

Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. -Тошкент, 2020. 213-бет.

predmet o'rtasidagi belgi asosida vujudga keladi. Badiiy metaforalarda esa shu belgining yashirin yoki ochiq tarzda kelishiga bog'liq bo'ladi. Oddiy metafora predmetlar o'rtasidagi belgining ochiqligiga asoslanadi.

Ustoz B.Umurqulov badiiy asarlarda metaforalarni ikkiga ajratadi: badiiy asarlarda uchraydigan metaforalarni qo'llanilishi jihatidan ikkiga bo'lish mumkin:

- a) an'anaviy metaforalar;
- b) individual metaforalar.

An'anaviy metaforalarning nasriy adabiyotda eng ko'p uchraydigan turi yomon kishilarga nisbatan bo'ri, quzg'un, yirtqich va boshqa so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash hisoblanadi. Individual metaforalar badiiy nasr uchun muhim, badiiy fikrni oldin ifodalanmagan shaklda ifodalash usuli bo'lib, fikrning badiiy-obrazlilikini kuchaytiruvchi samarali birliklar hisoblanadi¹⁶.

Yevropa tilshunoslari metaforik hodisani o'rganish mobaynida hosila ma'noning qanday yuzaga kelishini tasniflaydilar. G'arbiy Yevropa tilshunoslari hosila ma'noning paydo bo'lish hodisasini uch ko'rinishga ajratadilar. Fransuz tilshunosi J.Maruzoning lingvistik lug'atida ham nemis ensiklopedik lingvistik lug'atida ham u uchga: metafora, metonimiya, sinekdoxa bo'lgan¹⁷. Yana bir tilshunos olim S.Ulman ikkiga: metafora va metonimiyaga ajratib ko'rsatadi¹⁸.

Rus tilshunoslari ham Yevropa tilshunosligiga tayangan holda, hosila ma'no yuzaga kelishini tasnif qilishgan biroq, ko'rinishni belgilashda ba'zan bir ba'zan undan ortiq ko'rsatib berish bilan chegaralanadilar.

Rus tilshunosi L.A.Buxolovskiy hosila ma'no yuzaga kelishini olti ko'rinishda qayd etadi¹⁹.

Ba'zi nemis, fransuz, ingliz yoki arab leksikologiyasi bilan shug'ullangan rus tilshunoslari faqat metafora va metonimiyani ko'rsatish bilan chegaralanganlar²⁰. Rus Oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallab chiqarilgan

¹⁶ Умурқулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. -Тошкент, 2020. 213-бет.

¹⁷ Марузо Ж. Словар лингвистических терминов. — М., 1960;

¹⁸ Улман Ст. Семантические универсалии // Новое в лингвистике. -М.: Радуга.1970. С. 276.

¹⁹ Булаховский Л.А. Введение в языкознание. - С. 57-63.

²⁰ Левковская.К.А. Лекцикология неметского языка. - С. 45-47;

darsliklarda ham har xil ko‘rinishlarga bo‘lib yuborilgan. Kollektiv tomonidan chiqarilgan bir darslikda metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik deb to‘rt ko‘rinishga bo‘lingan²¹.

N.M.Shanskiy uni uchga: o‘xshashlik, ya’ni metafora; yondoshlik – metonimiya, vazifadoshlikka ajratib ko‘rsatadi. D.N.Shmelev ham N.M.Shanskiyga o‘xshab uni uch ko‘rinishga bo‘ladi²². Ammo, u sinekdoxa hodisasini ham qayd etgan holda, metonimiyaning bir ko‘rinishi deb ko‘rsatadi.²³ L.L.Reformatskiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘rt ko‘rinishda deb bergani holda, u D.P.Shmelevdan farqli sinekdoxani alohida hodisa sifatida talqin qiladi²⁴.

Arman tilshunosi E.B.Agayan D.N.Shmelevdan ancha ilgari hosila ma’no yuzaga kelishini xuddi unga o‘xshash holda sinekdoxani metonimiya tarkibida sanab, uch ko‘rinishdan iborat deb bilgan²⁵.

Turkiy xalqlar tilshunosligida ham bu hodisa shu tasniflar doirasida ko‘rinishlarga ajratilgan. Qozoq tilshunosi G.G.Musaboev, shuningdek ozarbayjon tilshunosi S. Jafarov, rus tilshunosi A.A.Reformatskiy tasnifiga qo‘shilgan²⁶.

Qoraqalpoq tilshunosi YE.Berdimuratov faqat metafora va metonimiyani tan oladi. Bashqirt tilshunosligida xuddi shu yo‘l tutilgani holda, metonimiya tarkibida sinekdoxa ham keltiriladi.

Tatar tilshunosi K.S.Sabirov hosila ma’no yuzaga kelishini besh ko‘rinishda deb biladi: o‘xshashlik (metafora), aloqadorlik (metonimiya), vazifadoshlik, qamrash doirasiga ko‘ra, xususiyat yakdilligiga ko‘ra²⁷.

O‘zbek tilshunoslari hosila ma’no yuzaga kelishini tasnif etishda asosan A.A.Reformatskiy bilan hamfikrlik qilganlar²⁸.

²¹ Галкина-Федорук Е.М., Горшкова К.В., Шанский Н.М. Современный русский язык. -М. Изд.МУ. 1957. - С.183.

²² Шмелев Д.Н. Очерки по семасиологии русского языка. -С. 57.

²³ Шмелев Д.Н. ўша асар. С. 64.

²⁴ Реформатский А.А. ўша асар. - С. 59.

²⁵ Агаян Э.Б. Введение в языкознание. -Ереван. 1959. С. 220,221.

²⁶ Мусабаев Г.Г. Современный казахский язык. — Алма-Ата: Мектеп, 1959;.

²⁷ Современный татарский литературный язык. Лекцикология. Фонетика. Морфология. - М.: Наука. 1069. С.53.

²⁸ Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент, “Ўқитувчи”, 1978. – Б. 21..

Faqat uch darslik mualliflari farqli qarash bilan chiqishgan. R.A.Bigayev va P.A.Danilovlar o‘zlarining hamkorlikdagi darsliklarida hosila ma’no yuzaga keltiruvchi hodisalarning hammasini metafora deb ko‘rsatishgan²⁹.

O.Azizov sinekdoxani metonimiya tarkibiga kiritishi bilan yuqoridagilardan farqlanadi³⁰. YA.Pinxasov o‘z darsligida vazifadoshlikni tilga olmaydi³¹. So‘z hosila ma’nosining yuzaga kelishi hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari munosabatiga asoslangan ekan, uning tasnifida ham shu munosabatga asoslanish to‘la obyektiv bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraladigan bo‘lsa, A.A.Reformatskiy tasnifida ancha aniqlik bor. O‘zbek tilshunoslarining u bilan hamfikir bo‘lishlarida ham jon bor. A.A.Reformatskiy so‘z hosila ma’nosi yuzaga kelishini tasnif qilar ekan, hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari munosabatini aniq chegaralab ola bilgan. So‘z hosila ma’nosining yuzaga kelishi hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslansa metafora, aloqadorlikka asoslansa metonimiya, butun va bo‘lak munosabatiga asoslansa sinekdoxa, birini ikkinchisi ijtimoiy hayotdan surib chiqarishiga asoslansa vazifadoshlik deb qaraladi. Bu ko‘rinishlarning har biri hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlarga ko‘ra bir-biridan farq qiladi, o‘zaro chegaralanadi³².

Tilshunos M.Mirtojiev rus manbalarida hosila ma’no yuzaga kelishining yana bir ko‘rinishi sifatida ishlab chiqaruvchi yoki kashfiyotchi nomi bilan atalish ko‘rsatgan edi deydi. Lekin bunda yaratuvchi bilan yaralgan narsa o‘rtasidagi, ya’ni referentlar o‘rtasidagi aloqagina mavjud. Ya’ni u metonimiyaning bir ko‘rinishi deb hisoblanishi kerak³³. Hosila ma’no yuzaga kelishi qonuniyatiga ko‘ra hosila ma’no hamma vaqt hosil qiluvchi ma’noga semantik bog‘li bo‘ladi³⁴.

²⁹ Данилов П.А., Бигаев Р.И. Введение в языкознание. -Ташкент, “Ўқитувчи” нашр 1954.

³⁰ Азизов О. Тилшуносликка кириш. — Тошкент: ўқитувчи. 1963. 63-6.

³¹ Пинхасов Я. Ҳозирги замон узбек тили лексикаси. -Тошкент, “Ўқитувчи”. 1960.40-6.

³² Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 96.

³³ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 96.

³⁴ Арнолд И.В. Лексикология современного английского языка. — С. 2XX; Реформатский А.А. Введение в языковедение. — С. 76; Мирзаев М., Усмонов С., Расулон И. Узбек тили. — 22-6.

Tatar tilshunosi K.S.Sobirov qamrash doirasiga ko‘ra hosila ma’no yuzaga kelishini aytib, tiren choqir va tiren fikr birikmalaridagi tiren so‘zining ma’nolarini misol qilgan³⁵. Bundan ko‘rinadiki, ikki xil belgi o‘zaro qiyoslangan o‘xshatilgan va uni metafora desak bo‘ladi.

Hosila ma’no yuzaga kelishi to‘rt ko‘rinishda bo‘lib, ular metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlikdan iborat. Hosila ma’no yuzaga kelishining yana bir ko‘rinishi borki, uni ayrim tilshunoslar metonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida talqin qiladilar³⁶. O‘zbek tilida oy so‘zi yerning tabiiy yo‘ldoshini bildiruvchi leksik ma’noga ega.

Shu yo‘ldoshning yerni bir aylanib chiqish muddati bir vaqt o‘lchov birligini bildirib, u oy so‘zining hosila ma’nosini bildiradi. Uni SH.Rahmatullayev metonimiya deb ko‘rsatadi³⁷.

Tilshunos M.Mirtojiyev hosila ma’noga shunday xulosaviy fikr beradi: Yana ham aniqroq qilib aytiladigan bo‘lsa, hosila ma’no referenti o‘zicha obyektiv borliqda mavjud emas, u faqat hosil qiluvchi ma’no referentining faoliyat davri, harakat, o‘lchami, belgisi kabilardan iborat. Hosila ma’noning yuzaga kelishi besh ko‘rinishda: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, tobelilik deb belgilandi³⁸.

“Badiiy tekstning lingvistik tahlili” qo‘llanmasida ko‘chimlar quyidagicha tasnif qilingan:

1. So‘z ma’nosining miqdoriy ko‘chishiga asoslangan troplar:

a) giperbola;

b) meyozis,

2. So‘z ma’nosining sifatiy ko‘chishiga asoslangan troplar:

a) metafora;

b) metonimiya;

³⁵ Современный татарский литературный язык. — С. 53.

³⁶ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 93.

Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I нишрн — Тошкент.: Укитувчи. 1975. 10 б; Дожиев А. Семасиология... — 199-б.

³⁸ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2010. – Б. 93.

d) ironiya.» qolgan tasviriy vositalar mazkur ko‘chimlarning ko‘rinishi sifatida beriladi: “simvol, jonlantirish, epitet – apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota meyozisning ko‘rinishlaridir” Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga tortganda ko‘chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o‘xshatish, chog‘ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmazlik kerak³⁹.

Metafora orqali ma’no ko‘chishida konnatativ ma’no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘lbars, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo‘lgan leksemalar mavjudki, bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noda juda keng qo‘llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo‘yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epcilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko‘zi o‘tkirligi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chiriladi, natijada konnatativ ma’no yuzaga keladi hamda matnning ta’sirchanligi oshadi⁴⁰.

Tilshunos Ma’rufjon Yo‘ldoshev metafora va o‘xshatish o‘rtasidagi ma’lum bir farqliliklarni misollar bilan keltirib o‘tadi. Quyida misollarni ko‘rib o‘tamiz: Metafora bilan o‘xshatish konstruksiyaning o‘zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o‘zlarining fikrlarini aytib o‘tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o‘tiladi:

1. O‘xshatishda so‘zlar o‘z ma’nosi bilan ishtirok etadi.
2. O‘xshatishda ikki komponent – o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo‘ladi.
3. O‘xshatishlarda kengayish imkoniyati ko‘p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘ladi.
4. O‘xshatishda maxsus ko‘rsatkichlar bo‘ladi: -dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, ko‘rsatkichlar bo‘lmaydi.

Бадий матннинг лингвистик таҳлили. қўлланма, Нукус: 2012.

Йўлдошев М., Исоқов З., Ҳайдаров Ш. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan misollarga metaforaning odatiy turi misol bo‘la oladi.

Xususan, metaforaning o‘rganilishi qadimgi antik davrdan boshlangan bo‘lib, ushbu davr tilshunosligida metaforaning ritorika san‘ati orqali kirib kelganligini olimlar e‘tirof etishadi. “Metafora” atamasi ilk bor miloddan avvalgi IV asrda yashab o‘tgan faylasuf Suqrot tomonidan qo‘llanilgan. Fanda metaforani nazariy jihatdan o‘rgangan birinchi antik davr olimi Aristotel hisoblanadi. Aristotel o‘z asarlarida metafora atamasini qo‘llay turib uni lisoniy hodisa deb e‘tirof etmaydi, shunga qaramay, uning mulohazali qarashlari tufayli metafora ilmiy iste‘molga kirgan. Metaforalarni jiddiy o‘rganish XX asrdagina ko‘hna hind, Xitoy faylasuflarining va tilshunoslarining asarlarini o‘rganish evaziga amalga oshiriladi. XX asrda metafora tilning kommunikativ, nominativ, bilish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida talqin qilindi⁴¹.

O‘zbek tilshunosligida ham metafora va uning xususiyatlari mavzusida bir qator ishlar olib borilgan. Xususan metaforani maxsus o‘rgangan G.Qobiljonova uning mohiyati haqida mavjud bo‘lgan nom so‘zlovchi nuqtayi nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta‘minlay olmay qolganda yuzaga chiqishini ta‘kidlar ekan, metaforaning vazifasi nutqni qisqa, ta‘sirchan, lo‘nda qilish, nutqni aniqlashtirish ekanligini ko‘rsatadi⁴². Metafora bilan o‘xshatishning o‘zaro farqlari haqida tilshunoslar o‘z fikrlarini aytib o‘tishgan. Xususan Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o‘tiladi. Ustoz B.Umurqulov o‘xshatish bilan metaforani bir-biriga qiyosan asoslashga harakat qiladi.

Obrazli o‘xshashlikka asoslanilgan metaforalarda o‘xshashlik predmetlar uchun umumiy va konkret belgiga asoslanmaydi. Shu boisdan ham bunday metaforalar ko‘pincha yashirin o‘xshashlik asosida vujudga keladi va obrazlilikni kuchaytirish vositasiga aylanadi. Obrazli o‘xshashlikka asoslanilgan metaforalarda o‘xshashlik predmetlar uchun umumiy va konkret belgiga asoslanmaydi.

⁴¹ Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти - Қарши, 2018, 15-бет.

⁴² Қобулжоновна Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз... дисс. автореферат. – Тошкент, 2000. – Б. 10.

Shu boisdan ham bunday metaforalar ko‘pincha yashirin o‘xshashlik asosida keladi va obrazlilikni kuchaytirish vositasiga aylanadi⁴³.

Badiiy nasrning tasviriy vositalaridan biri hisoblangan o‘xshatish fikrning obrazliliigi, tasviriyiligini kuchaytiruvchi, favqulodda poetik ifodalik ko‘lamining kuchliliigi bilan ajralib turuvchi ifoda usullaridan biridir. O‘xshatish ham xuddi metafora singari nutqiy hodisa, ammo o‘xshatish hosil qiluvchi vositalardagi obrazlilik ko‘lami badiiy o‘xshatishlarda kuchli⁴⁴. Tasviriy vositaning bu turi doim metafora bilan yonma yon tahlilda bo‘lib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘xshatish narsa yoki predmet o‘rtasidagi belgini ikkinchi bir narsa yoki predmet ana shu belgiga qiyoslanish jarayonida paydo bo‘ladi. Ana shu holatga ko‘ra o‘xshatishlar metaforadan farqlanadi va to‘rt asosga tayanadi. Biroq, o‘xshatishning vujudga kelish jarayonida o‘xshatishni hosil qiluvchi vositalar ham muhim hisoblanadi.

Quyida B.Umurqulov o‘xshatishni hosil qiluvchi vositalarni shunday keltiradi:-day qo‘shimchasi o‘zbek tilida va badiiy nutqda o‘xshatish hosil qiluvchi eng sermahsul qo‘shimchadir. -day qo‘shimchasi o‘xshatish hosil qiluvchi nutqiy hodisa bo‘lganligi uchun bu vosita orqali hosil bo‘ladigan o‘xshatishlarning bir qismi ancha oddiydir. Odatda, ko‘pgina hollarda va ba‘zan badiiy nutqda ham -day (dek) affiksi bilan hosil bo‘lgan o‘xshatishlarda belgi ko‘pincha oldindan ma‘lum bo‘ladi.

Masalan, popukday qiz, marmarday silliq bo‘yin, qo‘rg‘oshindek qop-qora bulut, marmarday oppoq bilak, sholg‘omday qizil bosh va boshqa shu kabi o‘xshatishlardagi belgi hammaga ma‘lum belgidir. Shuningdek, ko‘pincha o‘xshatishlarda, jumladan, -day (dek) qo‘shimchalari yordamida hosil bo‘ladigan bir qator o‘xshatishlarda favqulodda qiyoslanish natijasida vujudga kelgan obrazli ifodalarni ko‘rish mumkin. Bunday o‘xshatishlar individualligi bilan xarakterlanib, ulardagi o‘xshovchi belgi avvaldan ma‘lum bo‘lishi va ma‘lum bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, Samo artilgan chinniday tiniq, yulduzlar charaqlab turar edi.

⁴³ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. Тошкент- 2020. 221-бет.

⁴⁴ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. Тошкент- 2020. 222-бет.

(O.Yoqubov.“Ulug‘bek xazinasi”) gapida tiniq osmon artilgan chinniga qiyoslangan. Tiniq osmon bilan artilgan chinni orasidagi bir-biriga qiyoslanish uchun asos bo‘ladigan belgi (tiniq) avvaldan ma’lum. Lekin shu belgiga ko‘ra ushbu predmetlarning bir-biriga qiyoslanishi favqulodda holatdir⁴⁵.

Ushbu misol va tahlillardan shuni bilishimiz mumkinki, o‘xshatishdagi o‘xshash belgi ancha sodda, badiiy o‘xshatishlarning aksariyatida biroz murakkab holatda paydo bo‘lgan o‘xshatishlarning o‘rni ancha salmoqlidir. Matnda badiiy obrazlilikni kuchaytirishda o‘xshatishning bu turi juda ahamiyatlidir. O‘xshatishning bu turiga B.Umurqulov shunday misollar keltiradi:

Masalan, Shu cho‘l havosidek beg‘ubor hislar uni allalardi. Qalbi bahorgi musichadek kukulab, muhabbat chaqirardi. (S.Ahmad. “Ufq”). Bu gapda ikkita o‘xshatish mavjud. Birinchidan, inson his-tuyg‘usi cho‘l havosiga qiyoslangan, inson qalbi musichaga o‘xshatilgan. Har ikkala o‘xshatish uchun asos bo‘layotgan belgilar o‘ta murakkabligi bilan xarakterlanadi. Chunki har ikkala o‘xshatishning vujudga kelishida predmetlar orasidagi his etish mumkin bo‘lgan belgi mavjud emas, ya’ni bu o‘xshatishlarni hosil bo‘lishi uchun asos bo‘lgan qiyosiy belgi predmetlar uchun xos belgi emas⁴⁶.

Badiiy ifodaning an’anaviy vositalaridan biri bo‘lgan o‘xshatishlar nutq jarayonidagi vazifasini turli shaklda ko‘rishimiz mumkin. Uning nutqiy vazifasi shundan iboratki o‘xshatish xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Bu qarashga B.Umurqulov shunday yondashadi: oddiy va badiiy o‘xshatishlarning ta’sirchanlik kuchi bir xil emas. Masalan, bo‘zchining mokisiday o‘xshatishi nutqimizda faol uchraydi. Bu o‘xshatish yozma va og‘zaki nutqda ham, oddiy o‘xshatish bo‘lishiga qaramasdan nutqning ifodaliligini oshira oladi. Undagi ifodalilikni kuchaytirishda shu o‘xshatish negizidagi mubolag‘a, kinoya ma’nolarini mavjudligining ta’siri kuchli. Bu hol shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina o‘xshatishlarda nafaqat o‘xshovchi belgi mavjud, balki qo‘shimcha ma’no bo‘yoq ham mavjud bo‘lib, qo‘shimcha ma’no bo‘yoqdorlikning mavjudligi oddiy o‘xshatishlarni badiiy o‘xshatishlarga

⁴⁵ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услугий шаклланиши асослари. -Тошкент, 2020. 222-бет.

⁴⁶ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услугий шаклланиши асослари. -Тошкент, 2020. 223-бет.

yaqinlashtiradi. Jumladan, tulkiday ayyor o‘xshatishida nafrat ma’nosining kuchliligi, mushday bola o‘xshatishida esa ma’noning oksyumoron (so‘z ma’nosiga qarama-qarshi birikma) holatida ifodalanishi obrazli ta’sirchanlikni ta’minlash vositasi vazifasini bajargan⁴⁷.

O‘xshatish tasviriy ifodaning eng qadimiy shakllaridan bo‘lib, Aristotel poeziyani o‘xshatish san’ati deb ataydi⁴⁸.

Uning fikricha inson boshqa mavjudotlardan o‘xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ham farqlanadi, hatto dastlabki, bilimlarni u o‘xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag‘ishlaydi⁴⁹.

O‘xshatishlar haqida maxsus tadqiqot olib borgan D.Xudoyberganova o‘xshatishlar to‘rt komponentdan iborat ekanligini, ayrim o‘xshatish konstruksiyalarida bu komponentlarning biri uslub talabi bilan ifodalanmay qolishini ko‘rsatadi⁵⁰.

Olima o‘xshatish asoslarining bu xilda birining ifodalanmasligini uning ma’nosini boshqa qismlar orqali anglanishi bilan izohlaydi⁵¹.

S.L.Neveleva Paninidan boshlab qadimgi hind poetik traktlarida o‘xshatish tarkibini to‘rt asosdan iborat ekanligini ko‘rsatadi: subyekt (nima o‘xshatilayapti), obyekt (nima bilan o‘xshatilayapti), o‘xshash belgi va o‘xshatish shakli (vositasi)⁵².

“Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari” kitobida o‘xshatishning to‘rt asosdan: o‘xshatilgan narsa, o‘xshatiladigan narsa, o‘xshatish asosi, o‘xshatish vositasidan iboratligi ko‘rsatilgan⁵³.

Tilshunos N.Mahmudov o‘zbek tilida o‘xshatishlarning to‘rt unsuridan tashkil topishini, ular o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi ekanligini ta’kidlaydi⁵⁴.

⁴⁷ Умуркулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. -Тошкент, 2020. 223-бет..

⁴⁸ Арасту. Ахлоқи кабир. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энтсиклопедияси, 2018. – Б. 21.

⁴⁹ Арасту. Шу асар. – Б. 25.

⁵⁰ Худойберганова Д. Семантические и стилистические особенности конструксий уподобления в узбекском языке. Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – С.30.

⁵¹ Худойберганова Д. Кўрсатилган диссертация. – Б. 41.

⁵² Невелева С.Л. Вопросы поэтики древнеиндийского эпоса. – М.: Наука, 1979. – С. 38.

⁵³ Қўнғуров Р. ва б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 99.

⁵⁴ Маҳмудов.Н., Худойберганова Д.Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. –Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 13

Ustoz B.Umurqulov keltirilgan fikrlar va manbalardan olingan misollar o‘xshatishning to‘rt asosdan iboratligini tasdiqlab shunday misollar keltiradi: o‘xshatish hosil bo‘lishiga ko‘ra to‘rt asosga – o‘xshatiluvchi predmet (o‘xshatish obyekti), o‘xshovchi predmet (o‘xshatish etaloni), o‘xshatma belgi (o‘xshatish asosi) va o‘xshatish vositasi (o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi) asosida shakllanadigan tasviriy ifodadir. Masalan, Qisqagina bahor kuni go‘yo shirin tushday bir lahzada o‘tdi-ketdi. (O.Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi”). Ushbu gapdagi o‘xshovchi predmet shirin tush, o‘xshatilayotgan predmet – bahor kuni, o‘xshash belgi – tez o‘tganlik, go‘yo, -dek o‘xshatish vositalari. Bu o‘xshatishni jadvalda quyidagicha ko‘rsatish mumkin⁵⁵.

Tilshunoslikda mazmuniy jihatdan metaforalarning uch turi ya’ni odatiy metaforalar, jonlantirish va uslubiy metaforalar farqlanadi.

Jonlantirish – badiiy nutqda obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. Jonlantirish odamlarga xos bo‘lgan xislatlarini jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko‘chirish orqali paydo bo‘ladigan tasvir usulidir.

Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demakdir. Insonlarga xos ba’zi qusurlar, kamchilliklar, narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko‘rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida allegoriya deb atalgan bu ko‘chim ham “gapirtirish” usuliga asoslanadi. Intoq jonlantirishda, narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi.

Uslubiy metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa tushunchaga o‘xshatiladi. Masalan: *shirin tabassum*, *shirin gap*, *yengil tabassum*, *yengil nigoh*⁵⁶.

“Metonimiya – boshqacha bir nom berish degan ma’noni bildiradi. Bir narsaning, belgining, harakatning nomi boshqasiga bog‘liqlik asosida ko‘chirilsa,

⁵⁵ Умурқулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. Тошкент- 2020. 224 бет.

⁵⁶ Йўлдошев М., Исоқов З., Ҳайдаров Ш. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010

metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi. Bu narsa, belgi, harakat tasavvurimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni ifodalashi bilan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Tasavvurimizda muallif bilan uning asari, mashhur kashfiyotchi bilan uning kashfiyoti, idish-tovoq bilan uning ichidagi ovqat, jovon bilan uning ichidagilar va shunga o‘xshash tushunchalar bir-biri bilan bog‘liq holda shakllanadi. Inson doim so‘zlarni tejab ishlatishga intiladi⁵⁷ “.

Metonimiya hosila ma’no yuzaga kelishi hodisalarining o‘zbek tilida metafora darajasidagi faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma’no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘zaro aloqador bo‘lishiga asoslangan ko‘rinishidir. Bu izoh deyarli tilshunoslar tomonidan tan olingan⁵⁸ .

Ushbu fikrga M.Mirtojiyev shunday munosabat beradi: Buni diferentsial-se‘mantik metod bo‘yicha tahlil etib ko‘rilsa ham, yaqqol tasavvur etish mumkin. Masalan, etak so‘zi “kiyim” “beldan past” “kiyim” leksik ma’nosi -sememasiga ega. U yana “beldan past” “tutiladigan” “buyum” hosila ma’no – sememani orttirgan. Ular bildirgan narsa o‘zaro aloqador. Ya’ni hosila ma’no yuzaga kelishi metonimiya hisoblanadi. Undagi hosil qiluvchi sememaning ham, hosila sememaning ham uchtdan semasi bor. hosil qiluvchi va hosila sememalardagi *beldan past* semalari bir xil, ya’ni umumiy. Hosil qiluvchi sememaning 1- va 3-semasi hosila sememaning 2- va 3-semasi bilan mos emas. Hosil qiluvchi va hosila semema uchun bu semalar o‘ziga xos bo‘lib, sememalarning mustaqilligini ko‘rsatadi. Ular uchun umumiy bo‘lgan “beldan past” semasi referentlarining o‘zaro aloqador ekanligini ko‘rsatuvchi semadir. Sememalardagi o‘zaro mos bo‘lmagan semalar ularning daxlsizligini belgilaydi⁵⁹.

M.Mirtojiyev ammo nutq hodisasi bo‘lgan metonimiya nazariy tilshunoslik uchun tekshirish obyekti bo‘lmaydi, shuning metonimiyalarni o‘rganish va tasnif etish bilan ko‘rinishlarining aniq miqdorini belgilab bo‘lmaydi. Shu nuqtayi

⁵⁷ Халилова М. Ўзбек тили ситилистикаси асослари. “Фарғона” нашириёти. 2009 йил
Сувонова Р.А. Ўзбек тилида метонимия. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. - Самарқанд, 2001. 6 б.

⁵⁹ Миртожиев М. Ўзбек тилида семасиологияси. -Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 100.

nazardan uni uchdan boshlab o‘n ikkigacha ko‘rinishga ajratadilar. Metonimiyani tasnif etish uchun hosil qiluvchi ma’no xususiyatiga asoslanish yaxshi natija beradi. Shunga ko‘ra u ikki ko‘rinishga bo‘linadi:

- umumlashgan leksik ma’noga asoslangan metonimiya,
- xususiy leksik ma’noga asoslangan metonimiya⁶⁰ deb o‘z ilmiy fikrlarini keltiradi.

Umumlashgan leksik ma’noga asoslangan metonimiya lug‘aviy birlik sifatida so‘z tarkibida aks etuvchi leksik ma’noga asoslanib sodir bo‘luvchi metonimiyadir. Ularda hosil qiluvchi va hosila ma’nolar bir-biridan farqda sema bilan ajralib, umumiy sema bilan o‘zaro tutashib turadi. Masalan, bosh so‘zi tananing yuqori qismi semalariga ega, umumlashgan xarakterda⁶¹.

Metonimiya ham so‘zlarning ko‘chma ma’nosiga asoslanadi.

Masalan:

*Fuzuliy*ni oldim qo‘limga, Majnun bo‘lib yig‘lab qichqirdi,

Va Navoiy tushib yo‘limga, faryod bilan o‘rnidan turdi.

*Lermantov*ni tashlamadim hech, axir qo‘yib oldim Xofizni,

Pushkin menga ko‘rsatar har kech, yig‘lab turgan cherkaz qizini. (Hamid Olimjon)

Sinekdoxa – butun bo‘lak munosabatiga asoslanuvchi ma’no ko‘chishiga aytiladi. Adabiyotlarda “ko‘plik o‘rnida birlik yoxud birlik o‘rnida ko‘plik shakllarini qo‘llash yo‘li bilan ham sinekdoxalar yaratilishi mumkin. Masalan:

–*qo‘limni kesib oldim,*

– *daraxtlar sarg‘aydi* birikmalarida butunning nomi bilan bo‘lak;

– *tirnoqqa zor,*

– *jamoaning qo‘li baland keldi.*

Ushbu birikmalarda qismning nomi butun bilan ifodalanyapti.

–*Bir juft qaro ko‘z dardida Mashrab Devona bo‘ldi,*

–*Shu jodu deb o‘z yurtidan Farhod begona bo‘ldi.* (Tursunoy Sodiqova)

⁶⁰ Миртожиев М. Ўзбек тилида семасиологияси. -Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 100.

⁶¹ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. -Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 101.

- *Talabaning vazifasi ustozning so‘zini yerda qoldirmaslik.*
- *Besh qo‘lingni og‘zingga tiqma. (maqol)*
- *Bu yil Respublikamizda g‘alladan mo‘l hosil yetishtirildi*⁶².

Xususiyl leksik ma’noga asoslangan metonimiya atoqli otlarning turdosh otlarga o‘tishi natijasi bo‘ladi. Metonimiyaning bu ko‘rinishini ko‘pgina tilshunoslar hosila ma’no yuzaga kelishining metafora, metonimiya, sinekdoxalar qatoridagi ko‘rinishlardan biri deb qayd etadilar.

Birinchi misolda qismning nomi butun o‘rnida, ikkinchi misolda butunning nomi qism o‘rnida ishlatilgan⁶³.

Yana boshqa bir tilshunoslar metonimiyani sodir etuvchi referentlar aloqadorligining bir ko‘rinishi sifatida ko‘rsatadilar⁶⁴.

Ingliz tili mutaxassisi N.Rayevska metonimiyani sodir etuvchi hodisalardan biri ma’noning abstraksiyalanish deb talqin etadi⁶⁵.

Metaforaga yondosh hodisalardan bo‘lmish metonimiya ham badiiy asarlar- da va she’riyatda ko‘p qo‘llaniladigan badiiy tasviriy vositadir. “Metonimiya – ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan ko‘chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqea- hodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka emas, balki ular o‘rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi⁶⁶.

Metonimik ma’nolarning ko‘rinishlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa narsa nomiga o‘tkaziladi.
2. Materialning nomi shu materialdan yasalgan narsa nomiga ko‘chadi.
3. Joy nomi bilan shu joyda yashovchi kishilar ataladi.

⁶² Йўлдошев М., Исоқов З., Ҳайдаров Ш. Бадий матнинг лисоний таҳлили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010

⁶³ Галкина-Федорук Е.М., Горшкова К.В., Шанский Н.М. Современный русский язык. - С. 18; Ҳозирги замон ўзбек тили / Ф. Камол тахр. ост. - Тошкент: Фан. 1957. 68-б

⁶⁴ Шор О.Р., Чемоданов Н.С. Введение в языковедение. - С.77; Реформатский А.А.Введение в языковедение. - С. 59; Агоян Э.Б. Введение в языковедение. - С 220; АликуловТ. Метонимия ва полисемия... - 31-б.

⁶⁵ Раевска Н. Энглиз лекцикологий. — П. 116.

⁶⁶ Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. -Тошкент, 2020-Б.158-159

4. Harakat ifodalovchisi bilan uning natijasi yoki unga aloqador bo'lgan jarayon bilan ataladi.

5. Predmet nomi bilan xuddi shu predmet hosilasi nomlanadi.

Metonimiya so'z ma'nosi taraqqiyotining ko'rinishlaridan biri bo'lib, badiiy adabiyotda ko'p qayd etilgan badiiy tasvir vositalardan biridir. L.Boboxonova o'zining "Ingliz tili stilistikasi" kitobida shunday tarif beradi:

"Metonimiya – leksik ma'nolarning ikki turi asosiy – mantiqiy va matniy ma'nolar orasidagi munosabatlar bo'lib, bu munosabat narsalar o'rtasidagi aniq aloqalarning paydo bo'lishiga asoslangandir. Ya'ni, narsa va hodisalar bir-biriga yaqinligi tufayli birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi⁶⁷.

P.Koch metonimiyaning semantik asosini o'rganish uchun izlanishlar olib bordi va uning ilk ta'rifi obrazli ifoda ekanligini ta'kidlab: "metonimiya bu biror predmet yoki hodisa nomini shu predmet bilan bir o'rin olgan boshqa predmet nomi bilan almashtirish hodisasidir"⁶⁸.

Odatda metonimiya amaliy hodisa deb tushunilgan va insonlarning atrof va borliqni anglash va o'z tilini boyitish vositasi sifatida kundalik hayotimizda muhim bir vosita bo'lib xizmat qilganini ko'ramiz. Metonimiya bu metaforachalik qiziq bo'lmasa da u so'zlar o'rtasida mavjud bog'liqlik asosida paydo bo'ladi.

Metonimiya bu zamon va makon bilan bog'liqliklar asosida turli ko'rinishda paydo bo'ladi. Zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalish sifatida paydo bo'lgan kognitiv tilshunoslikda metonimiya faqat so'zlar o'rtasidagi munosabatda emas, lingvistik ma'nolarni ham beradi.

Kognitiv lingvistikaning ilk namoyondalari bo'lgan J.Lakoff hamda M.Jonsonlar metonimiyaga bir mohiyat yaqin turgan boshqa bir mohiyatning qo'llanilishi deb ta'rif beradilar, ularning fikricha "metonimiyaning asosiy funksiyasi ma'lumot berishdir, shu bilan birga u tushunishga yordam beradi".

⁶⁷ Бобохонова Л.Т. "Инглиз тили стилистикаси. -Тошкент," Ўқитувчи", 1995. -46-б.

⁶⁸Базаров.З.М. Бадий таржимада лектик-стилистик бўёқдорликни сақлаш муаммолари. Филол. фан. ном. дисс.. -Самарқанд, 2020. 61-63-б

Sinekdoxa hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining o'zbek tilida ancha keng tarqalmagan ko'rinishlaridan biridir. Tilshunoslikda qayd etilishicha, so'zning hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlaridan biri butunni, ikkinchisi uning bo'lagini bildirishiga ko'ra hosila ma'no yuzaga keltirishidir. Ma'lumki, uni ayrim adabiyotlarda metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida qayd etadilar⁶⁹.

Sinekdoxada so'zning hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlaridan biri butun, ikkinchisi uning bo'lagi bo'lishdek munosabat bor. Ularning hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'rtasidagi munosabat tamoman boshqacha. Buni differensial-semantik metod asosida qilingan tahlil ham yaqqol ko'rsatadi. Masalan, qarmoq so'zidagi semantik taraqqiyotga e'tibor berish mumkin. Uning hosil qiluvchi sememasi uchi ilgakli metall semalaridan tarkib topgan. Hosila semema hosil qiluvchi semema semalarini o'zida to'la saqlagan holda, qo'shimcha "ov quroli" semasiga ham ega. Mana shu qo'shimcha sema bo'lakni o'z ichiga olgan butunni ko'rsatadi. Yana bir boshqa misolga ham diqqatni qarataylik. Masalan, vatan so'zining semantik tarkibiga karash mumkin. Uning hosil qiluvchi ma'no (semema)si ma'lum shaxs daxlsiz hudud semalaridan iborat. Shu so'zning hosila ma'nosi esa ma'lum xalq daxlsiz hudud semalaridan tarkib topgan. Har ikki sememadagi birinchi semalar farqli sema, 2- va 3-semalar umumiy semalardir. Ular referentlarining biri ikkinchisiga bo'lak bo'lishini farqli semalar aks ettirgan. Ikkinchi hosila sememadagi ma'lum xalq farqli semasi hosil qiluvchi sememadagi ma'lum shaxs farqli semasini uz qamroviga oladigan darajada keng ifodaga ega. Bular sinekdoxaning hech qanaqasiga metonimiya tarkibida tadqiq etilishiga imkon bermaydi⁷⁰.

Kinoya – "ko'chimning bu turida muallif voqeani bamaylixotir, jiddiy holda hikoya qiladi, ammo, so'zlarni o'z ma'nosiga nisbatan qarama-qarshi ma'noda ishlatadi. Bu bilan o'zining biror kishi yoki hodisa ustidan ustunligini ko'rsatadi.

⁶⁹ Булаховский Л.А. Введение в языкознание. семасиологии русского языка. — С. 67;

⁷⁰ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. -Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 104.

Bu shunday ko‘chimki, sirtidan qaralganda, so‘zlovchi jiddiy gapirayotganga o‘xshaydi, ammo uning tagida kesatiq, piching, yashirin kulgi yotadi⁷¹.

Bundan ko‘ramizki, hosila ma’no yuzaga chiqishining bir ko‘rinishi metonimiya hisoblanadi.

Til birligini uning haqiqiy ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko‘chimga aytiladi.

Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa “ironiya” atamasi ostida umumlashtiriladi.

Uning antifraza (masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo‘li bilan inkor qilish) hamda sarkazm (zaharxanda ta’na, istehzoli piching, shama) deb ataluvchi ko‘rinishlari farqlanadi.

Mohir so‘z ustasi Abdulla Qahhor asarlarida kinoyaning nodir namunalarini uchratish mumkin. Masalan:

Norqo‘zi *“Yetti qavat parda ichida” o‘tiradigan o‘z xotinini bularning qarshisida” Farishta” deb biladi.* (Mayiz yemagan xotin)

Kichraytirish (litota) – mubolag‘aning aksi tushuniladi. Lekin mohiyati, e’tibori bilan ular qarama-qarshi hodisalar emas, har ikkisi ham voqelikni haddan tashqari kuchaytirib tasvirlashga xizmat qiladi. Litota biror bir voqelikni kichraytirish vositasida beriladi.⁷² Masalan: Tilimni qichitma, jo‘jaxo‘roz! Bunda qarshisidagi insonni “jojaxo‘roz” deb kichraytirish orqali uning kuchli ekanligi ta’kidlanayapti. Badiiy tasvir vositalarining barchasi nutqni ta’sirchan qilishga, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Nutq ta’sirchan, aniq, maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi uchun undan foydalanuvchi tilning stilistik resurslari va me’yorlarini yaxshi bilishi lozim⁷³.

O‘zbek tilshunoslari ham rus manbalari metafora asosida vujudga kelgan ko‘chimlar ustida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, ko‘chimlarning bir-

⁷¹ Йўлдошев М., Исоков З., Хайдаров Ш. Бадий матннинг лисоний таҳлили.– Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010

⁷² Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977; Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида метафора. – Тошкент: Нодирабегим, 2019. 15 бет.

⁷³ Каримов С.А. Ўзбек тили услубшунослигининг ҳозирги босқичидаги муаммолари. // Марузалар матни. – Самарқанд, 2004, 68 бет.

biridan farqli xususiyatlari va badiiy adabiyotdagi talqinini o‘zishlarida bayon etishgan. Shulardan, G. Qobuljonova metaforaning lingvistik talqiniga bag‘ishlangan tadqiqot ishida metaforaga yondosh hodisalarning o‘zaro farqini yoritgan⁷⁴.

Metonimiya kundalik hayotda tez-tez nutqimizda amaliy hodisa sifatida uchratamiz va borliqni anglash va shu tushuncha orqali o‘z tilimizni boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

1.2. Olam manzarasini tasvirlashda ko‘chim turlarining roli

Tilshunoslikning stilistika bo‘limida metafora nutqning bezagi va fikr ifodalashning o‘ziga xos bir shakli ekanligi ko‘pgina olimlar tomonidan e’tirof etiladi. Metafora jarayoni bu inson tafakkurining metaforik qobiliyati haqida bugungi kungacha ko‘p va xo‘p aytib o‘tildi. Antik davrdan boshlab nutqning tasviriy vositasi va uning jozibasi deb qaralgan ushbu hodisa haqida bildirilgan barcha fikrlar yaqin yillardan beri metaforaga bilish jarayonining o‘ziga xos fikrlash usuli, mexanizmi, inson ongidagi zalvorli va ahamiyatli fenomen ekanligi to‘g‘risidagi xulosalar o‘z tasdig‘ini topgan ilmiy haqiqatdir. Metafora tabiatini tekshirgan Aristotel uni: «so‘z ma’nosining jinsdan turga, turdan jinsga yoxud turdan turga yoki muqobillik asosida ko‘chirilishidir»⁷⁵, – deb ta’riflaydi.

Olam manzarasiga chizgilar antropomorf xarakterlidir, shunga ko‘ra, tasavvurimizdagi olam manzarasi muallif ongidagi olam manzarasidan farq qilishi tabiiy. Demak, biz uchun real olamdagi metafora qanchalik soxta bo‘lmasin, obrazga aniq tavsif berishda muallif ushbu metaforadan unumli foydalanishga harakat qiladi. Real olamda o‘xshash vaziyatlar haqidagi bilimlarimizdan to‘liqroq foydalanish maqsadida bizning reallik to‘g‘risidagi kontseptga ko‘proq mos keladigan matnli kontseptni sintezlashga harakat qilamiz. Shu yo‘l bilan metaforik axborotni uning haqqoniyligi real olam haqidagi tasavvurimizga zid kelmasligi uchun qo‘shishga intilamiz. Ya’ni biz olamni muallif so‘raganidek tasavvur

Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз... дисс. автореферат. – Тошкент, 2000. – Б. 124.

⁷⁵ Аристотел. Поэтика. – Л.: 1927. – С.39.

qilishga harakat qilamiz⁷⁶. Aristotel metaforaga nisbatan ixcham, soddalashtirilgan o‘xshatish deb qaraydi hamda bu ko‘chimlarni qo‘llashda mahoratli bo‘lish lozim, ya’ni “yaxshi metaforalarni yasash – (predmetlararo) o‘xshashliklarni ilg‘ashdir”, – deya ta’kidlaydi. Tilshunos A.Richards esa metaforik hodisaga bunday yondashadi: “har bir lison egasida metaforalarni qo‘llashga doir tajriba mavjud bo‘ladi; Aristotelning bu mahorat hammada ham mavjud bo‘lavermaydi degan fikri noto‘g‘ri. Inson nutqiy qobiliyatni o‘zga lison egalarining namunasi ostida egallab boradi. Tabiiyki, bunda u bevosita ko‘chimlarni qo‘llash tajribasini ham o‘zlashtirib boradi”, – deb e’tiroz bildirarkan, metaforaga eng ulug‘vor – hayotni idora etish (a command of life) san’ati deya baho beradi⁷⁷.

Ritorika metaforani alohida mahorat va ehtiyotkorlik talab etuvchi so‘z o‘yini, ya’ni muayyan shakl emas, balki, nutqning tasviriy vositasi, bezagi deb qabul qiladi. Binobarin, antik davr odamida obyekt va tasavvur qilinayotgan subyekt o‘rtasidagi munosabat haqida go‘yo ikkita fizik predmetning o‘zaro ta’sirlanishiga monand tasavvur mavjud bo‘lgan⁷⁸. Metafora nafaqat ong, balki til va madaniyat universaliyasi hamdir. Biz tekshirayotgan teomorfik metaforalar esa, bu borada o‘zining alohida xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi⁷⁹.

Tilshunoslikning ushbu yo‘nalishiga ko‘ra, til va tafakkur masalasi inson ongida yangi fikrlar paydo bo‘lish mexanizmining bosh omili hisoblanadi. Tildagi mavjud har bitta nominativ ma’nodagi leksik birlikni o‘zi ham aslida o‘xshatish asosida vujudga kelgan bo‘lib, bunda metafora tayanch kognitiv mexanizm sifatida xizmat qiladi⁸⁰.

Davr o‘tib, metafora muammosi ritorika ko‘lamidan tashqariga chiqib, tilshunoslikka o‘tdi. Shu zaylda metaforaning qiyosiy kontseptsiyasi yuzaga keldi.

⁷⁶ Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти – Қарши, 2018, 75 бет.

⁷⁷ Айвор А. Ричардс. Философия риторики. Бунда мақола қуйидаги тўплам сирасида: Кассирер Э., Р.Якобсон, А.Ричардс, М.Блек, Дж.Серл, А.Вежбиска, А.Ортони, Ж.Лакофф, Н.Гудмен, и др. Теория метафоры. –М.: Прогресс, 1990. – С.58.

Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти – Қарши, 2018, 15 бет.

Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти – Қарши, 2018, 75 бет.

⁸⁰ Рофиева Г. Ю. Ўзбек тилидан француз тилига концептуал метафоралар таржимасининг ўзига хос хусусиятлари. дисс.канд.филол..наук -Тошкент. 2020. 20 бет

Unga ko‘ra, metafora – odatiy nomlanishning tasviriy idrok etilishi. Bunda metafora yashirin qiyos sifatida tekshiriladi, qiyosiy nazariya esa metaforik bayonni ikki taqqoslanayotgan predmetga bog‘liq bo‘ladi, deb xulosa qilgan⁸¹. Umum olganda, metafora tasviri va obrazli ifoda vazifasini o‘tashi bilan bir qatorda, u so‘zlarning ikki turli referentlar o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki farqlarni ochib berish yo‘li bilan ham ilmiy o‘rganilgan. Metafora yashirin qiyos sifatida faoliyat yuritadi deyish, unda bir narsa yoki tushuncha boshqa narsa yoki tushuncha bilan noan’anaviy usulda bog‘lanadi va qiyosiy asosda o‘rganiladi. Ma’naviy ko‘chim haqidagi an’anaviy ta’limot metaforaning bir necha turinigina ajratadi va metafora yasalishini qulay nutqiy vaziyatning yuzaga kelishi bilan bog‘laydi. Shu tufayli, metaforaga nisbatan kontekstlar va g‘oyalar almashinuvi (thoughts) deb yondashilmasdan, shunchaki so‘zlarga muqobil lisoniy vosita deb qaralib kelindi⁸². Lingvomadaniy tadqiqotlar doirasida yuzaga kelgan qarashlar ko‘chimlar ya’ni metafora har bir xalqning o‘ziga xos milliy, va ma’naviy qarashga egaligini, dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvistik vosita sifatida o‘rganishning dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Metafora bu milliy o‘ziga xoslikni ifodalovchi vositadir. Metaforik ko‘chim bu borliqqa bo‘lgan o‘zgacha qarash va anglash, olam manzarasini tasavvurimizda qayta ishlab tasvirlash o‘ziga xos uslubni qo‘llay olish hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavhum tushunchalarni badiiy nutqda ifoda etilishi shakliy, holat va harakat kabi xususiyatlari aro o‘xshashlik asosida ifodalangan metaforalardan farq qiladi. Shuningdek, “konseptual metaforalar” asoschilari J.Lakkoff va M.Jonsonlar ularni uch guruhga:

- 1) oriyentatsion,
- 2) ontologik,
- 3) strukturaviy metaforalarga ajratadilar.

⁸¹ Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти – Қарши, 2018, 75 бет.

⁸² Айвор А. Ричардс. Философия риторики. Бунда мақола қуйидаги тўплам сирасида: Кассирер Э., Р.Якобсон, А.Ричардс, М.Блек, Дж.Серл, А.Вежбиска, А.Ортони, Ж.Лакофф, Н.Гудмен, и др. Теория метафоры. –М.: Прогресс, 1990. – С.58.

Oriyentatsion metaforalar insonlarning fikr mulohazalardagi tasviriy ifodalar ma'lum bir joy yoki yo'nalishga ishora berilishini anglatadi, ontologik mavhumlikning mavjudlikka aylanishini ta'minlaydi. Strukturaviy metaforalar inson tafakkuridagi murakkab tushuncha orqali boshqa bir so'z mohiyati shakllanishini tushunib olishimiz mumkin⁸³. V.P.Moskvin metaforalarni semantik jihatini o'rganib, ularni tegishli sohasi bo'yicha klassifikatsiya qilgan:

- texnikaga oid metafora,
- moliya sohasiga oid metafora,
- sportga oid metafora,
- qurilishga oid metafora,
- tabobatga oid metaforalar⁸⁴.

Shu o'rinda metaforalarni o'rganish alohida soha ko'rinishida o'rganish ancha yengillik tug'diradi, shuning uchun Moskvinning bergan tasnif metaforalarni leksik-semantik jihatdan o'rganilishini osonlashtiradi.

Insonning fikrlashi, kuzatuv, his etib idrok etishi – barcha-barchasi metaforik hususiyatli bo'lib, bunda: metafora nutqni tejash tamoyiliga amal qiladi va bunda tilda avvaldan mavjud bo'lgan so'zlarning yangi ma'nolarini vujudga keltiradi; – metaforaning amal qilishi hayratomuzdir: atrofdagilarning muayyan tavsif yoki sifatlarni qo'llamay, “qog'ozga o'rab”, butunlay boshqa kategorial guruhlarga tegishli so'zlarni qo'llagan holda gapirishiga qaramasdan, tinglovchi ularning muddaolarini xatosiz anglaydi; – metafora – munosabat bildirishning alohida nuqtayi nazari bo'lib, uning mexanizmi inson madaniyati, saviyasi va h.ga teng ravishda axloqiy baholash shkalasiga o'zaro proporsional tarzda ishlaydi. Shunga ko'ra metafora kognitiv-pragmatik jihatdan madaniy axborotni tashuvchidir⁸⁵.

⁸³ Қобилова Н. ва Олломуродов А. Метафораларнинг лингвомаданий ҳамда когнитив хусусиятлари ва тил таракқиетида туган ўрни. 2022, 100 бет

⁸⁴ Москвин В.П. -Русская метафора: параметриклассификация. НДВШ. Филол. науки,2000.-Б.12.

⁸⁵ Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти – Қарши, 2018, 76 бет.

Dunyo tilshunosligida etnos tilning metaforik xususiyatlari, olamning manzarasini yoritishda tilning oʻrni metafora yaratilishida shaxs ruhiyati omili kabi ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu oʻrinda ustoz SH.Mahmaraimova shaxs ongida milliy lisoniy metaforalar borasida shunday fikr beradi: metafora tadqiqotchi uchun behad emotsional obyektidir, binobarin, tarjimon ham asarni original tildan oʻzga tilga oʻgirayotganida metaforalar ustida ishlaydi, izlanadi. Metaforalar tasodifan tanlanmaydi, ayniqsa, milliy kolorit va ruhni beixtiyor his etishga majbur etuvchi teomorfik metaforalar. Ular tarjimondan milliy mentalitet toʻgʻrisidagi yuksak bilim va uzoq yillik kuzatuvni talab qiladi. Zero, har bir millatning hayot tarziga singib ketgan, shu xalq va millat bilan “yashaydigan”, uning his-tuygʻulari, qadriyatlari, anʼanalari, dunyoqarashi bilan “nafas oladigan” oʻz metaforalari borki, ularning qatorida teomorfik metaforalarning ham oʻz mustahkam oʻrni bor. Bu esa ushbu metaforalarning yana bir fenomen qirrasini hisoblanadi⁸⁶.

Oʻzbek tilshunoslaridan Sh.Rahmatullayev va M.Mirtojiyevlar ham oʻzbek tilshunosligi doirasida metaforaning milliy maʼdaniy, lisoniy, semantik hamda kognitiv xususiyatlarni tadqiq etishganligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

“Zamonaviy tilshunoslikda metaforaning tafakkur bilan bogʻliq xususiyatlari eʼtibor markaziga qoʻyildi. Dastlab falsafada nutqiy bezak sifatida qaralgan metafora endi kognitiv tilshunoslikda ongning qiyosiy-tahliliy faoliyati sifatida qarala boshlanganligi misolini koʻplab kognitiv tilshunoslikka oid adabiyotlarda koʻrishimiz mumkin.

“Metafora oʻzi taalluqli boʻlgan tilning milliy maʼdaniyatni bevosita aks ettiruvchi ekstralingvistik mazmun tashuvchisi hisoblanadi. Milliy-madaniy komponentni oʻz ichiga olgan birlik hisoblanuvchi metaforani muayyan til egalari olam manzarasining oʻziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi

⁸⁶ Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти – Қарши, 2018, 77 бет.

madaniy, bog‘lanishli assotsiatsiyalari kabi qatlamni chuqur o‘rganish talab etiladi⁸⁷.

Lisoniy kontseptlarni ularning milliy-madaniy o‘ziga xosligi nuqtayi nazardan tahlil qilish (A.Vejbitskaya, YU.S.Stepanov, Uspenskiy, V.YA.Propp, Gak va b.) metaforalarning kontseptual tahlilida qo‘l keladi. Shuningdek, A.A.Potebnya, P.O.Yakobson, A.N.Veselovskiy, A.F.Losev, M.YU.Lotman, O.Freydenbergning, olamning milliy obrazlari bo‘yicha G.Gachevning, fan tilida metaforalarning qo‘llanilishiga bag‘ishlangan S.S.Gusev, O.M.Bessonova va b. tadqiqotlari esa, bu boradagi izlanishlarning salmog‘ini oshiradi⁸⁸.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslik metaforaning qiyoslash usuli, nutqni bezash usuli degan an’anaviy ta’rifdan butunlay voz kechadi. Shuningdek, generativ tilshunoslikdagi N.Xomskiy, L.N.Murzin kabi olimlarning metafora vazifaviy strukturalarning o‘zaro ta’siri haqidagi ta’riflariga ham qo‘shilmaydi. Zamonaviy tilshunoslikning J.Lakoff, M.Jonson, N.Arutyunova, A.Baranov, Yu.Karaulov, V.Demyankov, Ye.Kubryakova kabi namoyandalari metafora olamni anglash, atrof-voqelikni tizimlashtirish va uni tushuntirish usulidir hamda metaforani kognitiv ongning asosiy mental operatsiyasi tariqasida o‘rganish zarurdir deb ta’kidlaydilar. Shu tarzda, ikki so‘zning ma’nosini bog‘laydigan metafora tasviriy vosita emas, balki, ikki tushuncha maydonini birlashtiradigan va voqelik konseptualizatsiyada manba doirasini shakllantirish imkonini beruvchi ongning asosiy amaliyoti (jarayoni)dir. Demak, metafora – bu voqelikning spetsifik konseptualizatsiyasi, inson tafakkuriga xos analogik imkoniyatlarning namoyon bo‘lishidir. Inson nafaqat metafora vositasida fikrlaydi, balki, metaforalar yordamida idrok qiladi, ular vositasida fikrlaydi.

D.Baxronovanning ta’kidicha, “metafora metafora bo‘lguncha, olamning oddiy manzarasidan to lisoniy manzarasigacha “sayohat” qiladi. So‘z birdaniga metaforaga aylanib qolmaydi. Shu sababli ular o‘ziga tegishli jamiyatning

⁸⁷ Вефова.А. (2019) Семантические универсали описани языков.-Москва.-776 к.

⁸⁸ Свирепо О.А. Метафора как код культуры/ Автореферат дисс. кан. философских наук. -Ростов-на-Дону,

“yuziga” madaniyatning kodiga aylanadi. Jumladan, metaforalarni har bir millat maqol, matal va aforizmlarida, kundalik muloqotlarda qo‘llanilishi muayyan etnosgagina tushunarli sifatlarni, milliy-madaniy belgini kodlarini ifodalaydi”⁸⁹.

Metafora obyektlarning bir sinfiga xos belgilarni boshqa obyektlar sinfiga yoki ulardan biriga – metaforaning asosiy (dolzarb) subyektiga mutanosiblikda tanlaydi. Metaforik ma’no uch komponentni bilishdan kelib chiqadi: denotatlarning ikki kategoriyasi va metaforizatsiya jarayonida tilga olingan denotat xarakteristikasi. Metaforada ishtirok etgan denotatlar kategoriyasining xarakteristikasi turli tillarda o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘ladi. “Odatda, metafora til egalarining ushbu obyektlar kategoriyasi haqidagi umumiy, xususan, mifalogik madaniy, emotsional baholi konnotatsiyalarni o‘z ichiga olgan tasavvurlari zaxirasiga oid bo‘ladi”⁹⁰. Metafora bu borliqni insonga jozibador qilib ko‘rsatadi. Shu o‘rinda Kvintilianning fikriga to‘xtalamiz: metafora tabiatan yuksak insoniy lafziy-ma’noviy tushuncha va hech bir narsa-hodisaning ma’nosiz qolmasligiga, shuningdek, zarurat bo‘lsa, obrazsiz ifodalanmasligiga xizmat qiladi.

D.Baxronova tadqiqotlarida o‘zbek lisoniy manzarasidagi metaforik modellashtirishlar lingvoma’daniy, nuqtai nazardan o‘rganilgan nuqta olimaning keltirishicha, bir hayvon nomi metafora sifatida ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarini bildirishi mumkin. Masalan, ayiq antropozoomorfizmi tashqi qiyofaga xos va fizialogik xususiyatlar doirasida insonning salbiy hamda ijobiy sifatlarini tavsiflab kelishi mumkin: ayiq – salbiy: befahm, beso‘naqay, qo‘pol, beg‘am, jahldor; beo‘xshov harakat qiluvchi odam; *U kotibni ayiqday befahm odam bo‘lsa kerak deb o‘ylagandi* (N. Eshonqul. “Bevaqt chalingan bong, 46).

Ayiq – ijobiy: Baquvvat, zo‘r, kuchli. Erkak kishi haqida; *U, ta’bir joiz bo‘lsa, ayiqday baquvvat, xushchaqchaq inson ekan* (O.Yoqubov. “Xotiralar”, 137).

⁸⁹ Бахронова, Д. К. (2016). Лингвокультурные особенности зооморфных фразеологических единитс. Вестник Челябинского государственного университета, (9 (391), 36-43.
Kalbe. – Ankara: TDK. – 122 b.

Gender munosabatlarini til nuqtayi nazardan yoritishda ham metaforik belgilar muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilining lisoniy manzarasida *burgut* erk, ozodlik timsoli hisoblanadi. Burgut antropozoomorfizmi metafora tarkibida kelsa, ko‘chim markazida erkak kishi nazarda tutiladi.

1) *(Mirsalim) Qodirning burgut bo‘lib tikilib turganini payqagandek, yuzini ters o‘girib oldi.* (Shuhrat. “Oltin zanglamas”, 307);

2) *O‘zi muloyim ko‘ringani bilan, changalidan chayon ham chaqolmaydigan burgut bu qori!* (I.Rahim. “Chin muhabbat”, 49)

Ushbu matnlar mazmunida burgut – erkak modeli metaforik model hisoblanadi⁹¹.

Metafora o‘zi taalluqli bo‘lgan tilning milliy madaniyatini bevosita aks ettiruvchi ekstralingvistik mazmun tashuvchisi hisoblanadi. Milliy-madaniy komponentni o‘z ichiga olgan birlik hisoblanuvchi metaforani tarjima qilish tarjimondan fon bilimlarini tadqiq etish, muayyan til egalari olam manzarasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi madaniy, bog‘lanishli assotsiatsiyalari kabi qatlamini chuqur o‘rganish talab etiladi⁹².

Metaforani ma’lum bir millatning dunyoqarashini aks ettiruvchi unsurlardan bir sifatida baholanishi ko‘chimlarga jiddiyroq yondashish masalasini qo‘yadi. Olamning obrazini to‘g‘ridan to‘g‘ri reflekslar vositasida anglab bo‘lmaydi, uni faqat o‘ziga xos obrazlarni “o‘z boshidan kechirish “orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini “odatdagi” bilish orqali anglab bo‘lmasa-da, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin. A.K.Kamenskiy olamning lisoniy manzarasini “mantiqiy (konseptual) va lisoniy (so‘zli) modeldan tashkil topgan mantiqiy-so‘zli hosila” sifatida umumiy shaklda izohlangan. M.Xaydeggerning qayd qilishicha, “manzara” so‘zi deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o‘ylaymiz, “olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi”. Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning

Бахронова, Д.К. Гендер и селевиe контсептуал’ние гендерние стереотипи // Гендерние исследования в гуманитарних науках: сб. ст. по матер. III междунар. науч.-практ. конф. № 3. – Новосибирск: СибАК, 2015

⁹² Вежбитская, А. (2019). Семантические универсалии и описание языков. –Москва. – 776 с

manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo'ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o'ng-chap, sharq-g'arb, uzoq-yaqin), miqdor va hokazo o'lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo'la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo'lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o'zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida anglaydi. Tilning o'ziga xosligi tufayli til egasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko'radi.

Bugungi kunda muayyan etnos tilining kognitiv, lingvokulturologik, psixolingvistik va neyrolingvistik xususiyatlari, olamning manzarasini yoritishda tilning o'rni, metafora va iboralarning kognitiv-semantik jihatlari, xususan, voqelikni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish, shuningdek, metafora va iboralar yaratilishida shaxs ruhiyati omili kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari hamda chet tilni o'rganuvchilar uchun metafora, frazeologik birliklar, maqol-matallarni o'qitish metodikalarini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish, tarjimashunoslik fani rivojiga hissa qo'shish, o'zbek tilining boy fondi – metafora, paremiya va frazeologik tizimini qardosh va qardosh bo'lmagan tillar leksikologiya va frazeologiyasi bilan qiyosiy-chog'ishtirib o'rganilmoqda⁹³.

Til ham madaniyat, ham tabiat hodisasi sifatida mavjud. Shubhasiz, til madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi. Lekin boshqa tomondan tilning materiyasida insonning biologik tabiati namoyon bo'ladi. Bu o'rinda ko'p narsa nutqiy faoliyatining fizialogik va psixofizialogik imkoniyatlari bilan aniqlangan. Masalan, dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar hamda ko'plab tovushlar almashinuvi zanjirining mavjudligi madaniyat bilan emas, tabiat bilan bog'liqdir. Binobarin, inson faqat unlilar yoki undoshlarning o'zi bilan nutq hosil qila olmaydi. Tabiat til

⁹³ Бахронова, Д. К. Метафоры в языковой картине мира (на материале английского и испанского языков). Молодой ученый, (1), 225-228.

strukturasining teran xususiyatlarini hamda matnni hosil qilish va uni qabul qilish qonuniyatlarini aniqlaydi. Insonning nutqiy faoliyati tug‘mami yoki keyin shakllanganmi? degan savol haligacha munozarali bo‘lib qolmoqda. Olamning lisoniy manzarasini o‘rganish masalasi inson va uning turmushi uning dunyo bilan o‘zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi. Tilda aks ettirilgan olamgina mavjud. Modomiki, har bir til borliqni o‘ziga xos usullar bilan aks ettirar ekan, unda tillar bir-biridan o‘zining “olamning lisoniy manzarasi”ga ko‘ra farqlanadi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Ko‘chimlar bu tilshunoslikning o‘rganilishi muhim bo‘lgan obyektini hisoblanib tilda obrazlilikni, ifodalilikni va ta’sirchanlikni oshiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Biz ushbu bobda jahon va o‘zbek tilshunos olimlar tomonidan ko‘chim va uning turlari mavzusida yozilgan bir qator ilmiy ishlar, maqolalar va talabalar uchun o‘quv qo‘llanmalar bilan tanishib chiqdik va tilshunoslarning fikrlari bilan boyitdik. Xulosa qilib aytganda, ko‘chimlar tilni faqat chiroyli qilish bilan chegaralanib qolmaydi, balki ma’nolarni chuqur ifodalash va o‘quvchi yoki kitobxonning tushunchalarini kengaytirib berishga xizmat qiladi.

Olamning obrazini to‘g‘ridan to‘g‘ri shartli reflekslar bilan anglab bo‘lmaydi. Uni faqat obrazli aks ettirish, ifodalash orqaligina bilish mumkin bo‘ladi. Bu o‘rinda olamni anglash lisoniy bilish bilan bog‘liq. Biz ushbu bobning ikkinchi faslida olamni bilishda ko‘chim va uning turlarining ahamiyati borasida jahon va o‘zbek tilshunoslarining fikr va mulohazalari o‘rganilib tahlil qilindi.

II BOB. BADIY ASARLARDA SHOHLAR TASVIRINI BERISHDA KO'CHIM TURLARINING ROLI

2.1. Badiiy asarlarda shohning tashqi holatini ifodalashda ko'chim turlarining ishtiroki

Badiiy asar tili tilshunoslikda qadimdan til ixlosmandlarini o'ziga jalb qilib kelayotgan munozarali sohalardan biridir. Har bir ijodkor o'z nutqiga va o'zgacha so'z qo'llash mahoratiga ega bo'ladi. Hozirgi zamon o'zbek tilshunosligida badiiy tasvir vositalari, jumladan, ko'chim va uning turlari xilma-xil bo'lib, epitet, sinekdoxa, metonimiya, vazifadoshlik va metaforalarni kiritish mumkin. Umuman olganda, o'zbek tili badiiy tasvir vositalari (ko'chimlar)ga juda boy hisoblanadi. Ko'chimning eng faol qo'llaniladigan turi metaforik ko'chish bo'lib, ijodkor tomonidan badiiy asar tilining jozibasini oshirish uchun faol qo'llanadi.

Badiiy asar matnini tahlil qilishning tilshunoslik fani manfaatdor bo'ladigan boshqa bir jihati bor va uni ikki yo'nalishga ajratib o'rganishga to'g'ri keladi. Birinchidan, badiiy asar matnidani tilni sinxronik va diaxronik yo'nalishda o'rganishda, tilshunoslikning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda uning

ma'lum darajadagi yoki hozirgi paytdagi ahvolini, taraqqiyot qonunlarini o'rganishda, turli kategoriyalarni ilmiy tahlil qilishda material sifatida foydalaniladi ikkinchidan, badiiy asar materialidan tilda yuz berayotgan sifat o'zgarishlari, ya'ni ma'no taraqqiyotini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Bunda tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, tildagi barcha birliklar qamrab olindi va ular alohida bir prizmadan o'tkaziladi. M.H.Kojina ta'biri bilan aytganda bu tekshirish til birliklari ichiga vertikal kirib boradi. Bu tadqiqotlarda til vositalarining o'z birlamchi ma'nolari emas, balki matniy, nutqdagi qo'shimcha ma'nolari ularning bajargan vazifalari va bu bajargan vazifalarga qarab uslubiy chegaralanishlari o'rganiladi. Milliy til boyligini, uning bugungi ahvolini belgilashda katta rol o'ynaydigan bu yo'nalishni lingvistik stilistika deb ataydilar⁹⁴.

Bizga ma'lumki, qadimdan ertaklar, dostonlar, qasidalar, marsiyalar, yirik epik asarlar barchasida shohlar tasvirini uchratamiz. Umuman olganda, aksariyat asarlar shohlar madhi uchun yozilgan asarlar ekanligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, Firdavsiyning "Shohnoma" asari fors shohlarining beqiyos tarifi-tavsifiga bag'ishlangan bo'lsa, Alisher Navoiyning "Tarixi mulki ajam" asari, zolim shohlar tasviriga bag'ishlangan bu kabi asarlarda shohlar tasvirini berish ijodkor badiiy ta'sirchanlikni oshirish uchun badiiy tasvir vositalari, ya'ni, ko'chimlardan foydalanadi. Yozuvchi badiiy asarning mohiyatini oshirish uchun ko'chimlarni qo'llashda o'zining yo'nalishiga, o'sha davrning holati hamda tiliga tayangan. Bu esa badiiy asarning jilvadorligini oshirgan. Biz esa shohlar tasviri berilgan bir qancha badiiy asarlar orqali ko'chim turlarini tahlil qilamiz. Tilshunoslik jihatdan badiiy asarlarda ko'chimlar o'rganilganda aksariyat hollarda metaforik ko'chim ilmiy tadqiq qilingan.

Ko'chim turi bo'lgan metaforik hodisaning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, metafora ba'zan frazeologik birlik shaklida, ba'zan esa so'z birikmasi shaklida uchraydi. Endi ko'chim hodisasini badiiy matn asosida birma-bir tahlil qilamiz.

⁹⁴ Каримов С.А. Ўзбек тили функционал стилистикаси. –Самарқанд: СамДУ, 2010, 96-98- бетлар.

Yozuvchi Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” asari Temur va temuriyzodalarga bag‘ishlangan asar hisoblanadi. Biz ushbu asarda shoh obraziga berilgan tarif va tavsifida ko‘chim turlarining ishtirokini o‘rganamiz. Masalan:

“Baland bo‘yli, durkun, yumshoq ko‘ngil, *tiniq yuzli, yorqin mo‘ylabi* endigina sabza urgan amirzoda chehrasida qandaydir o‘zgarish sezildi, u nimadir demoqchi bo‘ldi, hayajonlanganidan *yuzlariga qizillik yugurgan, ko‘zlari chaqnar edi* (Muhammad Ali, “Ulug‘ saltanat” 8-bet).

Asarda Amir Temur tarifi shoh obrazi sifatida berilyapti. Biz bu o‘rinda shohning tashqi ko‘rinishini ko‘chim turlari orqali tahlil qilamiz. Shoh tasviri: *tiniq yuzli* ushbu tarifda metaforik ma‘no ko‘chishi so‘z birikmasi sifatida qo‘llangan bo‘lib, bitishuvli birikma shaklida kelyapti.

Tiniq yuzli birikmasi ijobiy ma‘no kasb etgan. *Yorqin mo‘ylabi endigina sabza urgan* Badiiy uslubda mohirona qo‘llangan bu ma‘no ko‘chish metafora yo‘li bilan amalga oshirilgan sifatdoshli birikma hisoblanadi. “Tilda va badiiy nutqda ishlatilishiga ko‘ra metaforani ikki turga bo‘lish mumkin:

1) til metaforasi;

2) badiiy metafora. Til metaforasi badiiy metaforadan o‘xshashlikning formasiga ko‘ra farqlanadi. Chunki til metaforasi ikki predmet o‘rtasidagi ochiq o‘xshashlikka asoslanuvchi ko‘chimdir⁹⁵. Badiiy metafora metaforaning muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, badiiy nutqning obrazlilik va ta’sirchanligi, ko‘tarinkiligi va tantanavorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi⁹⁶. Shu o‘rinda *tiniq yuzli* va *yorqin mo‘ylabi* birikmasi badiiy metaforaga yorqin misol bo‘ladi.

Yorqin mo‘ylabi birikmamizni ajratib tahlil qilsak bitishuvli va otli birikma hisoblanib sifat so‘z turkumi bilan ma‘no ko‘chish qo‘llangan. Ijodkor bunda shoh tasvirini berishda *yorqin* so‘zini ijobiy ma’noda qo‘llab, shohning kelajagi ham qanchalik yorqin ekanligiga ishora beradi.

Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоетик хусусиятлари (метафорик ходисалар мисолида) –Қарши, 2019, 87-бет

⁹⁶ Д.Шодмонова Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоетик хусусиятлари (метафорик ходисалар мисолида) диссертация Қарши – 2019 87-бет

Lisoniy asosli metaforik ma'no hosil bo'lishi ifodalangan shakliy o'xshashligi asosida yuz beradi. Bunda so'z semantik strukturasiidagi denotativ semaning o'zgarishi, konnotativ va funktsional semaning saqlanishi kuzatiladi. To'g'ri, ayrim holda konnotativ va funktsional semada ham o'zgarish kuzatiladi. Bu, albatta, denotativ semadagi o'zgarish natijasidir⁹⁷.

Metaforik ma'no hosil bo'lishi va uning voqelanishida tilning yaxlit tizimiylik qonuniyati namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, ko'chma ma'noni voqealantirishda tilning boshqa sathlari hamkorligi muhim rol o'ynaydi⁹⁸. Quyida biz ayrim namunalar bilan tanishib sharhlashga harakat qilib ko'ramiz.

Hayajonlanganidan yuzlariga qizillik yugurgan metafora yo'li bilan qo'llangan bu jumla sifatdoshli birikma hisoblanadi. *Yuzlariga qizillik yugurgan* bitishuv yo'li bilan birikkan so'z birikmamiz aslini olganda inson yuziga berilgan tarif ijobiy ma'noda qo'llangan ya'ni yuzning o'z holiga qaytishi *yuzidan qon qochgan* iborasiga zid birikma desak bo'ladi. *Qizillik* va *yugurgan* so'zlarini alohida-alohida tahlil qilsak, ot va sifatdosh bilan belgi va harakatning metaforik ma'no ko'chishini ko'ramiz. Badiiy metafora ijodkor tomonidan mohirlik bilan so'z qo'llash demakdir. D.Shodmonova badiiy metaforani shunday izohlaydi: Badiiy asarda ifodalilik, obrazlilik asosiy tasvir vositasidir⁹⁹.

Matnda qo'llangan birliklar xuddi shu ta'sirchanlikni oshirgan va ijodkorning mahorati yuzaga chiqqan. Yana quyida qator misollarni tahlil qilib ko'ramiz:

Ko'zlari chaqnar edi ijodkor bu metaforik ko'chim orqali shohlarga xos shijoat, g'ayrat, g'urur ma'nolarini berishga urinib, shohning yuz tasvirini bo'yoqdorlikda berishga urinadi. Ushbu jumlaning sintaksis yo'li bilan tahlil qilsak, *Ko'zlari chaqnar edi* jumlasida sodda yig'iq gap ko'rinishida kelgan. Metaforik ma'no ko'chish sifatdoshning to'liqsiz fe'l bilan kelgan shaklida namoyon bo'lgan.

⁹⁷ D.Шодмонова Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоетик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида) диссертация Қарши – 2019 87-бет

⁹⁸ Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоетик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида) –Қарши, 2019, 87-бет

⁹⁹ Д.Шодмонова Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоетик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида) диссертация Қарши – 2019 87-бет

Misol uchun *simyog'ochda o't chaqnadi* o'z ma'nosida bo'lsa, *ko'zlari chaqnar edi* ko'chma ma'noda metaforik hodisani yuzga keltirgan. Badiiy metafora, odatda, shartli va botiniy o'xshashlikka tayangan ko'chim bo'lib, ko'pincha

y

a

o

‘ Temurbek qaddi qomati raso, baland bo'yli, keng peshonali, qoshlari quyuq, ko'zlari katta-katta bir yigit edi. Ko'z qarashi mayin, muloyim bo'lib, kuchli o'ktam ovoz bilan gapirar, shoshilmas, ovozida kishini o'ziga tortuvchi qandaydir joziba, sehr yashiringandi. (Ulug' saltanat.35- bet. Muhammad Ali)

a Amir Temurga berilgan ushbu tarifda ko'chim hodisasini tahlil qilamiz. Ijodkor shohning ijobiy xislatlarini shunday yoritadi. Amir Temurning zolim, qonxo'r sarkarda emas, balki, buyuk insoniy xislatlarga ega bo'lgan adolatli podshoh obrazida ko'rsatishga urinadi. Bunda ko'chimning bir turi bo'lgan metaforalar orqali yoritadi. *Ko'z qarashi mayin, muloyim bo'lib* bu xususiyat aslida shaxsga nisbatan emas, balki narsaga nisbatan ishlatiladi. Masalan; "*paxta oppoq va mayin edi*" birligida o'z ma'nosida qo'llangan. Ammo yuqoridagi birlikda ko'chma ma'no ya'ni o'z ma'nosini yo'qotib, xil-xususiyatlik asosida ma'no ko'chgan va metaforik hodisa yuz bergan. Metaforalar asosan ot so'z turkumi va qisman fe'l so'z turkumi bilan qo'llanadi. Jumlada mayin bo'lmoq muloyim bo'lmoq fel bilan ifodalangan metafora qo'llangan. Yozuvchi *mayin, muloyim bo'lmoq* qo'shma fe'lini aslida ko'z qarashi mayin bo'lishi bilan shoh obrazini ijobiy ko'rsatib, matnda emotsionallik, ekspressivlikni oshirish orqali matn go'zalligiga erishgan. Metafora xususida maxsus maqola yozgan S.Usmonov ham badiiy metafora nutqiy parchada ilgari hech qanday anglatmagan predmet yoki hodisani bildirishini ta'kidlaydi¹⁰¹. *Ko'z qarashi mayin bo'lmoq* birikmasi o'z ilgari vazifasidan yangi bir ma'no kasb etib kelgan. Tahlilni keyingi misolda davom ettiramiz. Xonzodabegim ukasini soqol mo'ylov qo'ymagan o'n to'qqiz

o

¹⁰⁰ Кожин А.Н. Переносное употребление слова // Русский язык в школе. 1954. -№ 3. С.21.

¹⁰¹ Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. 1964, -№ 4. -Б. 34-35.

a

n

a

yoshli silliqqina yigit qiyofasida eslab qolgan edi. Hozir uning qarshisida turgan keng yelkali, soqol mo‘ylabi tekis tarashlangan yigitning kiyimlari ham shohona emas edi: boshida bezaksiz oddiy simobi salla, egnida zira beqasam to‘n. (Yulduzli tunlar. Pirimqul Qodirov) Yozuvchi Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidan olingan parchada shoh Boburning tasvirini chizgan ya’ni ko‘chim hodisasidan mohirlik bilan foydalangan. Odatda, metafora tasavvurni moddiylashtirishni maqsad qiladi. Yozuvchi shoh tasvirini aniq berishga urina turib, o‘z tasavvurini ham moddiylashtiradi va ko‘chim hodisasidan foydalanadi.

Metafora poetik fikrning to‘laqonli badiiy va obrazli qiyofa kasb etishini ta’minlaydi¹⁰². Badiiy asarda *silliqqina yigit* birikmasi obrazli qiyofa kasb etishni ta’minlaydi. Matnda ko‘chim hodisasini ko‘ramiz: *silliqqina yigit* yoshgina hukmdorni silliq deb tariflash orqali qaddi tik va raso ekanligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Metafora bitishuv yo‘li bilan bog‘langan so‘z birikmasi bo‘lib kelgan. Aynan metaforani yuzaga keltirgan so‘z *silliqqina* sifat so‘z turkum bo‘lib, ijodkor silliq so‘ziga -qina qo‘shimchasini qo‘shish bilan sifatli me’yorga amal qilgan va emotsional ekspressivlikni oshirgan. Aslida predmetga xos bo‘lgan belgi *silliq* so‘ziga -qina qo‘shimchasining qo‘shilishigina ijobiy metaforik ko‘chimni yuzaga keltirgan va shaxs tashqi holatiga ko‘chgan. Agar ijodkor *silliq yigit* birikmasini qo‘llaganda metaforik ko‘chim ma’lum ma’noda salbiy bo‘yoq kasb etishi mumkin edi. Jumlada *silliqqina yigit* sifatlovchi va sifatlanmish holda kelgan birikma bo‘lib, ijodkor ijobiy ma’noda uslubiy bo‘yoqdorlikni qo‘llagan.

Badiiy metafora ijtimoiy shartlanmaganligi bilan xarakterlanadi. Bu esa unda adibning poetik idroki zohiran muvofiq bo‘lmagan hodisalarni bog‘lay olishi, ulardan badiiy xulosa chiqarishi kabi holatlar bilan belgilanadi¹⁰³. Biz bunda badiiy metaforaning ijodkor tomonidan erkin qo‘llanilishini va ijtimoiy shartlanmaganligini quyida matnlar bilan ko‘ramiz.

Uning cho‘zinchoq qoramag‘iz yuzi so‘lg‘in, keng peshonasi va qiyg‘ir burnining ikki yonidagi ajinlari quyushgan, zotan, butun vujudida, katta yalpoq

¹⁰² Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977; Б. 17.

Д.Шодмонова Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоетик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида) диссертация. -Қарши, 2019 88-бет

tizzasiga horg'ingina tashlab o'tirishda chuqur iztirob, izhor etish qiyin bo'lgan teran bir mung bor edi. (Ulug'bek xazinasasi. 12-bet. Odil Yoqubov). Ijodkor Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasasi" romanida temuriyzoda Ulug'bek mirzo obrazini tasvirlar ekan badiiy tasvir vositalaridan ya'ni ko'chim turlaridan foydalanadi. *Yuzi so'lg'in* birikmasida ko'chinning metafora hodisasi yuzaga kelgan.

Ijodkor metafora hodisasini anchayin erkin qo'llaydi. Ijtimoiy shartlanmagan bo'lsa-da, badiiy metafora obrazli fikrni ifodalashda an'anaviyligi yoki favquloddaligi bilan ham farqlanadi¹⁰⁴. Favqulodda yuzga biz *so'lg'in* sifatini beramiz biroq ushbu metaforani shakllantirgan so'z badiiylikni yana ham oshirib bergan. Ega va kesimdan iborat birlik sodda gap shaklida berilgan. *Yuzi* ot so'z turkumi, *so'lg'in* sifat so'z turkumi metaforani yuzaga keltirgan so'z yasama bo'lib kelgan *so'lg'in* so'zining asosi fe'lga -g'in qo'shimchasi qo'shilishi natijasida sifat so'z turkumi yasalgan. Metaforaning badiiy nutqda badiiy-obrazlilikni kuchaytiruvchi tub mohiyati shundan iboratki, metafora mavjud matnlarda boshqa vosita bilan fikrni metafora orqali ifodalagandek ifodalash imkoni bo'lmaydi. Metaforaning boshqa lingvistik vositalardan farqli ravishda ma'noni yashirin tarzda ifodalashi, narsa-hodisani xarakterlashda taqqoslash, chog'ishtirish kabi holatlarning mavjudligi bu vosita orqali takrorlanmas fikr ifodalash uchun sharoit yaratadi¹⁰⁵. Biz bu yerda qo'llangan *so'lg'in* yuz birikmasining *so'lg'in* so'zi o'zaro taqqoslanish asosida metaforik vazifa bajargan.

Badiiy asarda ijodkor tomonidan yaratilgan metaforalarning hammasi ham kishida ta'sirchanlikni uyg'ota olmaydi. Buning uchun ijodkor o'sha belgi haqida aniq tasavvurni bera olish kerak bo'adi. Shu o'rinda yana bir tilshunos olimning fikriga tayanamiz. B.V.Tomashevskiy fikrni o'xshatish, metafora va sifatlash orqali ifodalash haqida so'z yuritar ekan shunday yozadi: "Alohida ajratib ko'rsatish lozim bo'lgan narsaning belgisini oddiy ifodalash hamma vaqt ham ta'sirchanlik talablariga javob bera olmaydi. Kishida hissiyot uyg'otish uchun belgi haqida aniq tasavvur hosil qilish kerak, qachonki shu belgi esda qolsin yoki diqqatni jalb etsin.

Д.Шодмонова Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоетик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида)
Диссертация. Ўзбекистон Республикаси Президентининг лингво-услубий шаклланиши асослари. -Тошкент, 2020. 210-бет.

Shuning uchun ba'zan narsaning belgisi boshqa narsa yoki hodisaning xuddi shunday belgisi bilan taqqoslanadi"¹⁰⁶. O'xshatilayotgan predmet o'xshayotgan predmetga qaysidir holati bilan o'xshashi kerak. *So'lg'in* so'zidagi harakat-holat ma'lum ma'noda yuzga ko'chadi va xuddi shu holatga nisbatan qiyoslanadi.

Ijodkor sifatlovchi va sifatlanmish hodisasini qo'llab shohning holatini ko'rsatish uchun yuzga so'lg'inlik nisbatini beradi. Natijada, metafora paydo bo'ladi. Asliyatda so'lish o'simliklar uchun xos xususiyat misol: gul so'lg'in, ko'chma ma'noda yuz so'lg'in faqat jumlada -g'in qo'shimchasi badiiy bo'yoqdorlikni oshirgan. Metafora borliqdagi barcha narsa, belgi, harakat yoki hodisaning ma'lum o'xshashlik asosida nom ko'chishiga asoslanadi. Jumlada holat fe'li orqali ko'chim shakllantirilgan. Shundan ko'rinadiki, o'simliklar uchun xos xususiyat taqqoslanish asosida metaforani yoki o'xshatishni vujudga keltiradi va fikrni yorqinroq, ifodalash imkonini beradi. Mirzo Ulug'bek yalt etib qaradi, chuqur botgan o'ychan ko'zlarida savol alomati jilva oldi. ("Ulug'bek xazinasi" romani 14-bet).

Metafora – umumnutq hodisasi. Shu jihatdan yondashilganda, metafora ham boshqa tasviriy vositalar singari keng vazifali. Biroq metafora nutqning boshqa turlarida badiiy nutqdagidek keng ko'lamda qo'llanilmaydi¹⁰⁷. Quyida tahlilda ushbu fikrga yondashib ishlaymiz.

Ijodkor jumlada Mirzo Ulug'bekning holatini ko'chim orqali shunday tasvirlar ekan. Shohning shiddat bilan va juda tez qarashini *yalt etib qaradi* birikmasi bilan ifodalaydi. Aslida *yalt etish* biror jismdan nurning yog'ilish hodisasi hisoblanadi. Ijodkor mana shu hodisani shohning holatiga ko'chiradi va shohlargagina xos tezlikni va shiddatni shunday yoritadi. Natijada jismga xos holat ko'chim hodisasiga aylanib shaxsning tasviriga ko'chadi. Bu ko'chim metaforik hodisani yuzaga keltirgan bo'lib, holatga xos ko'chma ma'no shakllangan. *Yalt etib qaradi* so'z birikmasi fe'lli birikma bo'lib kelgan bo'lib ushbu birikma faqat badiiy nutq uchun xoslikni anglatadi.. *Yalt etib* birikmasi kompozitsiya usulida

¹⁰⁶ Томашевский Б.В. Курсатилган асар. – Б. 201.

¹⁰⁷ Умурқулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. -Тошкент, 2020. 211-бет.

yasalgan yasama fe'l bo'lib shakllangan. *Chuqur botgan o'ychan ko'zlarida* jumlasiga e'tibor qaratsak, *chuqur botgan* sifatdoshli birikma metaforik hodisani yuzaga keltirgan. Ijodkor bu ko'chim hodisasi orqali shohning saltanat tashvishlaridan, xuruj qilib kelayotgan urush tala-to'plaridan anchagina toliqqanini yoki biroz yoshi o'tganligini ko'rsatishga urinadi. Bu holatda metafora hodisasining badiiy matnda yuksak mahorat bilan qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Biror predmetning chuqur botish holatini shaxs tasvirini berish uchun ko'chirib ko'chma ma'no hosil qiladi. Birikmada sifat va sifatdosh o'zaro bitishuv usuli bilan birikkan.

O'zbek tilshunosligida metaforani maxsus o'rgangan G.Qobuljonova uning mohiyati haqida mavjud bo'lgan nom so'zlovchi nuqtayi nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta'minlay olmay qolganda yuzaga chiqishini ta'kidlar ekan, metaforaning vazifasi nutqni qisqa, ta'sirchan, lo'nda qilish, nutqni aniqlashtirish ekanligini ko'rsatadi¹⁰⁸. Quyida ko'chim hodisasiga e'tiborimizni qaratamiz va tahlil qilamiz masalan: *savol alomati jilva qildi* jilva qilish predmetga xos xususiyat ammo Shohning ko'zlarida *savol alomati jilva qildi* deb ichki bir savol bilan qilingan murojaatni ijodkor *jilva qildi* deb ko'rsatadi. Bu o'rinda shohlarga xos tarif uchun atay qo'llanganligini va ko'chim hodisasini yuzaga keltirganligini ko'ramiz. Metaforani shakllantirgan ushbu birlik yasama fe'l holatidagi qo'shma fe'l shaklida ijobiy ma'no kasb etgan. ijodkor badiiy matnda so'z qo'llash mahoratini ishga soladi. Ya'ni ijodkor kitobxonga ta'sirchanlikni berish uchun G.Qobuljonova aytgandek ayni nutqiy sharoitni ta'minlash uchun shunday so'z qo'llaydiki, metafora orqali asar ta'sirchanligi oshadi.

Yozuvchi badiiy asar tilini ko'chma ma'noli so'zlar bilan boyitib matnshunoslikda ko'chim hodisalari ayniqsa, metaforalarning vazifasi asar tili ta'sirchanligini oshirib kelgan. Har bir ijodkor yozilayotgan asarda badiiy jozibani berish uchun, alabatta, ko'chim va uning turlaridan foydalanadi. Badiiy asrni hishayajonga yo'g'irish uchun so'z salohiyatiga tayanadi. So'z esa shakl- shamoyili,

¹⁰⁸ Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз... дисс. автореферат. – Тошкент, 2000. – Б. 10.

rang bo'yog'i bilan o'z ohangini ko'rsatadi. Bu o'rinda badiiy matnda ko'chim hodisalari so'zga aslyatidan ko'ra o'zga bir ma'no yuklaydi va so'z yangi libos kiyib shaxs ruhiyatiga singiydi. Ko'chimlar, ya'ni so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi, badiiy asarlarda juda keng qo'llaniladi. Ayniqsa metafora badiiy matn tilini jozibador qiladigan hodisa chunki hayot o'zi cheksiz metaforalar to'plamidir. Har bir odam, har bir kulgi, har bir yosh barchasi o'z tarixiy kinoyasini yashirincha olib yuradi, bizga esa ana shu kinoyalar orqali yangi olamlarni kashf qilish imkoniyatini taklif qiladi. Shuning uchun yozuvchilar metaforani qo'llashda tinimsiz yangilik yaratishda davom etadilar, chunki metafora tili tunganmas ilhom manbaidir.

Ko'chim hodisasi – bu tilimizdagi va mazmunli jarayonlardan biridir. Bu jarayon so'zlarning bir ma'nodan boshqa ma'noga o'tishini anglatadi, va nafaqat lug'aviy balki majoziy ma'nolarni ham qamrab oladi. Tilda ko'chimning sodir bo'lishi, tilning boy va sarmazmun tus olishi uchun juda muhimdir.

SH. Maxmaraimova metaforaning badiiy obrazlarning va yangi ma'nolarning hosil bo'lishidagi asosiy yo'l ekanligini, bir qator nutqiy vazifalarni bajarishini qayd etadi¹⁰⁹. Mana bu yerda ushbu fikrning guvohi bo'lamiz. Tasavvur qiling, Mirzo Ulug'bek chuqur botgan o'ychan ko'zlarida savol alomati jilva qildi shohning tasvirini ijodkor shunday beradi. Chuqur botish birikmasi bilan ko'chim qo'llangan. Shunday qilib bir tushunchani ifodalashda, uning eng mashhur, eng tanish xususiyatini boshqa tushuncha bilan qiyoslash orqali yangi bir ifodaviy ma'nosi hosil bo'ladi.

Metaforalar o'zbek tili sohiblarining obrazli tafakkur tarzini ko'rsatishi bilan birga ularning lisoniy xotirasida saqlanuvchi, qoliplashgan va shu bilan birga nutqda implitsit tarzda namoyon bo'luvchi yashirin o'xshatishlar o'z qonuniyatiga ega bo'lgan tizim sifatida mavjud ekanligidan dalolat beradi. O'zbek tilining

boyligi hisoblangan bu tizim birliklarini aniqlash tilimizdagi kognitiv modellarni belgilashda katta ahamiyatga ega¹¹⁰.

Mana bir misol oladigan bo'lsak tarixda hukmdorlarga nisbatan "arslon", "burgut" so'zi ko'p hollarda "qo'rqinchli kuch" tushunchasini ifodalash uchun ishlatiladi. Biroq bu yerda ham aynan ko'chim hodisasi yuz beradi: qadimgi davrdan bu jonzotlar nomi qo'rqinchlilik, shiddatlilik, yengilmaslik ramzi sifatida qo'llaniladi. Agar biz burgut deb shohga tarif bersak salbiylik bo'yog'i, arslon desak ijobiylik bo'yog'i shaklida ma'no ko'chish yuz beradi. Aslida hayvonga xos xususiyatning nima uchun oddiy dehqonga, cho'ponga yoki baliqchiga qo'llanilmay shohlarga va shahzodalarga nisbatan qo'llanilishida ham farqlilik bor. Bizga asarlarda dehqon obrazini bechora mehnatkash chumoli obrazi orqali ramziy bo'yoq beradi. Albatta, bechora dehqonni arslondek deb tariflamaydi, chunki unda arslondek kuch-quvvat yo'q bechora faqat kun o'tkazish uchun arang ovqatlanadi.

Metaforik ifodalarni turli ijodkorlar asarlarida, turli badiiy matnlarda uchratish mumkin. Shuning uchun badiiy asarlarda uchraydigan metaforalarni qo'llanilishi jihatidan ikkiga bo'lish mumkin:

- a) an'anaviy metaforalar;
- b) individual metaforalar.

An'anaviy metaforalarning nasriy adabiyotda eng ko'p uchraydigan turi yomon kishilarga nisbatan *bo'ri*, *quzg'un*, *yirtqich* va boshqa so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash hisoblanadi¹¹¹. Biz yuqorida ko'rgan misollarda *burgut*, *arslon* so'zlari badiiy asarda an'anaviy metaforalarga misol bo'la oladi.

Biz ko'chim hodisalarining qo'llanilishida ma'lum bir tabaqalilikni ham ko'ramiz chunki hukmdorga berilgan ta'rif bilan savdogarga berilgan tarifda tabaqalilik bor. Sunday qilib, ko'chim jarayoni tilimizni doim yangilaydi, undagi ifodaviy imkoniyatlarni kengaytiradi va nutqimizni boyitadi. Bu jarayon ijodkor tili bilan tilimizning yana jonlanishini, yangilanishini tasvirlaydi hamda tilimizning

¹¹⁰ Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. -Тошкент, 2015, 15-бет

¹¹¹ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. -Тошкент, 2020. 214-бет.

hayotbaxsh manbai ekanligini isbotlaydi. Ko‘chimlar tilimizning mavjudligini eng jozibali va ifodali qiladi, shuning uchun adabiy va ma’rifat sohalarida bu juda qimmatli hodisadir.

Mirzo Ulug‘bek yoqut ko‘zli oltin uzuk taqilgan o‘rta barmog‘i bilan naqshinkor xontaxtani chertgancha yana sukutga toldi. Uning o‘siq qoshlari bir-biriga tutashib, o‘rtasida chuqur chiziq paydo bo‘ldi. Ali Qushchi unga tasalli berish o‘rniga alamli qalbini battar tig‘laganini sezib o‘ng‘aysizlanib tomoq qirdi. (Ulug‘bek xazinasi.14-bet. Odil Yoqubov)

Ushbu matnda ko‘chim hodisasini tahlil qilamiz. Uning o‘siq qoshlari bir-biriga tutashib, o‘rtasida *chuqur chiziq paydo bo‘ldi*.bu jumlada metaforik hodisa mavjud bo‘lib, bu jumla adabiyotda va kundalik nutqda ham ishlatilishi mumkin. Harfma-harf tahlil qilinganda, bu ibora yuzaki ma’noda qaralsa, biron bir yuzada aniq bir chiziqning paydo bo‘lishini anglatadi; ammo majoziy ma’noda bu chuqur chiziq”, odatda munosabatlarda, guruhda yoki tuzumda yuzaga kelgan katta bo‘linish yoki farqlikni bildiradi. Masalan, ikki do‘st o‘rtasida katta bir janjal ro‘y berganda, “chuqur chiziq paydo bo‘ldi” deyilsa, bu holat ular o‘rtasida paydo bo‘lgan katta farqlarni yoki psixologik masofani anglatadi. Bu chiziq, birdaniga o‘zaro ishonchni yoki totuvlikni buzishi mumkin. Badiiy matnda esa bu chuqur chiziq Ulug‘bek Mirzoning hayot darg‘alarida ne-ne tashvishlarni ko‘rganidan dalolat beradi.

Predmet yoki hodisaning bu xilda yangicha nomlash, ayniqsa, badiiy nasr uchun juda zarur bo‘lib, badiiy-obrazlilikni kuchaytiradi. Umuman, badiiy asarlarda uchraydigan individual metaforalarni metafora hosil bo‘lishi uchun asos bo‘ladigan o‘xshashlikning xarakteriga ko‘ra asosan:

- a) umumiy o‘xshashlik asosida hosil bo‘luvchi;
- b) obrazli o‘xshashlik asosida hosil bo‘luvchi metaforalarga ajratish mumkin¹¹².

¹¹² Умурқулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиши асослари. -Тошкент, 2020. 215-бет.

Demak, ustoz B.Umurqulovning ilmiy qarashiga ko‘ra “*chuqur chiziq paydo bo‘ldi*” birikmasini individual metaforalar sirasiga kiritishimiz mumkin. Shu tariqa, “*chuqur chiziq paydo bo‘ldi*” birikmasini, konkret chiziqdan ko‘ra, ko‘pincha ikki kuch, g‘oya yoki inson o‘rtasidagi katta farqlarni yoki ajralishni, majoziy ma’noda ifodalaydigan metafora sifatida ishlatiladi.

Chuqur chiziq paydo bo‘ldi bu jumlaning tahlili quyidagicha: “*chuqur*” so‘zi sifat bo‘lib, chiziqning qandayligini tavsiflaydi. Bu yerda “*chuqur*” so‘zi chiziqning xususiyatini bildiradi, ya’ni u qanchalik teran ekanligi haqida ma’lumot beradi. Chiziq so‘zi bu yerda ot ya’ni gapning asosiy qismidir. Bu gapda ko‘rsatilayotgan asosiy predmetni bildiradi. Bu birikma jumlaning egasidir va predikat qismidir. Bu qiyoslanishda umumiy o‘xshashlikka emas, balki obrazli o‘xshashlikka asoslanilgan deb bilishimiz mumkin bo‘ladi. Yana bir misolda tahlilni davom ettiramiz.

Bobosi Amir Temur ot yuzli, qiyg‘ir burun, siyrakkina cho‘qqi soqol odam edi. Jumlaning tahlil qilganda *ot yuzli* birikmasi ko‘chim turi sifatida tahlil qilinsa, bu odatda kishi yuzining juda keng va yorqin ifodalanganligini bildiruvchi majoziy ifoda sifatida qaraladi. *Ot* – bu yerda insonga hamisha do‘st bo‘lgan ot obraziga to‘xtalib, ko‘pincha hayvonning keng va kuchli yuzini bildiruvchi ot, aslida bu jonivor nomi bu yerda metafora sifatida qo‘llaniladi. Bunda *ot* ning kengligi va kuchliligi odatda inson yuzi bilan qiyoslanib, uning keng yoki kuchli xususiyatlari majoziy tarzda qo‘llanadi. *Yuzli* – bu ikkinchi qism birikma tarkibida sifat vazifasini bajaradi va yuz so‘ziga -li qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali tavsiflanayotgan narsaning qaysi turga yoki xarakteristikasiga tegishli ekanligini bildiradi.

Ko‘chim turi sifatida *ot yuzli* birikmasi odamning yuzi haqidagi konkret tasvirni metaforik ma’noda kengaytiradi. Bu yerda odamning keng yuzi *ot* ning tengsizligi va hajmi bilan taqqoslanadi, bu esa o‘z navbatida bu odamning yuzi odatiy odam yuzlariga qaraganda kengroq ekanligini ta’kidlash uchun ishlatiladi. Shu tariqa, *ot yuzli* birikmasini majoziy ma’noda ishlatganida, bu insonning fizik xususiyatlari haqida emas, balki uning yuz ifoda va xususiyatlarining katta va

ta'sirchan ekanligi haqida fikr bildiradi. Bu ko'pincha, ijobiy yoki salbiy qarashlardan qat'i nazar, kishilarga nisbatan ba'zi xususiyatlarini ta'kidlash maqsadida ishlatiladigan majoziy ifodadir.

Qobuljonova metaforani sistemaviy lingvistik talqin etar ekan, quyidagi tasnifni keltiradi:

Metafora unsurlarining o'zaro munosabatiga ko'ra:

- a) asos metafora;
- b) yo'llovchi metafora.

Sintagmatik qatordagi munosabat belgisiga ko'ra:

- a) ochiq metafora;
- b) yopiq metafora.

Nomlanish jarayonining tabiatiga ko'ra:

- a) ekspressiv metafora;
- b) noekspressiv metafora.

Hosil bo'lish doimiyligiga ko'ra:

- a) muntazam metafora;
- b) nomuntazam metafora.

Amaliyot sathiga ko'ra:

- a) lug'aviy metafora;
- b) grammatik metafora¹¹³.

Qobuljonovanning sistemaviy, lingvistik talqiniga ko'ra *ot yuzli* birikmasi amaliyot sathiga ko'ra grammatik metaforalarga kiritishimiz mumkin. *Ot yuzli* birikmasini uslubiy jihatdan tahlil qilinganda, bu birikma qat'iy tilda ishlatilgan biror ko'chim yoki majoziy tasvir sifatida ko'rilishi mumkin. *Ot* so'zi bu birikma tarkibidagi keng va kuchli yuz so'zlarining sinonimi sifatida ishlatilgan bo'lib, umumiy qabul qilingan inson yuzi xususiyatlaridan ancha farqli ekanligiga urg'u beradi. Shu o'rinda ijodkor Amir Temurga *ot yuzli* degan tarifni bekorga bermaydi. Aynan Amir Temurning nihoyatda kuchli ekanligiga urg'u bermoqchi bo'ladi. Bu

¹¹³ Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Fil.fan.nomz.diss. avtoreferati. - Toshkent, 2000.- B. 21 .

birikma tasvirlanayotgan yuz tasvirlangan hayvonning nomi bilan qiyoslanishi natijasida yaratilgan. Odatda nutqdagi obrazlilikni kuchaytirish uchun ishlatiladi va kuchli yuz belgilariga o'xshatiladi. Bu o'xshatish tufayli birikma timsoli ma'noga ega bo'ladi. Hukmdorning yuzidan jahon shohlarining hayiqishini ijodkor shunday ko'chim orqali ifodalaydi. *Ot yuzli* birikmasi uslubiy obrazni yaratishda samarali vositadir, chunki u o'quvchini odatdagi tasavvurini kengaytirishga majbur qiladi va tasavvur qilinayotgan shaxsning muayyan xususiyatlari haqida chuqurroq o'ylashga undaydi. Ushbu majoziy ifoda nutqda kuchli ta'sir qoldirish uchun mo'ljallangan. *Ot yuzli* deyish orqali muallif gapirilayotgan kishining yuzini odatiy tasavvurdan ancha keng ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu birlik o'zining noyoblighi tufayli diqqatni tortadi va gapirilayotgan kontekstda betakror tarif yaratishda ishlatiladi. Jumlaning mazmunini va ta'sirchanligini oshirish maqsadida, adabiy asarlarda yoki samimiylashtirilgan nutqda bu kabi uslubiy vositalardan foydalaniladi.

A.N.Veselovskiy: "bizning barcha metaforalarimiz ikki guruhga bo'linadi: biri animizmning dastlabki g'oyalariga borib taqalsa, ikkinchisi taraqqiyot so'ngida, ko'rsatib o'tilgan parallellarning aralashuvi natijasida yuzaga kelgan"¹¹⁴, – deb ko'rsatadi. Veselovskiyning bu fikrini *ot yuzli* birikmasini animizmning dastlabki g'oyalariga borib taqaladigan metaforalar sirasiga kirishini tasdiqlaydi. *Ot yuzli* birikmasi eski yoki qadimgi birlik emas, balki hozirgi zamon tilida ham qo'llanadigan majoziy ifodadir. Aynan tarixiy yoki badiiy asarlarda duch keladigan birlik hisoblansa-da biroq, bu turli birikmalar aynan qaysi til va madaniyat kontekstida, qanday uslubda va qachon ishlatilganiga qarab arxaik yoki zamonaviy sanalishi mumkin. Misol uchun, ko'pgina tillarda qadimgi matnlarda inson xususiyatlarini hayvon xususiyatlari bilan qiyoslaydigan iboralar keng qo'llanilgan. Bu qiyoslash hali ham adabiyotda va kundalik nutqda ishlatilsa-da, ba'zi an'anaviy yoki eskirga so'zlarning o'rnini zamonaviy so'zlar egallay boshlagan. Har bir xalqning tilshunoslik ildizida mana shunday ko'chim hodisalari

¹¹⁴ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. — М.: Высш. шк., 1989. -404 с.

mavjud. *Ot yuzli* ifodasi zamonaviy o‘zbek tilida ham ishlatilishi mumkin, ammo uning ko‘p uchrayotganligi va til muhitiga qabul qilinganligi nutq madaniyatiga va ma’lum bir auditoriyaning lug‘aviy odatlariga bog‘liq. Agar bu ifoda hozirgi zamon tilida kamdan-kam ishlatilsa yoki eski matnlarda tez-tez uchrab turadigan bo‘lsa, ba’zi tilshunoslar tomonidan arxaik deb tasniflanishi mumkin. “Ulug‘bek xazinasini” romanida balxlik yigitlarni ot yuzli soqchilar deb tariflaydi. Demak, bunday ko‘chim hodisalari millatlarning irqiy yuz tuzilishi bilan bog‘liqdir.

Metafora bo‘yicha tilshunoslikda yetakchi zamonaviy mutaxassislardan biri N.D.Arutyunova: “Nutqni metaforadan ko‘ra yorqinroq tasvirlab beradigan go‘zal usul yo‘q”¹¹⁵, – deydi.

Ot yuzli ifodasi o‘ziga xos obrazlilik va ta’sirchan ma’noga ega bo‘lgan birikma hisoblanib u boshqa zamonaviy ifodalarga qaraganda kamroq ishlatiladigan so‘zlarni qamrab olsa-da, bu ifoda hali ham tushunarli va maqbul hisoblanadi.

Tahlilni keyingi misollar bilan davom ettiramiz. “Mirzo Ulug‘bek uyqusizlikdan qisilgan ko‘zlari yonib, o‘g‘li Abdulazizga qaradi.” (“Ulug‘bek xazinasini”, 98-bet).

Ijodkor shoh obraziga berilgan tarifda shunday ko‘chim hodisasidan foydalanadi. Bu yerda “Ko‘zlari yonib” ifodasi ko‘chim hodisasi nuqtayi nazaridan quyidagicha tahlil qilamiz: ko‘chim – bu tilshunoslikda bir so‘z yoki so‘z birikmaning ma’nosi boshqa kontekstga majoziy, ya’ni ko‘chma tarzda o‘tkazilishi jarayonidir. “Ko‘zlari yonib” ifodasi ko‘chim hodisasi sifatida bir insoning ko‘zlari haqiqatda olov yoki shul’a chiqarmasligini, bu yerda “yonib”so‘zi his-tuyg‘u, qat’iyat yoki har qanday kuchli hissiy holatni ifodalash uchun ishlatiladigan majoziy ifodadir. Yonib – fe’lning ma’lum bir shakli sifatida, bu ifoda majoziy ma’noda ishlatilganida, ko‘zlari orqali namoyon bo‘ladigan faollik, shiddat, g‘ayrat yoki hayajon holatini anglatadi. Ko‘zlari yonayotgan bo‘lsa, bu odamning ichida

¹¹⁵ Арутюнова Н.Д. Номинация, референция, значение //Языковая номинация. Общие вопросы. – М., 1979. – С. 188-206; Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс: Вступительная статья к сборнику “Теория метафори”. – М.: Прогресс, 1990. –С. 5-32; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1998. – 895 с.; Арутюнова Н.Д. Метафора в языке чувств // Язык и мир человека. М., 1999. – С. 385-402.

biror narsaga boʻlgan kuchli qiziqish yoki ehtirosni ifoda etishi mumkin. Shu oʻrinda Amir Temurga berilgan tarif ijodkor tomonidan nihoyatda mohirlik bilan berilganligini koʻrishimiz mumkin. Koʻzlarning “yonib” turgani metafora sifatida, kishi ichida bor kuchli hissiy reaksiya yoki ichki kuchni, shuningdek, ularda yuz berayotgan kuchli psixologik jarayonlarni koʻrsatadi. Bunday ifoda odatda baʼzi hollarda muhabbat, gʻazab yoki ilhomlanish kabi his-tuygʻularni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ushbu jumla bilan odamning oʻziga xos xarakteri yoki hozirgi holati haqida chuqurroq maʼnoga ega borliq yaratiladi. Shuningdek, “koʻzlari yonib” ifodasi oʻzida kuch va hayotga intilishini aks ettirib, shu orqali insonning ichki dunyosini, uning his-tuygʻulari va intilishlarini semantik darajada boyitadi. Bu birlik timsol sifatida, shaxsning maʼlum bir vaziyatga yoki yuz berayotgan voqealarga munosabatini kuchli va yorqin qilib koʻrsatadi.

Badiiy asarda metaforadan foydalanish qahramonlar nutqini individuallashtiradi, unga muallifning oʻziga xos xususiyatlarini beradi. Yangi tasvir, yangi metafora madaniy makonni kengaytiradi, uning ichki sir-asrorini, maʼnosini ochib beradi. Shuni esda tutish kerakki, majoziy tushunishning maqsadi oʻxshashlikni oʻrnatish emas, balki bu oʻxshashlikni kashf qilish orqali dunyoning muayyan qismini bu kabi narsalar bilan birlashtirgan holda “oʻzimizniki” qilishdir¹¹⁶.

Bu birikma jumladagi subyekt bilan bogʻliq va “koʻzlar” soʻzi subyektning bir qismi sifatida ishlatiladi. Shu sababdan, “koʻzlar” eganing qoʻshimcha sifati yoki belgisi sifatida tahlil qilinadi. *Koʻzlari yonib* birikmasi hozirgi zamon tilida ham tez-tez uchraydigan, hissiyotlarni ifodalovchi bir ibora hisoblanadi va u arxaik (qadimgi yoki eskirgan) soʻz yoki birikma sifatida qaralmaydi. Bu ifoda hali ham dolzarb va zamonaviy nutqda keng qoʻllaniladi. Shuning uchun u eski yoki unutilgan til birliklari qatoriga kiritilmaydi. Har bir til oʻzining tarixiy davrlarida turlicha soʻzlar va iboralarni qabul qilishi mumkin, ammo “koʻzlari yonib” kabi ifodalar uzoq vaqt davomida odamlarning nutqida qolaveradi, chunki ular

¹¹⁶ Тимофеева О.В. Метафора в художественной репрезентации мира: на материале произведений английских и американских писателей: Дисс. канд. филол. наук. – М., 2011. –158 с.

insonning tabiiy hissiyotlarini, masalan, hayajonlanish, motivatsiya va ehtirosni aniq va kuchli tarzda ifodalay oladi. Bunday ifodalar mazmunini yo‘qotmay, aksincha, yillar davomida til resursi sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin. “Tadqiqotchi A.Xo‘jamqulov metaforalarni tasniflar ekan, uning quyidagi turlarini farqlaydi:

1. Antropomorfik metafora.
2. Zoomorfik metafora.
3. Fitomorfik metafora.
4. Kosmomorfik metafora.
5. Abiomorfik metafora”

Biz tahlillarimiz davomida Tadqiqotchi A.Xo‘jamqulovning metaforalarni ma’lum ma’noda tasniflashiga bir qator misollar keltirdik.

Umuman olganda, ijodkor shoh holatini shunday tasvirlaydi: “Mirzo Ulug‘bek uyqusizlikdan qisilgan ko‘zlari yonib, Abdulazizga qaradi” jumlasidagi “ko‘zlari yonib” ifodasi ko‘chim turi nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, bu bir metafora sifatida ishlatilganini ko‘rsatadi. Ko‘chim turi deganda, jumladagi ma’lum so‘z yoki birikma majoziy, ya’ni ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan hodisani anglatadi. “Uyqusizlikdan qisilgan” – bu ifoda Mirzo Ulug‘bekning jismoniy holatini, ya’ni juda oz uxlashdan kelib chiqqan charchagan ko‘z qiyofasini tasvirlaydi. Bu yerda “qisilgan” so‘zi jismoniy holat va his-tuyg‘uning to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rinishini ifodalaydi.

2.2. Badiiy asarlarda shohning ruhiy olamini berishda ko‘chim turlarining roli

X.Q.Toshmatov o‘zining “O‘zbek xalq dostonlarida poetik ko‘chimlar” deb nomlangan deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida uzoq va yaqin xorij adabiyotshunosligidagi metaforaga doir qarashlarni o‘rganib, o‘zaro chog‘ishtirib chiqadi. U metaforani o‘rganishda uch xil talqin mavjudligini ko‘rsatadi:

- 1) Psixologik talqin;
- 2) Etnografik talqin;

3) Tarixiy talqin.

Uningcha, metaforani aniqlashda ham ruhiy, ham aqliy, ham nutq jarayoni va inson tafakkurining favqulodda kashf qilish holatlari teng hisobga olinishi lozim¹¹⁷

Biz ikkinchi bobning ikkinchi bandida tadqiqotchi X.Q.Toshmatovning tasnifi bo'yicha badiiy asarda shohlar tasvirini berishda psixologik talqin jihatidan tahlil qilamiz.

M.Yo'ldoshev badiiy matnning lingvopoetik tahlili xususida so'z yuritib, shunday deb yozgan edi: "So'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Albatta, so'z qo'llanilishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaligi turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin"¹¹⁸. Shu bois yozuvchining badiiy mahorati uning asar yaratishdagi so'z qo'llash mahoratiga, badiiy tasvir vositalaridan qay darajada mohirlik bilan foydalanishiga bog'liq jarayondir¹¹⁹.

Biz "Ulug'bek xazinasi" romanida ko'chim turlarini tahlil qilishda davom etamiz. "Amir Temur siyrak qoshlarini chimirib, o'tkir ko'zlari bilan qadalib qaraganda, hech kim tob berolmas, hamma ko'zini olib qochar, u kelayotganda har kim turgan joyida qo'l qovushtirgancha qotib qolar edi." ("Ulug'bek xazinasi", 90-91-bet). Ushbu jumlada bir qator ko'chimlar (majoziy ifodalar) orqali kuchli obraz yaratadi va Amir Temurning qiyofasini va qat'iyatini chizadi.

Har bir ko'chim turini alohida ko'rib chiqamiz: *Siyrak qoshlarini chimirib*— Bu yerda fizik harakat ishlatilgan bo'lib, shohning g'azabini yoki keskinligini ifoda etish uchun ishlatiladi. Ko'chim bo'lmagan holda, bu ifoda faqatgina jismoniy harakatni bildiradi.

¹¹⁷ Тошматов Х.Қ. Ўзбек халқ дostonларида поетик кўчимлар. Филол. фанлари. номзоди....дис. автореф. - Тошкент: ТАИ. 2002. 22 б.

Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоетикаси. – Тошкент: "Фан", 2008. – Б.18.

Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоетик ва лингвомаданий хусусиятлари дисс. -Тошкент, 2020

O'tkir ko'zlari bilan qadalib qaraganda – “*O'tkir ko'zlari*” birikmasi shohning nigohining keskinligi va aniqligini metafora sifatida ishlatiladi. O'tkirlik odatda pichoq yoki boshqa kesgich asboblarga nisbatan qo'llaniladi, bu yerda esa, shohning nigohini ana shunday kesuvchi qobilyotga ega narsalar bilan qiyoslash orqali uning qarashining kuchi va keskinligini majoziy darajada ta'kidlanadi. Ijodkorning mohirlik bilan so'z qo'llay olishi badiiy matnni benihoya go'zal va jozibador qiladi. Tilshunos olim N.Mahmudov ta'kidlaganidek, “Til faqat aloqa vositasigina bo'lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo'lardi. Holbuki, til bemisl boy, sehr-u sinoatga, ruh-u ruhoniyyatga, ko'rk-u komillikka limmo-lim bir xilqatdir”¹²⁰.

Badiiy asar tilining mukammal bo'lishi nafaqat yozuvchining leksik vositalarni ishlatishi, so'z tanlay olish mahorati, nutqning sintaktik qurilishlarini qo'llashdagi o'ziga xos jihatlarni to'liq aks ettira olishiga ham bog'liq.¹²¹

Hech kim tob berolmas – Bu ifoda majoziy ma'noga ega bo'lib ko'chim hodisasi yuz bergan ya'ni metaforik hodisa. *Tob berolmaslik* ko'pincha chidab bo'lmas darajada og'riq yoki qiyinchiliklarni bildiradi. Bu yerda esa shohning hukmronligiga ko'rsatilgan hurmat yoki qo'rquv ifodasi sifatida ishlatilmoqda.

Hamma ko'zini olib qochar – “*Ko'zini olib qochar*” iborasi odamlarning shohdan qanchalik qo'rqishini bildirish uchun ishlatiladi. Ushbu ibora shohdan turib olganiga e'tibor bermaslik va imkon qadar uning diqqatidan chetda qolishiga urinishni ifodalaydi. Bu ko'chim hodisasi metafora tufayli, ko'rish qobiliyati bilan bog'liq normal harakat ruhiy reaksiya tarzida berildi.

U kelayotganda har kim turgan joyida qo'l qovishtirganча qotib qolardi. – “*Qotib qolish*” ko'chim ifodasi ya'ni metafora bo'lib kelgan va bu yerda shohning huzurida odamlarning qo'rquv va hayratdan qimiray olmasligini ta'kidlaydi. Bu yerda “qotib” so'z mavhum, majoziy ma'noda ishlatilmoqda, chunki bu jismoniy harakatsizlikdan ko'ra, kattaroq ruhiy ta'sirni aks ettirdi.

¹²⁰ Махмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: “Ма’навият”, 1999. – Б. 44.

¹²¹ З.Муқимова Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопостик ва лингвомаданий хусусиятлари дисс. –Тошкент, 2020

Ushbu jumla orqalim shohning obro‘-e‘tibori va ta‘sir kuchini ifodalash uchun turli xil ko‘chim turlaridan foydalanilgan, va bularning barchasi nutqqa dramatik qarash va kuchli obraz yaratish uchun xizmat qiladi. E.Sepirning so‘zlariga ko‘ra, “Til madaniyatni ilmiy o‘rganishda rahbarlik tamoyili sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etadigan qo‘llanma hisoblanadi”¹²².

Jumla qurilishi shohning kuchli va hukmron tabiatini aks ettiradi. “*Siyrak qoshlarini chimirib*” va “*o‘tkir ko‘zlari bilan qadalib qaraganda*” kabi iboralar shohning qat‘iyatini ko‘rsatadi.

“*O‘tkir ko‘zlari bilan qadalib qaraganda*” kabi iboralar nutqqa faollik va dinamizm olib kiradi, shohning keskin va ta‘sirchan tabiatini kuchaytiradi.

“*Hech kim tob berolmas*” hamda “*hamma ko‘zini olib qochar*” so‘z birikmalari orqali shohga bo‘lgan hayajon va qo‘rquv hissiyotlari ham naqadar kuchli ekanligi ta‘kidlanadi. Bu hissiyotlar o‘quvchida shohning qudratli shaxsiyatini his etishga yordam beradi.

“*Qo‘l qovushtirgan cha qotib qolardi*” iborasi voqeani go‘yo davriy jihatdan davom ettiruvchi his-tuyg‘uni yaratadi. Bu yerda “qotib qolishdan maqsad o‘sha lahza muzday muzlab qolgan vaqt ko‘rsatkichi bilan manzara yaratishdir.

“Ot yuzli” yoki “o‘tkir ko‘zlari” kabi taqqoslashlar tabiiy va yovvoyi kuchlarni insoniy xarakter bilan taqqoslashda foydalaniladi, bu esa o‘z navbatida shohning tabiat bilan aloqasini bildiradi. Har bir til milliy bo‘lganligi kabi, milliy nigoh ham borliqni baholashda milliy-madaniy tafakkur va stereotiplar asosida ish ko‘radi. Shu boisdan milliy madaniyat, qadriyat va tafakkur o‘lchamlari borliq hodisalarini “o‘lchash” barobarida, o‘lchash vositalariga ham milliy mental “etalon” asosida munosabatda bo‘ladi.¹²³

Umuman olganda, ushbu jumla uslubiy jihatdan boy va ifodali til orqali shohning shaxsiyatini, uning atrofidagi odamlar ta‘siri va muhitning umumiy hissiy yukini aks ettiradi. Yozuvchi imkoni boricha shohning obrazini

¹²² Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1992. –С. 249; 261.

Эгамбердиев Ж. Сўзларнинг метафорик маъноларини изоҳли луғатларда кодификациялаш тамоиллари. - Андижон, 2020

mustahkamlash va o‘quvchilarda hukmdorga bo‘lgan bosh egish hissi yaratishga harakat qiladi. Bu uslubiy yondashuv adabiy matnning dramatik mohiyatini kuchaytiradi va o‘quvchilarda chuqurroq taassurot qoldiradi.

Biz asarda badiiy til doirasida ko‘chim hodisalari tahlilida shoh obrazini tahlil qilamiz. “Lekin ajabo: kichkina Muhammad Tarag‘ayni ko‘rganda bobosining qovog‘i ochilib, chehrasidagi shiddat bo‘lakcha bir muloyimlik bilan almashar o‘tkir nigohida sho‘x uchqunlar o‘ynar edi.”

Jumlada bir qancha ko‘chimlar (majoziy ifodalarni) ko‘rish mumkin. J.Viko ta’kidlaganidek, “har bir metafora kichkina mifdir”¹²⁴. Shuning o‘ziyoq metaforani milliylik bo‘yog‘idan xoli tasavvur qilib bo‘lmasligini ko‘rsatadi¹²⁵.

Chehrasidagi shiddat bo‘lakcha bir muloyimlik bilan almashar – Bu jumlada metaforik ma’nodagi kechinma yoki holat o‘zgarishini aks ettiruvchi tahlildir. Shohning yuz qiyofasiga qarab metaforik tahlil shunday olib boriladi. *shiddat* ning *muloyimlik* bilan almashinuvi kuchli hissiyotlarning nevaraga bo‘lgan mehribonlik va yaxshi his-tuyg‘ular bilan mayinlashuvini ifodalaydi. Bu yerda *almashar* so‘zi ma’nosini ko‘chirish va his-tuyg‘ular o‘zgarishini ko‘rsatadi.

O‘tkir nigohida sho‘x uchqunlar o‘ynar edi – *O‘tkir nigoh* shohning kuchli va qarorli qarashni anglatadi, bu esa odatda keskinlikni anglatadi. Bu holatda *sho‘x uchqunlar* ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lib, bu muloyimlik va shodlik tuyg‘ularining yorqin va jonli ifodasi sifatida tavsiflanadi.

Jumla tarkibidagi badiiy tasvir vositalari orqali Amir Temurning kechinmalari, uning ichki dunyosidagi o‘zgarishlar boy va rang-barang tarzda ifodalangan. Bu yerda hissiy kontrastlar – agressivlik va noziklik, qat’iyat va sho‘xlik bir-biri bilan uyg‘unlashadi va bobosi Amir Temirning Muhammad Tarag‘ayga nisbatan murakkab his-tuyg‘ularini ochib beradi. Ko‘chim turlari jumlaning umumiy obrazini chuqurlashtirishga va uni yanada boy ma’no va ifodalilikka ega qilishga xizmat qiladi, shuning uchun bu ko‘chim turlari jumlaning

¹²⁴ Вико Дж. Основания новой науки об общей природе натсий. Л., 1940. - С. 146.

Эгамбердиев Ж. Сўзларнинг метафорик маъноларини изоҳли луғатларда кодификациялаш тамоиллари - Андижон, 2020

badiiy qiymatini oshiradi. *Chehrasidagi shiddat bo‘lakcha muloyimlik bilan almashar* jumlada yoqimsizlikdan yoqimlilik holatiga o‘tish ko‘rsatilgan. Bu holat uslubiy kontrastni ta‘minlaydi va oxir oqibat muhim uslubiy effekt yaratishga yordam beradi.

O‘tkir nigohida sho‘x uchqunlar o‘ynar edi ifodasi metafora usulida ma‘no ko‘chishi yuz berganligi *sho‘x uchqunlar* Amir Temurning o‘zgaruvchan emotsional holatini aks ettiradi. Bu tarifda shaxs kayfiyatining tez o‘zgarishi va hissiyotlar o‘yinini tasvirlaydi.

Butun jumlada ko‘chim hodisasi bilan tasviriy tildagi elementlari bilan Amir Temurning shohlargagina xos bo‘lgan shaxsiy tabiatidagi murakkabligi va chuqurligini namoyish etadi. Jumla tarixiy shaxsiyatlar va tarixiy voqealarni bayon qilishda ishlatilgan bo‘lib, epik hikoyalarga xos bo‘lgan badiiy uslub xususiyatlariga ega. Bu uslub Amir Temurning hukmdor sifatidagi ramziy obrazini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Qovog‘i ochilib yoki o‘tkir nigohida sho‘x uchqunlar o‘ynar kabi birliklar metaforik ma‘noni anglatib, kishilarning his-tuyg‘ulari va holatlarini obrazli va ta‘sirchan tarzda aks ettiradi.

Yozuvchi badiiy uslub tili bilan Amir Temur kabi tarixiy shaxsning portretini yaratadi. U nafaqat shiddatli va qat‘iyatli hukmdor sifatida, balki mehribon bobo ekanligi ham ochiladi.

Jumlani morfologik tahlil qilinganda iboralar o‘z ichiga olgan otlar, sifatlar, fe‘llar va ularning turli shakllarini oladi. Shu o‘rinda jumlaning pragmatik tahlil qilamiz: Amir Temurning murakkab shaxsiyati va uning ichki dunyosidagi kechinmalarga chuqur kirishni taqozo etadi. Suhbatdosh yoki o‘quvchi tomonidan turli xil hissiy reaksiyalar kutiladi. Bu uning tinglovchida yoki o‘quvchida Amir Temurga nisbatan har xil tuyg‘ularni yuzaga keltirishi mumkin.

Semantik tahlil: *Qovog‘i osilib* va *shiddat so‘zlari* Amir Temurning hayajonli holati yoki g‘azablanishini tasvirlaydi.

Muloyimlik va *sho‘x uchqunlar* pozitiv va yumshoq his tuyg‘ularga ishora qiladi. Semantik bog‘liqligida har bir ibora ma‘lum bir emotsional holat bilan

bog‘lanadi va bir-birini to‘ldiradi. Jumlani pragmatik tahlil qilganimizda Amir Temurning murakkab shaxsiyati va uning ichki dunyosidagi chuqur kirishni taqozo etadi. Suhbatdosh yoki o‘quvchi tomonidan turli xil hissiy reaksiyalar kutiladi, va bu uning tinglovchida yoki o‘quvchida Amir Temurga nisbatan har xil tuyg‘ularni yuzaga keltirishi mumkin.

“Shahzodaning ganj niqobni eslatgan yuzi, qaltiroq qo‘llari, ayniqsa bejo jovdiragan ko‘zlari uning dilida mehrga o‘xshash bir tuyg‘u uyg‘otgan, faqat qandaydir g‘urur, temuriylarga xos bir iftixor gap boshlashga qo‘ymas edi. (Ulug‘bek xazinasi.128-bet.)

“*Ganj niqobni eslatgan yuzi*” – bu tasvirda ko‘chimning metafora usulida ma’no ko‘chish qo‘llanilgan. Bu yerda shahzodaning yuzi majoziy ma’noda, ganj niqobga o‘xshatiladi bu orqali uning yuz ifodasi betaraf va tuyg‘usizligi tasvirlanadi.

“*Mehrga o‘xshash bir tuyg‘u uyg‘otgan*” – ushbu birikmada ko‘chim: tuyg‘uning uyg‘onishi bilan bog‘liq metafora mavjud.

Ushbu matnda shahzodaning ko‘rinishi tasviriy va obrazli tillarda ta’kidlanadi. “*Ganj niqobni eslatgan yuzi*” – bu yerda shahzoda Abdulatifning o‘z qiyofasini shunchalik tez o‘zgartirishi, otasiga bo‘lgan munosabatning mehrsizlikda namoyon bo‘lishi, ota taxtini tortib olgan, o‘zligini unutgan shahzodaning o‘z qiyofasi yo‘q edi. Matnni morfologik tahlil qilib o‘tmiz: Morfologik jihatdan bu jumla gapda turli so‘z turkumlaridan foydalanganini ko‘rsatadi. Masalan, davr koloritini berish uchun o‘tmish zamonga qaytib so‘z shaklini qo‘llaydi ya’ni “ganj niqobni eslatgan” ifodasida “-gan” qo‘shimchasi o‘tgan zamon qo‘shimchasi sifatida ishlatilgan.

Matnni leksik tahlil qilamiz: matn turli mavhum va konkret ma’nolarni o‘z ichiga oladi. “*Ganj niqob*”, “*mehr*”, “*g‘urur*”, “*iftixor*” kabi birliklar hukmdorning holatini ochib berishda muhim vazifa bajaradi va tarixiy nazar bilan yondashishga ham yordam bergan. “*Qaltiroq qo‘llar*” va “*bejo jovdiragan ko‘zlar*” kabi tasvirlar jismoniy va hissiy tasvir uchun ishlatilgan.

Yana bir o‘rinda shahzoda Abdulatif tasvirining lingvistik tahliliga to‘xtalamiz: “Mirzo Abdulatif– Vo ajabo: bobosi o‘tirgan bu taxt shahzodaga kuch quvvat ato qildimi, boshqami, ishqilib uning chehrasidagi boyagi taraddud yo‘qolgan xuddi bobosinikiga o‘xshagan yonoqlari turtib chiqqan qoramtir yuzida, ichiga botgan sal qisiq ko‘zlarida odamni cho‘chitadigan sovuq bir ifoda paydo bo‘lgan edi.” Matnni ko‘chim turlari yuzasidan tahlil qilganda, metaforani ko‘rishimiz mumkin.

Masalan: *Yonoqlari turtib chiqqan qoramtir yuzida* jumlasini tahlil qilinganda shahzodaning yuz tuzilishi va rangini tariflash maqsadida ishlatilgan. “*Qoramtir yuz*” birikmasi turkiy xalqlar uchun kuch-qudrat, jiddiylik ma’nosida qo‘llanib kelingan bo‘lsa, “*yonoqlari turtib chiqqan*” birikmasi esa hukmdorning yuzida kuchli irodani aks ettiradi.

“*Ichiga botgan sal qisiq ko‘zlarida*” jumlada ko‘chim hodisasi metafora yuz bergan. Shahzodaning ko‘zlari shunday tasvirlanadi: *ichiga botgan ko‘zlar* predmetga xos bo‘lgan botiqlik xususiyati shaxs yuz ifodasiga ko‘chadi. Natijada ko‘chma ma’no yuzaga kelgan. Shahzoda Abdulatifning ko‘zlari yomonlik yoki salbiy nazar bilan tasvirlanishi mumkin bo‘lgan ko‘rinishini majoziy ma’noda ifodalaydi. Asarda ko‘z tasviri shaxs ruhiyatining oynasi hisoblanadi.

“Sovuq bir ifoda paydo bo‘lgan edi:” sovuq ifoda birikmasi majoziy tarzda shahzodaning his-tuyg‘ularini va psixologik holatini tavsiflaydi. Sovuq, hissiyotsiz yoki rahimsiz kechinmani bildiradi va majoziy ma’noda, shahzodaning ichki holati va tuyg‘ularining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Ko‘chim hodisasi tahlili orqali jumla ichidagi majoziy birliklarni , shu jumladan metaforalar va majoziy ifodalar bilan boyitilgan tasvirlarni aniqlaymiz. Bu misollar yordamida shahzoda obrazini chuqurlashtirish va uning o‘zgaruvchan psixologik holatini yanada to‘liqroq yoritish imkonini beradi.

Metaforalar va solishtirish:

– “Taxt” kuch-quvvat va hokimiyatning ramzi bo‘lishi mumkin. Matnda “taxt” shahzodaga kuch-quvvat ato qiladimi” deb so‘rash orqali metaforik solishtirish yaratiladi.

– “Yonoqlari turtib chiqqan qoramtir yuz” va ichiga botgan sal qisq ko‘zlari” tasvirlari ham metafora sifatida shahzodaning qudratli va jiddiy ko‘rinishini ta’kidlaydi.

Semantik tahlil: Jumlada har bir so‘z yoki iboraning ma’nosi tahlil qilinadi. “Qoramtir yuz” tasviri shahzodaning tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarishlarni, “sovuq bir ifoda” esa uning ichki hissiyotlaridagi o‘zgarishni ifodalaydi.

Biz badiiy asarlarda shohlar tasvirini berishda ko‘chim hodisalarini tahlil qilishda yana bir badiiy asarda shoh tasvirida lingvistik hodisa ko‘chimlarni ko‘ramiz. Masalan: Yozuvchi Maqsud Qoriyevning “G‘aznaviylar” romanida sultonlar tasvirini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz.

“Sultonning chehrasida horg‘inlik, kechasi bilan tortgan azobning izlari qolgan. Xastalik uning pahlavondek qomatini bukib qo‘ygan, ko‘z qarashlari ham siniq.” (“G‘aznaviylar”. Maqsud Qoriyev.)

– Jumlada ko‘chim hodisasi quyidagicha tahlil qilinadi:

“Azobning izlari” – bitishuvli ushbu birikmada metaforik ko‘chim mavjud bo‘lib, sulton kechasi qanday qiyin va azobli vaziyatlarni boshdan kechirganini vizual, tasavvuriy tarzda ifodalaydi. Azob tuyg‘usi jismoniy izlar bilan tasvirlanganda, bu shaxsiy kechinmalarning jismoniy ta’sirini obrazli ifodalash yo‘li bilan ma’no ko‘chirilgan yoki majoziy ma’noga ega.

“Ko‘z qarashlari ham siniq” – bu birikmada metaforik ko‘chim yuz bergan. Ushbu jumla ma’naviy yoki ruhiy qarshilikni anglatadi. Shu tariqa, “siniq” so‘zining asl ma’nosi ko‘chib, shaxs holatini yoritish uchun ifodalangan. Umuman, biror narsani sindirish yoki buzilish holatida ishlatadigan so‘z bo‘lsa-da, bu yerda sultonning umidsizlik yoki quvvatsizlanish holatini bildiradi.

Jumlada har bir birlik vaqt va tuyg‘ular oqimi doirasida shakllanishga asoslangan. “Kechasi bilan tortgan azob” birikmasi Sultonning uzoq vaqt davomida azob chekkanligini bildiradi. “Azob tortish” ko‘chma ma’nodagi birikma bo‘lib metafora hodisasi yuz bergan. Predmetga xos harakat-holat, ya’ni biror jismning tortishish harakat-holati shaxs ruhiyati va kechinmalarini aks ettirish

uchun ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Badiiy asarda shohning holatini ochib berishda har bir ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan birliklar muhim vazifa bajargan.

Ushbu asardagi shoh obrazi bilan bog‘liq yana bir matn bilan tanishamiz: “Sulton Mahmud G‘aznaviyning xastaligi toboro zo‘rayib bormoqda. Tinchligi ketgan, oromi buzilgan. Keyingi kunlarda, ayniqsa, asabi buzuqligidan rangi zaforondek sarg‘ayib ketgan, buning ustiga uyqusizlik dardi uni qiynar, ruhiyatida tushkunlik.”

Matnda ko‘chma ma’nodagi birliklarni quyidagi tartibda tahlil qilamiz:

– *Tinchligi ketgan*: ushbu ibora metaforik ko‘chim bo‘lib kelgan va bu hodisa sulton Mahmud G‘aznaviyning ruhiyatini ko‘chma ma’noli so‘zlar bilan yoritib, uning bezovta holati va ruhiy tushkunligini ifodalaydi.

– *Oromi buzilgan*: tinchlik va orom odatda xotirjamlik va tinchlik ma’nosini tashiydi. Biroq bu birlikda orom va buzilgan so‘zi birikib ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, shaxs ruhiyati yoritiladi.

– *Rangi zaforondek sarg‘ayib ketgan*: bu ibora ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan metafora hisoblanadi. Zaforon so‘zi quyosh rangini ifodalab keladi, ushbu matnda esa ko‘chma ma’no berib sultonning yuz ifodasini tasvirlashda ko‘maklashadi. Sultonning sog‘ligi yomonlashgani va bu holatning tashqi ko‘rinishiga ta’sirini bildiradi.

– *Uyqusizlik dardi*: ushbu birikma metonimiya bo‘lib kelgan ya’ni jismoniy jismoniy og‘riqqa berilgan nisbat ruhiy azob va noqulaylikni anglatadi. Jumlada ko‘chim orqali shaxs holati ochiladi. Sultonni qiynayotgan tashvish va azoblarni ularning qanday darajada uning fiziologik holatiga ta’sir qilayotganini ifodalaydi.

– *Ruhiyatida tahassur va tushkunlik*: bu birikmada ham metaforik ma’no ko‘chishi yuz bergan. Tushkun so‘zi ko‘chma ma’noni shakllantirgan ya’ni sultonning chuqur ruhiy holati va umidsizligi tasvirlangan.

Jumladagi birlik va iboralar sulton Mahmud G‘aznaviyning jismoniy va ruhiy holatining o‘zgarishiga qaratilgan. Leksik birliklar orqali sulton holatining og‘irligi va har tomonlama zaiflashuvi aks ettirilgan. Matndagi so‘zlar morfologik jihatdan turli shakllarga ega. Masalan, *zo‘rayib bormoqda* fe’lining hozirgi zamon

davomiyligi, *ketgan*, *buzilgan* soʻzlari esa oʻtgan zamoni ifodalab koʻchim hodisasining hosil boʻlishida koʻmaklashadi. Jumla orqali yozuvchi sultonning qanday ahvolga tushganini oʻquvchi yoki tinglovchida his qildirishga harakat qiladi. Matnning kommunikativ maqsadi sultonning azob uqubatini toʻgʻridan-toʻgʻri oʻquvchiga yetkazish hisoblanadi.

“Sultonning tashqi qiyofasini aks ettirgan yana bir oʻringa toʻxtalamiz: Sulton Mahmud jim, hali jahl iskanjasidan chiqib ketganicha yoʻq. Ammo, Unsuriyning xushxabari uning gʻazab toʻla tosh qalbini boʻshashtirganday edi.” Jumlaning koʻchim va uning turlari sifatida tahlil qilsak, quyidagi elementlarni koʻrib chiqishimiz mumkin:

– “*Jahl iskanjasidan chiqib ketganicha yoʻq*” – bu birikmada “*jahl iskanjasi*” majoziy ifodasi sultonning hali ham gʻazabnok kayfiyatidan qutila olmaganini anglatadi. *Iskanja* soʻzi odatda qisilish, qattiq bosim yoki anglatadi, bu yerda esa majoziy maʼnoda ishlatilgan boʻlib, ruhiy qiyinchiliklarni ifodalaydi. “*Jahl iskanjasidan chiqib*” birikmada metafora yoʻli bilan koʻchim yuz bergan.

– “*Gʻazab toʻla tosh qalbini boʻshashtirganday edi.*” – Bu ifodadagi “*tosh qalb*” metaforasi sultonning qattiq gʻazabini va uning his-tuygʻulariga yoʻl qoʻymasligini anglatadi. “*Boʻshashtirganday*” soʻzini esa Unsuriyning xushxabari tufayli uning kayfiyatida bir oz yumshash roʻy berganini bildirib, holat feʼli koʻchma maʼno hosil qilgan. Hukmdorning tuygʻularini qamrab oluvchi bir bosimni turli bosqichlarda qoʻyib yuborish jarayonini tasvirlaydi. Bu turdagi koʻchimlar badiiy asarlar orqali personajning ruhiyatini va psixologik oʻzgarishlarini yanada chuqurroq tarzda ifodalash imkonini beradi. Yozuvchi bu singari badiiy tasvir vositalari bilan oʻquvchi va tinglovchiga aniqroq va taʼsirli tarzda yetkaza oladi. Umuman olganda, yozuvchi hukmdorlarning tashqi qiyofasini soʻz bilan chizari ekan matn taʼsirchanligini oshirish uchun koʻchimlardan mohirlik bilan foydalanadi.

“Izzat-nafsi ancha bukilgan boʻlsa ham, bunga endi rozi. Endi dunyoga qaytadan tugʻildi, bir ayanchli sharmandalik oʻlimdan qoldi, shu olijanob yigit

qutqardi uni, yorug‘ dunyoga olib chiqdi.” (“G‘aznaviylar”. 42-bet). Jumlada bajarilgan ko‘chimlar va ularning turlarini quyidagicha tahlil qilamiz:

“*Izzat-nafsi ancha bukilgan bo‘lsa ham bunga endi rozi*” – Bu yerda “*bukilgan*” so‘zi metafora sifatida ishlatilgan, izzat-nafsning zarar ko‘rganligini yoki uning pasayganligini ko‘rsatadi. “*Rozi*” so‘zi esa, shaxsning o‘z holatini tushunish va uni qabul qilishga tayyorligini ifodalaydi. “*Izzat-nafsi ancha bukilgan*” va “*qaytadan tug‘ildi*” iboralarida metaforik ifoda sifatida qo‘llaniladi. Bu metaforalar orqali muallif shaxsning ichki dunyosidagi keskin o‘zgarishlarni, hissiyotlarning sinishi va yangidan boshlanishini tasvirlaydi.

“*Shu olijanob yigit qutqardi uni, yorug‘ dunyoga olib chiqdi*” – “*Yorug‘ dunyoga olib chiqdi*” ifodasi metafora va metonimiya turlariga kiradi; metafora shaxsning qiyinchilikdan qutulganligini va metonimiya esa hayotdagi yangi imkoniyatlar va umidlarni tasvirlaydi. Metonimiya: “*Ayanchli sharmandalik o‘limdan qoldi*” iborasida esa, shaxsning boshdan kechirgan kuchli ruhiy tajribasi o‘lim bilan qiyoslanadi, bu orqali uning kechinmalari chuqur va jiddiy ekanligini ko‘rsatadi.

– Matnning umumiy maqsadi shohning og‘riqli his-tuyg‘ulari, qayta tug‘ilishi va omon qolish intilishi haqida murojaat qilishga qaratilgan. Shohning tushkunligi va o‘zini yaxshi his qilishi orasidagi kontrast pragmatik nuqtayi nazardan muhimdir.

Ko‘chim hodisalari jumla davomida doimiy ravishda qo‘llaniladi va ular shaxsning ichki kechinmalarini, hissiy holatini va boshidan kechirgan o‘zgarishlarni aniqroq va samarali ifodalash imkoniyatini yaratadi. Ushbu semantik vositalar yozuvchining personajning ijobiy va salbiy tuyg‘ularga bo‘lgan munosabatini o‘quvchi yoki tinglovchiga ta’sirli tarzda etkazish uchun qo‘llaniladi. Keyingi o‘rinlarda ham tahlil etishda davom etamiz:

“Chunki shu topda uning qarshisida dunyoga dong‘i ketgan sarkardalarning sardori, ota qattiqqo‘l, hech kimga so‘zini ham, tilini ham, belini ham bermaydigan G‘aznaviylar sulolasining eng taniqli podshohlaridan biri, ajib ayanchli, ilojisiz holda turardi” (“G‘aznaviylar”, 42-bet).

Metafora, badiiy matnda qahramonning ichki holati va uning tashqi tasvirini chuqurroq va ta'sirli tarzda yoritish imkonini beruvchi kuchli badiiy uslub hisoblanadi. Quyidagi matnda qo'llanilgan metafora va uning vazifalari jihatidan tahlil qilamiz.

Metafora:

“*Dunyoga dong'i ketgan*” – Bu yerda metafora qahramonning shuhrat parvozini va uning ulkan salohiyatini ko'rsatish maqsadida ishlatilgan. Vazifasi: Bu ibora o'quvchi yoki tinglovchida podshohning mashhur shaxs ekanligiga oid tasavvur yaratish uchun ishlatiladi.

“*Ota qattiqqo'l*” – Bu ibora metaforik ma'noda qahrli va kuchsiz ota obrazini yasash uchun qo'llaniladi. Vazifasi: Sultonning qattiqqo'llik bilan adolatli ekanligini ta'kidlash va uning podshoh sifatidagi obro'sini mustahkamlash uchun qo'llanilgan. Qattiq so'zi jismga yoki predmetga xos xususiyat bo'lib, shaxsga nisbatan ko'chadi.

Metonimiya:

– “*So'zini... tilini... belini ham bermaydigan*” – Metonimiyalarda so'zlar va til ko'chma ma'noda ishlatiladi, bu yerda shahzodaning o'ziga nisbatan mustahkamligi va barqarorligini bildiradi.

Semantik tahlil: Har bir ibora va so'zning tanlanishi jumlaning ma'nosi nuqtayi nazaridan muhimdir. Bu orqali sultonning tasvirida turli hissiy va tarixiy kontekstlar yaratiladi.

Sintaktik tuzilishi: Jumla murakkab tuzilishga ega. Bir qancha tavsiflovchi epitelar va boshqa sifatlar orqali podshohni tasvirlash uchun kengaytirilgan gap tuzilishi qo'llanilgan.

So'z birikmalari:

– “G'aznaviylar sulolasining eng taniqli podshohlaridan biri:” “*sulola,*” “*taniqli*” va “*podshoh*” so'zlarining birikmasi tarixiy maqom va obro'ni ifodalaydi.

Ma'no qatlami bu: “*ajib, ayanchli, ilojsiz:*” “*ajib*” va “*ayanchli*” so'zlarining yonma-yon qo'llanishi eng qattiq va hayajonli holatlarni ifodalash

uchun ishlatiladi. *“Ilojsiz”* esa, qiynoqlar va qiyinchiliklar oldida qolish hissiyatini anglatadi.

Bu jumla orqali, podshohning hozirgi ruhiy holatini va sarkardalik borasida uning qattiq ekanligini ko‘rinishi ta’sirli tasvirlangan. Har bir lingvistik vosita uning obrazini boyitish va chuqurlashtirishda xizmat qiladi va matnni yanada rang-barang va ma’noli qiladi. Ko‘chimlar bu dramatik va kuchsiz holat o‘rtasidagi kontrastni namoyish etishda muhim ahamiyatga ega.

“Aziz padaribuzrikvori Sobuqtegin ham o’sha qullikda cho‘l bo‘ylab xo‘jayinning otini minib kelayotganda, toshining og‘irligidan ikki-uch otni ishdan chiqarib yag‘ir qilganda, xo‘jayini tomonidan rosa kaltaklangan” (*“G‘aznaviylar”* 42-bet). *“Toshining og‘irligidan ikki-uch otni ishdan chiqarib yag‘ir qilganda:”*

– Bu yerda tosh og‘irligi odatda jismoniy kuch sarflash va yuk ko‘tarish bilan bog‘liq bo‘lgan bir narsa bo‘lishiga qaramay, qahramonning boshdan kechirgan mashaqqatli yurishini va unga tushgan vazifaning qiyinligini tasvirlash uchun ishlatiladi. Metaforaning Vazifasi: Bu orqali matnda qahramonning qiyinchilik va azoblari ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan qanchalik mashaqqatli ekanligini ta’sirli qilishdir.

Bu metaforalar yordamida muallif Sobuqteginning qiyin va adolatsiz sharoitlari haqida tasavvur yaratadi. Metaforaning asosiy vazifasi shaxsiy kechinmalar va tajribani o‘quvchi hissiy darajada his qilishiga imkon berishdir. Lingvistik vositalar matnning ta’sirchanligini oshiradi va voqea-hodisalarning chuqurligini ochib beradi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Ikkinchi bobning birinchi fasliga yuqoridagi misollar asnosida shunday xulosa berdik. Badiiy matnda shoh obrazining tashqi holatiga berilgan tasvirlarda ko‘chimlarning vazifaviy xususiyatlari keltirilgan misollar orqali birma-bir tahlil qilindi. Tahlil davomida ko‘chim turlaridan metaforaga alohida urg‘u berilib kengroq yoritildi. Albatta, ko‘chimlarning boshqa turlari ham misollarda keltirilgan va tahlil etilgan.

Badiiy asarda obraz masalasi bu ilmiy badiiy obraz deganda asardagi qahramonlar bilan birga yozuvchi qoʻllagan birliklar, koʻchma maʼnoli soʻzlar va iboralar ham nazrda tutiladi. Yuqorida aytganimizdek badiiy matnda shohning ruhiy holatini bergan koʻchim va uning turlari va vazifasi jihatdan tahlil qildik. Shoh ruhiyatini tasvirlashda metaforik koʻchim hodisasiga kengroq toʻxtaldik va batafsil tahlil qildik.

III BOB. KOʻCHIMLARNING LEKSIK-GRAMMATIK, STRUKTUR TABIATI

3.1. Koʻchimlarning struktur-funksional tabiati

Koʻchimlarning struktur-funksional tabiati: Tilning struktur-funksional tabiatini oʻrganishda koʻchim hodisalarining roli juda muhimdir. Koʻchim – bu til birikmalarining majoziy yoki qiyosiy maʼnolarda ishlatilishidir, bu esa tilning nafaqat lugʻaviy, balki semantik va pragmatik boyliklarini ochib beradi. Koʻchimlar tuzilish jihatidan murakkab boʻlib, ularning har biri maʼlum bir funksiya va maqsadga xizmat qiladi.

Struktur jihati: Struktur jihatdan koʻchimlar, iboralar, morfologik qurilmalar va sintaktik tuzilmalar orqali ifodalanadi. Tilshunoslikda har xil koʻchim turlari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya kabi, turli soʻz turkumlarida va jumla tuzilmalarida qoʻllaniladi. Ularning har biri oʻz ichiga olgan maʼno va shakl jihatidan boshqacha tuzilishga ega.

Funksional jihati: Koʻchimlar tilning ifodaviy kuchini oshiradi, nutqda maʼlum bir taʼsir yaratish uchun yoki abstrakt tushunchalarni aniq va yorqin obrazlar yordamida ifodalash imkonini beradi.

Shuningdek, koʻchimlar adabiy matnning syujetini rivojlantirish, obrazlarni chuqurroq yoritish va tinglovchilar yoki oʻquvchilarning hissiy javobini

qo'zg'atishda katta ahamiyatiga ega. Biz o'rganilgan badiiy asarlardan olingan shoh tasviri berilgan matnlarda ko'chimni shakllantirgan iboralarni saralab chiqdik va ko'chmlarning struktur jihatidan tahlil qildik. Badiiy asardan olingan matnda ko'chmlarning struktur-funksional tabiati uning yuzasidan tahlil qilamiz. Masalan, quyida misollarda badiiy matndan olingan parchalarni struktur jihatdan tahlil qilinganda shoh tasviri berilgan o'rinlarda metaforik ma'noli birliklarni alohidalab tahlil qilamiz. Aslida iboralar ko'chma ma'noli birliklardir. Bu yerda metaforalar, aksariyat, iboralar holatida keltirilgan: Yozuvchi M.Qoriyevning "G'aznaviylar" romanidan sultonning tashqi va ichki holati tasvirlangan misollar bilan tahlil qilamiz.

"*Jahl iskanjasi*" bu yerda "*jahl*" g'azab yoki jaholatni va "*iskanjasi*" esa uni mahkam ushlab turadigan tuzilmani anglatadi. Ko'chma ma'noda qo'llangan bu ibora Sulton Mahmudning g'azabini ifodalagan va metaforik ko'chim ma'noda kelgan. "*G'azab to'la tosh qalbini*" "*Tosh qalb*" bu yerda insonga xos bo'lgan his-tuyg'ularni to'sib qo'yilgan *sovuq qalbni* anglatadi. Sovuq qalb bu yerda ko'chma ma'noda kelgan ibora metaforik ko'chim bo'lib, badiiy matnning obrazlilikini oshirgan. "*Tinchligi ketgan, oromi buzilgan*" "*Tinchlik*" va "*orom*"ning ketishi ruhiy xotirjamlikning buzilishini ifodalagan metaforalardir. "*Rangi zaf'arondek sarg'ayib ketgan*" Zaf'aron sariq rangi bilan qiyoslanish Sulton Mahmudning kasallikdan yoki tashvishdan qarashining o'zgarishini bildirib kelgan sifatdoshli birikma metaforadir. "*Azobining izlari*" Azob tuyg'usining izlari chehra tuzilishida namoyon bo'lishi moslashuvli birikma holatida kelgan metafora hisoblanadi. "*Ko'z qarashlari ham siniq*" "*Siniq*" so'zi ko'chma ma'no kelib predmet, nisbatan olingan o'xshashlik ko'zlarining o'zida bo'lgan ruhiy yoritilishni ifodalovchi badiiy metafora. "*Xayoli quyunday charx urib*" xayolning "*Charx urish*" ko'chim ya'ni metaforani yuzaga keltirib harakat o'rtasidagi o'xshashlik yuz bergan. Bu yerda xayoli ortiqcha bezovta qilib aylanganini anglatadi. "*Yuragini o't olib*" yurakni o't olish bu junbushga kelish, g'azabga minishni anglatib ushbu ko'chim orqali ruhiy holatni yoritib bergan. O't olgan

yurakda kuchli hissiyotlar yashayotganini anglatadi. Demak, ijodkor tomonidan sultonga berilgan tasvirlarda ko'chma ma'no ya'ni badiiy metafora qo'llangan.

Quyida yozuvchi O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida shohga berilgan tasvirlar bilan tahlil qilamiz.

Misol: "*Oldinda uchib borayotgan Mirzo Ulug'bek*" Uchish harakati yugurish harakati bilan nisbatlanib harakat o'xshashligiga asoslangan metaforaga misol bo'ladi. Sifatdoshli birikma shaklida kelgan metafora tezkorlik va erkinlikni ifodalab kelgan. "*Ot yuzli, qiyg'ir burun*" Amir Temurga berilgan ushbu ta'rifda ko'chim hodisasidagi o'xshashlik hayvon va qushga nisbatan olinib shaxs ruhiyatini ochib bergan. Ijodkor tomonidan qo'llangan badiiy metaforaga yorqin misol bo'la oladi. Bu yerda jismoniy baquvvatlikni ko'rsatish uchun obrazlilik berib ta'riflash uchun hayvonlar bilan qiyoslanmoqda. "*Ko'ngli suv ichganday ravshan tortdi*" bu ifoda ruhiy tiniqlik va xotirjamlikni berish uchun qo'llangan metafora. Aslida ko'ngilning suv ichishi majoziy ma'no kasb etgan. Ya'ni shohning ruhiy holatini ifodalash uchun qo'llangan. "*Ko'zlari yonib*" yonish bu yerda tashvish yoki g'azabning ko'z ifodasida namoyon bo'lishini anglatib badiiy matnga obrazlilik berish uchun ibora shaklidagi badiiy metaforaga misol bo'ladi. "*O'tkir ko'zlari bilan qadalib qaraganda*" hukmdorga berilgan ushbu ta'rifda *o'tkir ko'zlar* predmet xos xususiyatning inson a'zosiga ko'chishi orqali shohning jismonan baquvvat ekanligiga nisbat berish uchun qo'llangan metaforaga misol bo'la oladi. *O'tkir ko'zlar* qattiq va keskin nigohning ifodasi bo'lib badiiy asarga ta'sirchanlikni baxsh etgan. "*O'tkir nigohida sho'x uchqunlar o'ynar edi*" shahzoda Abdulatifga berilgan tasvirning holatini ochib berish uchun qo'llangan ushbu jumla nigohida beqarorlik yoki o'zgaruvchan his-tuyg'ularning namoyon bo'lishini ko'rsatib kelgan metaforaga misol bo'ladi. "*Burgut, qora burgut*" Abdulatifga berilgan ushbu tasvirda metonimiyaga misol bo'lib qayta nomlash asosida vujudga kelgan ko'chimga misol bo'la oladi. "*Burgut, qora burgut*" bu ko'chma ma'noli birlik kuch va hokimiyat ma'nosini ham ifodalab kelgan. "*Ganj niqobni eslatgan yuzi*" *ganj niqob* sirlilik va yashirgan tuyg'ular

anglatib kelgan bitishuvli birikma bo‘lib kelgan. Struktur tahlilda sifatdoshli birikma metaforaning shakllanishida muhim vazifa bajaragan.

“Yonoqlari turtib chiqqan qoramtir yuzida, ichiga botgan sal qisq ko‘zlarida, sovuq bir ifoda paydo bo‘lgan edi” jumlaning struktur tahlil qilish: *yonoqlari turtib chiqqan* sifatdoshli birikma harakatning yuz qismga ko‘chishi metafora. *sovuq bir ifoda paydo bo‘lgan* kengaygan birikma salbiy o‘zgarishlar, ruhiyatning sovuqligi va yomonligini bildirgan ko‘chma ma’noli badiiy metafora bo‘lib kelgan. M.Qoriyevning *“G‘aznaviyalar”* romanidan sultonning tashqi va ichki holati tasvirlangan misollar *“hariflar bilan olishganda”* Metaforik ifoda sifatida, bu tushuncha hariflar bilan bo‘lgan bevosita jang emas, balki Sulton Mahmudning har qanday qiyinchiliklar bilan kurashishini bildirib kelgan metafora. Ushbu ko‘chim hodisasi ikkinchi darajali gap bo‘lagi hol bo‘lib shakllangan. *“chechak bilan og‘rigan”* ushbu sifatdoshli birikma aniqlovchi vazifasini bajarib kelgan. Bu yerda ko‘chma ma’noli birikma metonimiyaga misol bo‘lib chechak kasalligi bilan betob bo‘lganligini anglatadi. *“Kuch-quvvatga to‘lgan”* bu ibora badiiy metaforaga misol bo‘lib, sultonning jismoniy holatidir, lekin bu yerda uning ichki iroda va shijoatini, hukmdorlik qobiliyatini ta’kidlash uchun ko‘chma ma’noda ishlatilgan. *“Ko‘zlari o‘tkir”, “qarashlari qattiq”* bu iboralar metafora shaklda jismoniy ko‘rinishdan ko‘ra, uning ma’naviy qarashlari va shoh sifatidagi kuchli xarakterini aks ettirib kelgan bitishuvli birikmadir. *“Quchoq ochmoq”* ibora shaklidagi birikmada harakat o‘rtasida ma’no ko‘chish yuz bergan. Bu yerda quchoq ochish, do‘stlik yoki yaqinlikdan ko‘ra, ikki hukmdorning siyosiy yoki harbiy ittifoqini ifodalab kelgan. *“Toshining og‘irligidan”* ushbu birikma metonimiyani yuzaga keltirgan ko‘chma ma’noli birikma. Tana og‘irligi qayta nomlanib, toshning og‘irligi deb ko‘chma ma’no shakllangan to‘ldiruvchi birikma. *“O‘ta qattiqqo‘l”* bu ibora uning adolatli va qat’iy qarorlari uchun mashhur bo‘lgan Sulton Mahmudning hukmdorlik qobiliyatini ifodalab kelgan metaforaga misol bo‘ladi. *“Izzat-nafsi ancha bukilgan”* bu ibora ko‘chma ma’noda metaforaga misol bo‘ladi. *“Izzat-nafs”* bukilishi Sulton Mahmudning ruhiy

holatini tavsiflashda qo‘llanib, struktur tahlilda sodda gap shaklida kelgan ko‘chimga misol bo‘lgan.

Keltirilgan misollar adabiy nuqtayi nazardan qahramonning ichki kayfiyatini ifodalashda ko‘chim va uning turlarini qanday qilib samarali ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu iboralar, inson tuyg‘ulari va holatlariga qo‘yilgan majoziy va qiyosiy ta’riflardir. Matnning har bir kontekstida ko‘chma ma’no va metaforik ifodalar keng qo‘llaniladi va ular asosiy ma’nolarni chuqurroq va boyroq qilish uchun ishlatiladi. Bu iboralar shaxslarning ichki kechinmalari, kayfiyati yoki xarakteri haqida ko‘proq ma’lumot beradi va badiiy matnda obrazlilikni boyitib beradi.

Keyingi o‘rinda, o‘rganilgan badiiy asarlardan olingan shoh tasviri berilgan matnlarda ko‘chimni shakllantirgan iboralarni saralab chiqdik va ko‘chimlarning ayniqsa, metaforik ko‘chimning funksional jihatidan tahlil qildik. Masalan: Keltirilgan matnlarda ko‘chimlarning funksional jihatini, ya’ni ko‘chma ma’no qanday qilib matnni boyitish va qahramonlarning his-tuyg‘ulari yoki holatlarini ifodalashda qanday vazifa bajarishini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

1. *Sulton Mahmud jim, hali jahl iskanjasidan chiqib ketganicha yo‘q.*

– Funksional jihat: Bu yerda "*jahl iskanjasi*" iborasi Sulton Mahmudning g‘azabga to‘lgan va biror ishga qattiq bog‘langan, ya’ni mahkam ushlab turilganini bildiradi. Matnda g‘azabning chuqurlik darajasini ta’kidlash va uning hukmdorning ruhiy holati ustidan iskanjaga aylangan tuyg‘ularining kuchini ko‘rsatishda qo‘llanilgan metaforaga misol bo‘la oladi.

2. *Sultonning chehrasi ancha xunuk... ko‘zlari o‘tkir, jussasi hashamatli.*

– Funksional jihat: Sultonning tashqi ko‘rinishining tasviri Sultonning ruhiy holati va shaxsiyatining qat’iy, qarorli va jasur jihatlarini obrazli qilib ko‘rsatish uchun ishlatilgan. Chehraning "*xunuk*"ligi, ko‘zlarining "*o‘tkir*"ligi xarakterining kuchli tomonlarini ifodalashga xizmat qilgan metaforaga misol bo‘ladi.

3. *Mirzo Ulug‘bek xayoli quyunday charx urib.*

– Funksional jihat: Bu ibora Mirzo Ulug‘bekning chuqur o‘yga tolganini yoki bir narsadan ikkinchisiga tez almashib turishini bildiradi. "*Charx urib*" ifodasi

uning xayollarining boy va tassavurli ekanligini, shuningdek, uning o‘ylari tinimsiz va tez o‘zgaruvchan ekanligini ta’kidlashda qo‘llanilgan. Bu birikma metaforik ma’no ko‘chishiga misol bo‘lgan.

4. *Mirzo Ulug‘bek yuragini o‘t olib, arg‘umog‘iga achchiq qamchi bosdi.*

–Funksional jihat: Bu yerda *yurakka o‘t tushishi* qattiq qaror yoki keskin his-tuyg‘u borligini ifodalaydi. “*Achchiq qamchi bosish*” iborasi esa, Mirzo Ulug‘beking biror ishni amalga oshirishda qattiq va qarorli ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘chim: “*yurakka o‘t tushishi, achchiq qamchi bosish*” ushbu birikmalar badiiy metaforani shakllantirgan.

5. *Bobosi Amir Temur ot yuzli, qiyg‘ir burni kishi edi.*

–Funksional jihat: Amir Temur timsolining ot yuzi va qiyg‘ir burni uning jasoratli va kuchli qiyofasini, temuriylarga xos bo‘lgan qattiqqo‘l va serzarda qarashini aks ettirish uchun metaforik ravishda ishlatilgan.

Matnlarda keltirilgan boshqa ko‘chimlarda ham ularning funksional vazifasi shaxsning ichki kechinmalarini, tuyg‘ularini yoki xatti-harakatlari orqali tasvirlab beradi. Ular matnga chuqurlik qo‘shib, personajlar o‘rtasidagi hissiy aloqalar yoki matn ichidagi dramatik voqealarni ta’kidlashda muhim rol o‘ynaydilar. Bunda har bir ko‘chim o‘ziga xos ma’no yukini tashuvchi va voqeaning ma’lum bir tomonini qalqib chiqaruvchi semantik qurollar hisoblanadi. Quyida yana misollar keltiramiz.

Misollar:

– “jahl iskanjasi” – Jahl va iskanja so‘zlari majoziy ma’noda ishlatilgan, bu yerda jarayon yoki psixologik holatni ko‘rsatadi.

– “g‘azab to‘la tosh qalbini” – “Tosh qalb” bu yerda qattiq va his-tuyg‘ulardan mahrum bo‘lgan qalbni bildiradi.

– “tinchligi ketgan, oromi buzilgan” – “Tinchlik”ning ketishi va “orom”ning buzilishi majoziy ma’noda ruhiy xotirjamlikning yo‘qolishi bilan bog‘liqdir.

– “rangi zaf‘arondek sarg‘ayib ketgan” – Bu ibora jismoniy rangning o‘rniga, kishining sog‘ligi yoki kayfiyatidagi o‘zgarishlarni ifodalaydi.

– “azobining izlari” – Ruhiy yoki jismoniy azobdan keyin qolgan ta’sirlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

– “xayoli quyunday charx urib” – Xayolning tez-tez o‘zgaruvchanligini tasvirlash uchun ishlatilgan majoziy tushuncha.

– “yuragini o‘t olib” – His-tuyg‘ularning kuchayishi yoki biror bir ishga chuqur emotsional berilishni anglatadi.

– “oldinda uchib borayotgan” – Erkinlikni yoki vazifa yo‘nalishidagi ajoyib tezlikni tasvirlash uchun ishlatiladi.

– “ot yuzli, qiyg‘ir burun” – Amir Temur qiyofasining jismoniy xususiyatlarini ta’rifi uchun ko‘chma ma’nodagi tasvirlash.

– “ko‘ngli suv ichganday ravshan tortdi” – Majoziy ma’no, chuqur xotirjamlik yoki aniq tushuncha topilishini ifodalaydi.

– “ko‘zlari yonib” – Jonlanish yoki his-tuyg‘ularning kuchayishi belgisini bildiradi.

– “o‘tkir ko‘zlari bilan qadalib qaraganda”- Amir Temurning qat’iy va keskin nigohini tasvirlashda qo‘llanilgan.

– “sho‘x uchqunlar o‘ynar edi” – Amir Temurning ko‘zlaridagi shijoatni yoki his-tuyg‘ularning jo‘shib ketishini bildiradi.

– “burgut, qora burgut” – Kuch, jasoratni aks ettiruvchi ko‘chma tushuncha.

– “ganj niqobni eslatgan yuzi” – Sirli va yashirin tuyg‘ularni ifodalash.

– “yonoqlari turtib chiqqan qoramtir yuzida” – Chehradagi fizik o‘zgarishning majoziy tasviri.

Ushbu misollar badiiy matnda shohlarning, sultonlarning ruhiy holati, umumiy kayfiyati yoki o‘zgarishlarni tasvirlashda qanday qilib ko‘chma ma’noda iboralar qo‘llanilganini aks ettirib beradi.

3.2. Shoh tasvirini berishda qo‘llangan ko‘chimlarning leksik-grammatik xususiyatlari

Veselovskiy ta’kidlaganidek, metaforalarning katta bir qismi “miflarga”, “animizmga” borib taqaladi. Shunday ekan, har bir tilda metafora jarayoni o‘ziga

xos¹²⁶. Albatta, har bir ijodkor o‘zining badiiy asarida xoh zamonaviy xoh tarixiy asar bo‘lsin ko‘chim hodisasini shunday qo‘llaydiki o‘z qarashlari bilan ham obrazlilik kiritadi. Ya‘ni xalq tilidan, tarix tilidan o‘ziga xos ko‘chimlarni qo‘llaydi, Ijodkor besh asr ortga qaytib bo‘lsa-da o‘sha davr ko‘zi va qarashi bilan shohlar tasvirini obrazli tasvirini chizadi va ko‘chimlarni mohirlik bilan qo‘llaydi. Shu o‘rinda ijodkorning mahoratini yuzga chiqadi. Demak, shohlar tasviri aks etgan asarlarda ko‘chim va uning turlarini bir talay uchratishimiz mumkin. Quyida bir qator misollar bilan tanishib tahlil qilamiz. Biz tahlil davomida shoh tasvirida qo‘llangan ko‘chimlarning leksik –grammatik xususiyatlarini ketma ket ko‘rib chiqamiz.

“Xon otdan tushib, ochiq yuz bilan Sulton Mahmudga quchoq ochdi. Ikki hukmdor bir- birlarini bag‘irlariga bosib, xuddi qadimiy yaqin do‘stlardek ko‘rishdilar” (“G‘aznaviylar”, 44-bet).

Jumlada avval ko‘chim hodisasi va uning turlarini aniqlab olamiz va tahlil qilamiz.

Ko‘chim turi: metafora *ochiq yuz bilan* sintaktik tahlilda bitishuvli so‘z birikmasi bo‘lib bilan ko‘makchisi *ochiq yuz* birikmasiga qo‘shilib muhim leksik ma‘no tashiydi masalan, Sulton Mahmud *ochiq yuz* inson desak umumiy jihatdan yaxshi inson nisbatini beramiz lekin, bilan ko‘makchisini o‘rniga qo‘ysak ayni vaziyatdagi holatinigina ko‘rsatib beradi. Bilan ko‘makchisi sintagma hosil qilib mazmunga nisbatan ijobiylikni yuqtiradi. Yuzga nisbatan *ochiq* sifatini qo‘llash biroz erish tuyiladi biroq, asl metaforik hodisani shakllantirgan ushbu so‘z muhim leksik ma‘no tashiydi. Misol uchun *ochiq yuz* o‘rniga o‘zga sifatni qo‘llab bo‘lmaydi leksik ma‘no tamoman o‘zgacha tus oladi. Shu o‘rinda, B.Umurqulovning badiiy matnda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq fikriga to‘xtalamiz. Badiiy matnda lug‘aviy jihatdan o‘rganish, umumxalq tili vositalarining rang-barangligini izohlashda, tilning lug‘aviy va uslubiy jihatdan darajasini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

¹²⁶ Лясота Ю.П. Роль метафорических слов и выражений в развитии словарного состава языка. Автореф. дис....канд. филол. наук. -Л.: 1953. -22 с.

Shundan anglashiladiki, *ochiq yuz bilan* metaforik birikmasi badiiy asarda shaxs ruhiyatini ochib berish uchun mahorat bilan qoʻllangan. Ot bilan ifodalangan metaforaga misol boʻladi.

Keyinga misollarga eʼtibor beramiz: “Mirzo Ulugʻbek suyuqli bobosini koʻrganda koʻngli suv ichganday ravshan tortdi.” (“Ulugʻbek xazinasi” O.Yoqubov.92-bet) “*Mirzo Ulugʻbek suyuqli bobosini koʻrganda koʻngli suv ichganday ravshan tortdi*” shoh tasviri berilgan ushbu sodda gapdan koʻchma maʼnoli birliklarni alohida ajratib olamiz va ularni leksik grammatik jihatdan tahlil qilamiz. Koʻngil suv ichmoq bu birikmani morfologik tahlil qilinganda metaforani hosil qilgan birliklarimiz ot va feʼl soʻz turkumidan iborat boʻlib, sintaksis jihatdan bir qolipga kelib qolgan. Yaʼni koʻngli suv ichganday ravshan tortdi birikmasi frazologik birlik ibora hisoblanadi. Ushbu birlikni leksik jihatidan tahlil quyidagicha: Mirzo Ulugʻbekning ruhiy holatini tasvirlashda ishlatilgan koʻchimga misollarni tahlil qilamiz. Bu birikma orqali Mirzo Ulugʻbekning bobosini koʻrganida boshdan kechirgan his-tuygʻulari ifodalanadi. Koʻchimning eng faol turi boʻlgan metafora badiiy asarda shoh tasvirini berishda kuchli taʼsirchanlikni bera oladi. “Suv ichganday” bu ibora, ruhiy tasalli va rohatlanishni ifodalovchi metaforadir. Oʻz maʼnoda suv ichish chanqoqni qondiradi va insonni yaxshi his qilishini taʼminlaydi, ushbu majoziy qiyos esa Ulugʻbekning bobosini koʻrganida ruhiy taranglikdan qutulganini va yana oʻzini yaxshi his qila boshlaganini bildiradi. Metaforaning vazifasi bu shohda ruhiy taranglikni yengillik bilan almashtirib berish uchun qoʻllangan. Ushbu metafora orqali Ulugʻbekning kechinmalari tasvirlanadi, bobosini koʻrganida uning koʻngli yorugʻ va ravshan boʻlib, xuddi suv ichganday tetiklashgani ifodalanadi. Emotsional holatning oʻzgarishini taʼkidlash: “Koʻngli... ravshan tortdi” qismi, Ulugʻbekning hissiy holatining yaxshilanishini ifodalaydi, bobosini koʻrishdan keladigan sevinch va mamnunlikni aks ettiradi. “Koʻngli suv ichganday” iborasini lingvistik jihatdan tahlil qilish, ushbu metaforik ifodaning tuzilishi va uni qanday qilib ruhiy holatni ifodalashda qoʻllanilishini oʻrganishni oʻz ichiga oladi. – Koʻngil: Bu soʻz ichki hissiyotlar yoki kayfiyatni anglatadi va odatda shaxsning his-tuygʻulari bilan

bog'liq. Suv ichganday bu "suv ichmoq" harakati bu yerda metaforik ma'noda qo'llanilmoqda. O'z ma'nosi chanqoqni qondirish bo'lsa-da, majoziy ma'noda u ruhiy qoniqish yoki tinchlikni bildiradi. Leksik tahlilda bu ibora keng tarqalgan ma'naviy yoki emotsional rohatlantiruvchi tajribani namoyish qiladi, bu vaqti-vaqti bilan har bir kishi tomonidan his qilinish mumkin bo'lgan holat bo'lib badiiy matnga obrazlilikni baxsh etgan.

Metaforaning qo'llanilishi orqali "ko'ngli suv ichganday" iborasi shaxsning ichki olamidagi pozitiv o'zgarishlarni ko'rsatadi, xuddi suv ichish qondirganday bir hissiy yengillik va xotirjamlik hissini ifodalab, o'quvchi yoki tinglovchiga shaxsning kayfiyati yoritilgan voqeaga nisbatan qay darajada yaxshilanganini bildiradi. Bu lingvistik vosita matndagi personajning hissiy dunyosini yanada boyitadi va o'zgarishini ta'sirchanroq qiladi. Bu tahlil bizga matnda shaxs ruhiyatini ochib berishda ko'chimning muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Metafora orqali yozuvchi o'quvchilar yoki tinglovchilarga Ulug'bekning ichki dunyosini yanada chuqurroq va kengroq darajada his qilish imkonini yaratadi, his-tuyg'ulari va ruhiy holati o'rtasidagi o'zgarishlarni ta'sirli ro'yxat bilan ifodalaydi. Badiiy matnda "Ko'ngli ravshan tortdi" iborasini metaforik ko'chim va lingvistik jihatdan tahlil qilishda, ushbu ifoda tarkibidagi har bir so'zning ma'no qatlamlarini va majoziy ishlatilishini ko'rib chiqish kerak. Metaforik tahlilda "ko'ngil" ot so'z turkumi bu so'z insonning ichki hissiy dunyosini anglatadi, kayfiyat yoki emotsional holatni ifodalashda ishlatiladi. "ravshan" sifat so'z turkumi ushbu sifat so'zi odatda yorug'lik, aniqlik va tushunarlilikni bildiradi. Metaforik ma'noda "ravshan" ko'ngil fikrning aniq va tiniq ko'rinishini anglatadi, Go'yo ichki hissiyotlar tushuniladigan va qabul qilinadigan bo'lib badiiy matnda emotsionallikni ifodalab kelgan. "tortdi" fe'l so'z turkumi bu yerda faol harakat bildiruvchi fe'l bo'lib, odatda bir narsaning boshqa narsaga qarab yoki bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini bildirib metaforik ma'noda "tortdi" so'zi ko'ngilning aniq holatga o'tganini ko'rsatadi. Ma'noviy tahlil bu leksik tahlil "Ko'ngli ravshan tortdi" iborasi, insonning ruhiy holatidagi ijobiy o'zgarishni bildiradi va bu ko'pincha kutilmagan yaxshi xabar yoki voqealarga boshlang'ich javob sifatida

ishlatiladi. Ushbu tahlil natijasida, “ko‘ngli ravshan tortdi” iborasi ko‘ngilning yaxshi holatga kelishi, ya’ni tushunish va aniq qaror qabul qilishga qodir bo‘lishini ifodalaydi. Metaforik ko‘chim orqali bu ibora ichki ruhiy halovat va tushunarlikni ta’kidlaydi. Lingvistik jihatdan esa iboraning tuzilishini va uning qanday qilib o‘quvchiga ma’lum bir hissiyot yoki ruhiy holatni yetkazishiga oydinlik kiritadi.

Yozuvchi Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”romani tahlilini shoh ruhiyatini yoritishda ko‘chim va uning turlari yuzasidan tahlilda davom ettiramiz: Oldinda uchib borayotgan Mirzo Ulug‘bek qandaydir ichki bir tuyg‘uga bo‘ysunib, otining boshini “Bog‘i jahonga” burdi (92-bet). Jumla tarzidagi “Ichki bir tuyg‘uga bo‘ysunib” ko‘chimi, o‘quvchi yoki tinglovchining tuyg‘ularga nisbatan sezuvchanligini oshiradi va shaxsning ichki dunyosini ochib berishda juda muhim rol o‘ynaydi. Bu turdagi ko‘chim va uning turlari, adabiy matnlarda personajlarning ruhiy portretini yoritish uchun tez-tez foydalaniladi va o‘quvchini asar qahramonlari bilan chuqurroq bog‘lanish hissiyotiga undaydi. Matnni tahlil qilganimizda Mirzo Ulug‘bekning o‘z qobiliyatlari va ichki kuch-qudratiga qanchalik ishonch bildirganligi va uning mamlakatni yaratish yoki rivojlantirishdagi istiqbollari ko‘rsatib berish orqali shoh ruhiyatini qanday chuqurroq va yorqinroq qilib ochib berish mumkinligini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Metaforalar matndagi shaxs obrazini, uning his-tuyg‘ularini va hayotidagi muhim daqiqalarni ifodalashda juda ta’sirchan vosita hisoblanadi.

Keyingi o‘rinda tahlilda davom etamiz: Ustodning g‘am anduhga to‘la ovozi favqulodda titrab ketdi-yu, Ali Qushchi gustohlik qilganini sezib, labini tishladi. Ustodning boshida qora bulutlar quyuvlashgan bir paytda bu nozik gapni qo‘zg‘ab, uning dilini og‘ritmoq insofdanmi (“Ulug‘bek xazinasi” 14-bet).

“Ustodning g‘am anduhga to‘la ovozi” jumlasini ko‘chim va uning turlari jihatidan tahlil qilganda, quyidagicha ma’lumotlar olishimiz mumkin. Ko‘chim turlari ichida metafora eng ko‘p o‘rganilgan mavzu hisoblanadi. Negaki, biz atrof borliqni nisbiy anglaymiz ya’ni har bir narsa, voqea-hodisa, xatti-harakat, umuman barchasini bir biriga qiyosan o‘rganib anglaymiz, tushunamiz. Metafora hodisasi ham xuddi shu vazifani beradi. Bu yerda “g‘am anduhga to‘la” iborasi metaforadir,

chunki ovoz madaniyati g'am va anduh kabi abstrakt tushunchalarga to'ldirilgan holat sifatida ifodalangani yo'q. Biz bu erda hissiy holat yoki kayfiyatni tasvirlash uchun ovozning xususiyatlarini ishlatamiz. Bu metafora orqali ustozning chuqur iztirobini va ko'ngil og'rig'ini his qilishimiz mumkin. Metonimiya agar bu ibora ustodning o'zini his qilish tarzini ifodalovchi biror narsa sifatida ishlatilgan bo'lsa, bu metonimiyaga misoli bo'lishi mumkin. Masalan, ustodning ovozida g'am va anduhning eshitalishi uning ichki kechinmalari haqidagi noaniq ma'lumotni beradi. Ko'chimning vazifasi hissiy chuqurlikni ta'kidlash, jumla orqali ijodkor ustozning ruhiy holatini ovoz xususiyatlaridan foydalanib yaqqol tasvirlamoqda. Ta'sirli ta'kidlash metafora shaklida g'am va anduh tuyg'ularini ovoz orqali ko'rsatish ustozning chuqur tajribasini o'quvchilarga ta'sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Obraz yaratish Ulug'bekning ovozida g'am va anduhning to'liq eshitalishi ijodkorning biror voqea yoki shaxsiyatning kayfiyatini obrazli tasvir orqali ifodalash istagini ko'rsatadi.

Ushbu tahlil yordamida "Mirzo Ulug'bekning g'am anduhga to'la ovozi" jumlasida ko'chimdan samarali foydalanilgani va bu orqali ustozning ruhiy holatining boy tasvirini namoyish etilganini ko'rish mumkin. Ushbu jumla adabiyotda shaxslarning hissiyotlarini ta'kidlash va o'quvchiga ularga nisbatan chuqurroq his-tuyg'ularni uyg'otish uchun ishlatiladigan samarali vosita sifatida qaraladi. Keyingi o'rinda yana bir misolni tahlil qilamiz, masalan: "Ovozi favqulodda titrab ketdi" ifodasini metaforik hodisa sifatida tahlil qilish orqali, bu iborada nutqni ifodalovchi kishining hissiy holati va ichki jarayonlarni obrazli tavsiflash yotadi. "Favqulodda titrab ketdi" ifodasida "favqulodda" so'zi odatiydan tashqari, noyob yoki juda keskin degan ma'nolarni ochib beradi. Bu esa, ovozning g'ayrioddiy darajada titraganligini, ya'ni kishining aniq bir hissiy yoki ruhiy holatga tushganini ifodalaydi. Odatda biz fizik olamda titrashni ko'ramiz, lekin bu yerda u metaforik tarzda ovozning bir holatini ifodalash uchun qo'llanilgan. Metaforaning badiiy matnda vazifasi emotsional holatni berishdir. Bu yerda "titragan ovoz" odamning qandaydir kuchli hissiyotlar – xavotir, hayajon, qo'rquv yoki hatto g'azabni boshdan kechirayotganini aks ettiradi. Kuchli ta'sirni

yaratish metaforaning muhim vazifasi ovozda sodir bo'lgan o'zgarish orqali o'quvchi yoki tinglovchida aniq bir tasavvurni shakllantiradi. Ushbu metaforik tavsif, mavjud emotsional tuyg'uni kuchaytiradi va voqeaga bo'lgan reaksiyani ta'kidlaydi. Bunday estetik vositalar nutqning ifodaviy jihatini oshirib, matnning umumiy hissiy ta'sirini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Yana bir misol: Bakovullar qo'llaridagi barkashlarni xontaxtaga qo'yib chiqib ketgunlaricha Mirzo Ulug'bek bir nuqtaga tikilib sukutga cho'mib o'tirdi. Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi" romani. 15-bet. Mirzo Ulug'bek bir nuqtaga tikilib sukutga cho'mib o'tirdi. Ushbu jumlaning ko'chim va uning turlari hamda metaforik hodisa jihatidan tahlil qilamiz. "Mirzo Ulug'bek bir nuqtaga tikilib sukutga cho'mib o'tirdi" jumlasini ko'chim va uning turlari hamda metaforik hodisa jihatidan tahlil qilganimizda, jumladagi majoziy ma'nolar va ularning nutqdagi qo'llanilishini tushunishimiz mumkin. Metafora hodisasi "Sukutga cho'mib" bu yerda "sukutga cho'mib" iborasi Mirzo Ulug'bekning chuqur o'ylar yoki xayollarga botganini bildirish uchun qo'llanilgan metaforadir. O'z ma'nosida "cho'milib" suvga sho'ng'ish yoki unga g'arq bo'lishni anglatadi, lekin bu kontekstda u majoziy ravishda o'ta sukutli va chuqur tafakkur holatini ifodalovchi metaforik tavsif sifatida ishlatilgan. Ko'chimning vazifasi ruhiy chuqurlikning tasvirlashidir. Ushbu ibora orqali Mirzo Ulug'bekning o'z xayollariga chuqur kirib ketgan holati ifodalangan, bu esa uning ruhiyati va his-tuyg'ularini ochib beradi. Ichki erkinlikni va xotirjamlikni ta'kidlash "bir nuqtaga tikilib" qismi uning diqqatining qanchalik markazlashtirilganligini ko'rsatadi, va bu uning qandaydir muhim va e'tiborga loyiq bir narsani xayol qilayotganini yoki o'z fikr-mulohazalariga botganini anglatadi.

Ko'chim turlaridan metafora odatda, eng kuchli qo'llanilgan ko'chim hodisasiga misol bo'lsa ham, "tikilib" yoki "sukut" kabi so'zlar metonimiya sifatida ham ishlatilishi mumkin, chunki ular ma'lum bir hissiyot yoki psixologik holatni ifodalash uchun odatiy ma'nodan boshqa ma'nolarga o'tishni namoyish etadi. Bu esa, Mirzo Ulug'bekning his-tuyg'ularining nozikligini va uning ichki kechinmalari talqinini taqdim etadi. Jumla umumiy ravishda, Mirzo Ulug'bekning

o‘nlab xayollarga g‘arq bo‘lib qolgani va tashqi dunyodan uzilib, o‘z fikr-mulohazalariga berilib ketgan holatini ko‘rsatib, uning ichki olamiga nazar tuymoqda. Bu turdagi iboralar, odatda, personajning chuqur psixologik holatlarini tasvirlash yoki u bilan bog‘liq kechinmalarni aks ettirishda foydalaniladi.

Yana bir misol: “Bobur tuni bo‘yi o‘lim bilan olishib chiqdi. Har qayt qilganda yurak-bag‘ri ezilib parchalanib chiqayotganday og‘rir, goho nafasi ichiga tushib ketar edi”. P.Qodirov. “Yulduzli tunlar” romani. Tahlil qilamiz: “Bobur tuni bo‘yi o‘lim bilan olishib chiqdi. Har qayt qilganda yurak-bag‘ri ezilib parchalanib chiqayotganday og‘rir, goho nafasi ichiga tushib ketar edi.” ifodasi ko‘chim va uning turlari jihatidan tahlil qilganda, bunday qator serqirra his-tuyg‘ularni bayon qiluvchi turli xil majoziy usullarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ijodkor tomonidan qo‘llangan badiiy metaforani tahlil qilamiz. “O‘lim bilan olishib chiqdi” o‘lim haqiqiy jang maydoni emas; bu yerda Boburning qiyin ahvoli va kechinmalarini hissiy kurash sifatida tasvirlash uchun metafora sifatida qo‘llaniladi. Metaforik ma’noda bu hissiyotlar kurashini ifodalaydi. “Yurak-bag‘ri ezilib parchalanib chiqayotganday og‘rir edi. Bu iborada “yurak-bag‘ri ezilib” ma’lum bir darajada jismoniy og‘riqni anglatishi mumkin, lekin bu yerda u Boburning ruhiy iztirobini ifodalash uchun ishlatiladi. “Parchalanib” so‘zi xuddi yurak aniq bir narsalar tomonidan bo‘linib ketayotganiday hissini uyg‘otadi, bu esa metaforik ma’no qo‘shib, ruhiy qiynoqlarini yanada chuqurroq tasvirlaydi. Ushbu badiiy matnda yana bir ko‘chim hodisasi giperbolaga ham misol ko‘ramiz. “Har qayt qilganda...og‘rir” bu ifoda his-tuyg‘ularning kuchaytirilishi va oshirib yuborilishi, bu Boburning og‘riqlari haqidagi bayonni ta’sirli qilib ko‘rsatish uchun giperbola sifatida ishlatiladi. “Nafasi ichiga tushib ketar edi” bu yerda nafasi jo‘shqin bir predmet sifatida tushib ketayotgani ifodalangan, bu qo‘rqinchli va noaniq ruhiy holatni yoritadi. Personifikatsiya yordamida nafasning deyarli insoniy xarakterga ega ekanligi ko‘rsatiladi, bu esa tinglovchi yoki o‘quvchiga Boburning ahvolini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu misolda ko‘chim va uning turlari, ayniqsa metafora va giperbola, Boburning ruhiy holatining kuchini va chuqurligini samarali ifoda etishda juda muhim rol o‘ynaydi. Bu uslublar

o‘quvchilarga yozuvchi tomonidan tasvirlangan his-tuyg‘ularni yanada his qilish, voqealar va personajlarning ichki kechinmalarini tushunish imkonini beradi.

Bob bo‘yicha xulosalar

Badiiy matnda shohlarga berilgan tasvirlarda ko‘chim va uning turlarini tahlil qildik va ushbu o‘rganilgan tasvirlarda ko‘chim turlarini alohidalab struktur-funksional jihatdan tahlil qildik. Bobning bu faslida ko‘chimlarni struktur tahlil qilinganda shoh tasviriga berilgan ko‘chimlarni ibora, so‘z birikmasi va sintaktik qurilma shaklida tahlil qildik. Misollarda olingan ko‘chimlarni funksional vazifasiga ko‘ra tahlil qildik.

Badiiy metafora bu obrazli, ifodali vositalar hisoblanib, badiiy matndagi vazifasi ham obrazlilik, tasviriylik va ta’sirchanlikdir. Shu asnoda badiiy matn bilan ishlashda uchinchi bobning ikkinchi fasliga shunday xulosa berdik: Ushbu faslda badiiy matnda ko‘chimlarning leksik va grammatik vazifasiga urg‘u berib misollarda shoh tasvirini bergan ko‘chimlarning leksik xususiyati ancha kengroq tahlil qilindi va leksik tahlil bilan birgalikda grammatik tahlilni ham amalga oshirdik

UMUMIY XULOSA

Badiiy matn talabiga ko‘ra ba’zi leksemalar ifodalaydigan ma’noni o‘zga bir so‘zga ko‘chirilishini bilmay turib badiiy matn bilan ishlash, asarni tushuna olish, undan obrazlilikni his etib, ta’sirlanish va tahlil qilish mumkin emas. Negaki badiiy asarning jozibasini beruvchi vosita bu ko‘chimlardir. Birinchi bobning birinchi faslida “*Ko‘chim turlari – lingvistik tadqiqot obyekti sifatida*” mavzusi yoritilgan. Bobning kirish qismida tilshunoslikda ko‘chim va uning turlari nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilishi, jahon tilshunosligida “troplar” atamasi ostida o‘rganilib tahlil qilinganligi batafsil yoritilgan. O‘zbek tilshunos olimlarining ko‘chim va uning turlari, xususan, metafora mavzusiga bag‘ishlangan tadqiqotlari asosida fikr va mulohazalar kiritildi. Ko‘chimlarni tadqiq etish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

– Ko‘chimlar bu badiiy matnda obrazlilik, ta’sirchanlik va emotsionallikni yuzaga keltiruvchi vositalardir.

– Ko‘chimlar tilshunoslikda batafsil o‘rganilgan va bugungi kunda ham o‘rganilib kelinmoqda.

Til insonning olam haqidagi qarashlarining paydo bo‘lishda muhim omildir. Inson faoliyati jarayonida obyektiv dunyoni so‘zlarda qayd etib borliq haqidagi bilimlarini boyitadi. Olamni bilish va anglashda majoziy qarash muhim o‘rin tutadi. Birinchi bob ikkinchi faslda “Olam manzarasini tasvirlashda ko‘chim turlarining roli” mavzusi jahon va o‘zbek tilshunos olimlari tomonida keltirilgan fikr-mulohazalar bilan asoslanib yoritildi. Bobning bu faslida ko‘chim turlaridan metaforaning tilshunoslikda o‘rganilishiga doir qarashlar bilan yoritildi. Olam manzarasini tasvirlashda metaforalar o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib shu asnoda quyidagi xulosalarga keldik:

– Metafora bu, nafaqat, badiiy matnda balki, atrof muhitda borliqning har jabhasida, turli tabaqalarda va barchaning tilida qo‘llaniladigan lingvistik hodisa.

– Metafora bu antik davrlardan to bugungi kungacha metafora deb nomlangan nutq hodisasi, faylasuflar, psixologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, ijodkorlar va ishqiboz muxlislar e’tiborini o‘ziga tortib kelgan ko‘chim hodisasi.

Badiiy matnda shaxs talqini va tahlili, obraz masalasi bu mavzuda ko‘plab tadqiqot ishlar amalga oshirilgan. Biroq badiiy asarda shoh obrazini tasvirlashda ko‘chim turlarining ishtiroki va matnda tutgan o‘rni haqida ushbu tadqiqotda tahlillar amalga oshirilgan. Ushbu tahlillar asnosida quyidagi xulosaga keldik:

– Badiiy matnda shohning tashqi holatini ifodalashda metafora shoh obrazini yorqin misollar bilan yoritib beradi va badiiy matnda davr nuqtayi nazaridan ishtirok etadi.

– Badiiy matnda metafora shoh obrazining tashqi holatini tasvirlashda ijobiy va salbiy ma’no berish bilan birgalikda tasvirni ma’lum ma’noda darajalab ham beradi.

Badiiy matnda metaforaning haqiqiy badiiy ahamiyati uning qaytarilmasligi, individualligi fikr va hissiyotni ifodalashi bilan belgilanadi. “shohning ruhiy

olamini lingvistik tahlil qilish ko‘chimlarning vazifasi bilan bog‘liqdir. Shaxs ruhiyatini tasvirlash ko‘chim turlaridan metaforaning badiiy matnda tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Ya’ni metafora shohlar tasviri berilgan barcha asarlarda mavjud bo‘lib, obrazlilikni va ta’sirchanlikni baxsh etib turadi. Ushbu tahlillar asnosida shunday xulosaga keldik:

- Shaxs ruhiyatini tasvirlashda metaforik ma’no ko‘chishning qo‘llanilishi inson ruhiy olamining tilsiz tuyg‘ularini tilga kiritadi.

- Badiiy matnda ijodkor tomonidan qo‘llangan metaforalar badiiy metaforalar bo‘lib ijodkorning ijodiy mahsulidir.

Ko‘chim turlari metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik badiiy matnda frazologik birlik ko‘rinishida ko‘plab uchraydi. Xalqning ma’naviy bisotidan o‘rin olgan iboralar ko‘chma ma’noda qo‘llanib metafora shaklida ta’sirchanlikni yuzaga chiqaradi. Matnlarda keltirilgan boshqa ko‘chimlarda ham ularning funksional vazifasi shaxsning ichki kechinmalarini, tuyg‘ularini yoki xatti-harakatlari orqali tasvirlab beradi. Ushbu tahlillar asnosida shunday xulosaga keldik:

- Struktur jihatdan ko‘chimlar, iboralar, morfologik qurilmalar va sintaktik tuzilmalar orqali ifodalanadi.

- Ko‘chimlar tilning ifodaviy kuchini oshiradi, nutqda ma’lum bir ta’sir yaratish uchun yoki abstrakt tushunchalarni aniq va yorqin obrazlar yordamida ifodalash imkonini beradi.

Badiiy matnda shoh tasviri qo‘llangan ko‘chimlar grammatik jihatdan tahlil qilinganda metaforalar asosan ot, fe’l va sifat so‘z turkumi bilan ifodalanadigan birliklar hisoblanadi. Metaforalarning poetik, semantik mohiyati, lisoniy vujudi, ularning sintaktik va stilistik xususiyatlari tadqiqot obyekti bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tahlillar asnosida shunday xulosaga keldik:

- Metaforalar sifatdoshli birikmalar bilan shakllanib so‘z birikmasi ya’ni bitishuvli birikma bo‘lib keladi. Morfologik jihatdan ot, fe’l, sifat so‘z turkumlari bilan shakllanadi.

– Sifatdosh bilan ifodalangan metaforalar biz o‘rganib chiqqan poetik metaforalarning ma’lum qismini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз! – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 507 б.
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 486 б.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

1. Йўлдошев Б. Бадиий асар тили ва услубини ўрганиш // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари.– Самарқанд: 1980. – Б 48-51.
2. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б. 9-11.

3. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.
4. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б. 6-8.
5. Абдурахмонов Ғ. Адабий асар тилини ўрганиш ҳақида. // Ўзбек тилини ўқитиш методикаси масалалари. – Тошкент, 1966. – Б. 4.
6. Аҳмедов А. Бадиий асар тилини ўрганиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1960, №3. – Б. 46-50.
- Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талкин, 2005. 226-б.
8. Иззат Султон. Бадиий асарнинг тили // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1939. – №5.
9. Гуломов А. Бадиий адабиётнинг тили ҳақида // Адабиёт ва санъат, 1941. – №1.
- Эсанов Ж. Бадиий асар тилини ўрганиш // Ўқитувчилар газетаси, 1963, 6 декабрь.
11. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, 1982; Стилистический анализ узбекской художественной прозы. – Ташкент, 1989.
12. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Б. 88.
- Маҳмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1985. – №6. – Б. 48-51; Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. – №4. – Б. 34-38.
14. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтический интерпретации стихотворного текста: Автореф... дисс... филол. д-ри. Наук. – Ташкент, 1992. – С. 3.
15. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982.
16. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология. –Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017. – Б. 26.
17. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 9.

III. Matbuot materiallari va ilmiy maqolalar

Boynazarov Z. Tarixiy-qomusiy manbalarda ifodalangan olamning lisoniy manzarasi va uning madaniyat tarixini o'rganishdagi o'rni (Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'at-it turk" asari misolida) Academic Journal of History and Idea ISSN: 2148-2292. Dergipark.org.tr. –Toshkent, 2019. – 2147 b.

2. Омонтурдиев А. Лексикографиянинг тилшунослик тараққиётидаги ўрни Филологиянинг долзарб муаммолари илмий-амалий анжуман материаллари (Илмий тезис ва мақолалар тўплами), 2016 йил 18 май, 85-89-бетлар

3. Махмараимова Ш.Т.. Теоморфик метафорада ментал хосликлар Ученый XXI века. 2015. № 7-8 (8-9) - С. 28-32

IV. Dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari

1. Алпанова Ш.Х. Нутқий фаолият жараёнидаги руҳий ҳолатларнинг ўзбек тилининг турли сатҳ бирликлари воситасида акс этиши Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Фарғона, 2018.

2. Эрназарова И.Ш. Муаллиф сўз ижодкорлигининг лисоний когнитив таҳлили (Эшқобил Шукур ижоди мисолида) Фил.фан.номз...дисс. – Самарқанд– 2022.

3. Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти. Фил.фан.док. (DSc). дисс. – Қарши, 2018, 15-бет.

4. Муқимова З.Р. Ўтқир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоестик ва лингвомаданий хусусиятлари Фил.фан.номз...дисс. –Тошкент– 2020.

5. Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари Фил.фан.док. (DSc). дисс. – Тошкент, 2020. 206 б.

6. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз... дисс. автореферат. –Тошкент, 2000. – Б. 10.

7. Худойберганова Д.С. Ўзбекилидаги бадий матнларнинг антропосентрик талқини Фил.фан.номз...дисс. –Тошкент – 2015.

8. Сувонова Р.А. О‘збек тилида метонимия. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд. 2001. 6 б

V. Lug‘atlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ З.М.Маъруфов таҳрири остида. 2-томлик, 1-том, -М.:, “Рус тили” нашриёти, 1981, 632 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ З.М.Маъруфов таҳрири остида. 2-томлик, 2-том, -М.:, “Рус тили” нашриёти, 1981, 717 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 1-том. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. 680 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 2-том. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008, 671 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 3-том. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008, 687 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 4-том. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008, 606 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати/ Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов ва б. таҳрири остида. 5-томлик, 5-том. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008, 591 б.
8. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002, 164 б.

VI. Elektron resurslar

<https://diss.natlib.uz>

2. <https://natlib.uz>

3. library.ziyonet.uz

4

5

saarj.com

h

t

t